XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI VA HISOB-KITOBLAR



336
X 22

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI VA HISOB-KITOBLAR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2018

«QO‘QON UNIVERSITETI» MChJ NOTM
AXBOROT-RESURS
MARKAZI
№ 1045

UO'K: 336.741.242.1
KBK: 65.268ya722

Taqrizchilar: *i.f.n., dots.* **F.N. Nasriddinov**;
i.f.n. **F.U. Dodiyev**

Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar: Darslik / T.I. Bobakulov, J.Ya. Isakov, U.A. Abdullayev, I.M. Alimardonov, N.K. Abrayev; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 148 b.

Darslikda xalqaro valyuta operatsiyalari va xalqaro hisob-kitoblarning asosiy nazariy va amaliy masalalari o'z aksini topgan. Xususan, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish asoslari, banklararo vakillik munosabatlarini o'rnatish tartibi, tijorat banklarining spot operatsiyalari, muddatli va svop operatsiyalari, Markaziy banklarning valyuta operatsiyalari, valyuta riski va uni boshqarish, valyuta operatsiyalarini tartibga solish va nazorat qilish, xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlarining mohiyati ochib berilgan.

Shuningdek, Darslikda xalqaro umumlashtirilgan qoidalarga kiritilgan so'nggi o'zgarishlar, milliy valyuta qonunchiligimizga kiritilgan o'zgarishlar ham o'z ifodasini topgan.

Darslikdan "Pul kredit va banklar", "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari", "Bank ishi" fanlarini o'rganishda foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu Darslik Magistratura ta'lim yo'nalishining "Bank ishi" va "Bank hisobi va audit" mutaxassisligida ta'lim olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan.

UO'K: 336.741.242.1
KBK: 65.268ya722

ISBN 978-9943-13-769-1

© "IQTISOD-MOLIYA", 2018
© T.I. Bobakulov va boshq, 2018

KIRISH

"Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar" fani oliy ta'limning magistratura yo'nalishida o'qitiladigan "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanining mantiqiy davomidir.

Xalqaro valyuta operatsiyalari har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Eksport-import operatsiyalari, xalqaro ssuda va tadbirkorlik kapitallarining harakatini, davlatlararo siyosiy, harbiy va madaniy aloqalarni valyuta operatsiyalari va xalqaro hisob-kitoblarsiz amalga oshirishning imkoni yo'q. Buning ustiga, so'nggi yillarda xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirish va xalqaro hisob-kitoblar amaliyotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha 1930 yildan buyon amal qilib kelayotgan Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar (UCP 500) o'rniga uning yangi, takomillashgan varianti - UCP 600 xalqaro amaliyotga joriy qilindi. Bundan tashqari, 2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi valyutaviy derivativlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat qilish mexanizmini yaratishning zarurligini ko'rsatdi.

Buning ustiga, xalqaro zaxira valyutalarning erkin suzish rejimiga ega ekanligi, jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik sharoitida, ularning nominal almashuv kursini sezilarli darajada tebranishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, AQSh davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defitsitning mavjudligi, davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, "evrohudud"dagi qarz muammolari, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og'ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, yevroning nominal almashuv kursining tebranishlariga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash vazifalari qo'yildi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar "Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar" fanini o'rganishga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mazkur darslikda xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblarga oid muhim nazariy va amaliy masalalar o'z ifodasini topgan. Jumladan, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish asoslari, tijorat banklari va Markaziy banklarning valyuta operatsiyalari, valyuta riski, valyuta operatsiyalarini tartibga solish va nazorat qilish, xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Ushbu darslikni yozishda xorijiy davlatlar tajribasidan hamda xalqaro moliya institutlari ekspertlarining taklif va tavsiyalaridan keng foydalanilgan.

1-BO'LIM. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI

1-BOB. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARINI TASHKIL QILISH VA BANKLARARO VAKILLIK MUNOSABATLARINI O'RNATISH TARTIBI

1.1. Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning iqtisodiy-huquqiy asoslari

Xalqaro valyuta operatsiyalari deganda valyutalar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalari tushuniladi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarida tashqi konvertirlikka ega bo'lgan va jahon valyuta bozorlarida doimiy oldi-sotdi qilinadigan valyutalar ishtirok etadi. Hozirgi davrda jahon valyuta bozorlaridagi konversion operatsiyalarning 90 foizdan ortiq qismi sakkizta etakchi valyutada amalga oshirilmoqda. Bular – AQSh dollari (USD), yevro (EUR), Yaponiya ieni (JPY), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Shveytsariya franki (CHF), Kanada dollari (CAD), Avstraliya dollari (AUD), Xitoy yuani (CNY).

Ushbu valyutalardan 5 tasi Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan beriladigan xalqaro rezerv valyuta (reserve currency) maqomiga ega: AQSh dollari, yevro, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Xitoy yuani.

XVF ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, valyuta xalqaro rezerv valyuta maqomiga ega bo'lishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak[1]:

1. Rezerv valyutaning emitenti bo'lgan mamlakat XVFda katta zaxira pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim.

2. Ushbu valyutada davlatlarning rasmiy xalqaro valyuta zaxiralarining nominali aks etishi kerak.

3. XVF tomonidan ushbu valyutada kreditlar berilishi lozim.

---

[1] Kennen P.B. International Liquidity and the Balance of Payments of a Reserve – Currency Country//The Quarterly Journal of Economics. Vol.74. No. 4 (1960).

4. Rezerv valyuta xalqaro to'lov vositasi vazifasini bajara olishi lozim.

2015 yil 30 noyabrda XVF Xitoy yuanini xalqaro rezerv valyuta sifatida tan oldi. Chunki, ushbu sanada XVF tomonidan yuanni SDRning valyuta savatiga kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

SDR XVFning xalqaro hisob birligi bo'lib, uning qiymati valyuta savati orqali aniqlanadi. Uning valyuta savatining tarkibi har 5 yilda ko'rib chiqiladi. So'nggi marta SDRning valyuta savati 2011 yilda ko'rib chiqilgan edi. Uning savati tarkibi 2016 yil kuzda ko'rib chiqildi va Xitoy yuani SDRning valyuta savatiga beshinchi valyuta bo'lib kirdi. Yuanning SDRning valyuta savatidagi ulushi 10,92% qilib belgilandi.

Lekin yuanni boshqa zaxira valyutalar kabi xalqaro hisob-kitoblardagi ulushini keskin oshib ketish ehtimoli past. Buning sababi shundaki, Xitoy hukumati eksportni rag'batlantirish maqsadida yuanning nominal almashuv kursini past darajada ushlab turibdi. Buning ustiga, 2015 yil 10 dekabrda Xitoy Xalq banki (Markaziy bank) yuanni AQSh dollariga nisbatan devalvatsiya qildi va yuanning 1 dollarga nisbatan nomianal almashuv kursi 6,4236 yuanni tashkil etdi.

Xitoyning ushbu kurs siyosati uning asosiy tashki savdo hamkorlari bo'lgan davlatlarni, xususan, AQSh va G'arbiy yevropa davlatlarining noroziligiga sabab bo'lmoqda.

Amerikalik senator Ch. Shumerning fikriga ko'ra, "Xitoyning valyuta kursi manipulyatsiyasi tiklanayotgan amerika iqtisodiyotining kekirdagiga tiralgan etikdir"[2].

Shubhasiz, AQSh to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limidagi yirik defitsitni yuzaga kelishida Xitoy muhim rol o'ynaydi. Chunki, Xitoy AQSh importida birinchi o'rinni egallaydi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutaviy qimmatliklar ham muhim o'rin tutadi. Odatda, valyutaviy qimmatliklarga oltin va boshqa nodir metallar, xorijiy valyutalarda yozilgan cheklar, veksellar va qimmatli qog'ozlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

---

[2] Levur@ mail.ru.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda keng qo'llanilayotgan erkin ishlatiladigan valyutalarga nisbatan koeffitsientlar qo'llaniladi. Etakchi xorijiy valyutalardan faqat Yaponiya ieniga nisbatan 10 koeffitsienti qo'llaniladi, AQSh dollari, yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveytsariya franki, Kanada dollari, Avstraliya dollariga nisbatan 1 koeffitsienti qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta operatsiyalari iqtisodiy va huquqiy asoslarga tayanadi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarining iqtisodiy asoslari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Davlatlar o'rtasidagi eksport-import operatsiyalarining mavjudligi.
2. Ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakatining mavjudligi.
3. To'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalar harakatining mavjudligi.
4. Nodir metallar savdosining mavjudligi.
5. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy, madaniy aloqalarning mavjudligi

Xalqaro valyuta operatsiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq. Aynan, eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishi xalqaro valyuta operatsiyalarini paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Import bo'yicha to'lovni amalga oshirish, olingan eksport tushumini milliy valyutaga ayirboshlash orqali milliy valyutadagi to'lovlarni o'tkazish konversion operatsiyalarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Shunisi ahamiyatliki, xalqaro savdo hamon xalqaro valyuta operatsiyalarining muhim iqtisodiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali dunyo bo'yicha amalga oshirilgan eksport va import operatsiyalari hajmi bilan tanishamiz.

1.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012-2014 yillarda dunyo bo'yicha eksport va importning hajmi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, jahon iqtisodiyotini global inqiroz ta'siridan chiqib ketayotganligini, tovarlar va xizmatlar eksportini rivojlanib borayotganligi va importga bo'lgan talabning oshib borganligidan dalolat beradi.



1.1-rasm. **Dunyo bo'yicha eksport va import hajmi[3], mlrd. AQSh dollari**

1.1-rasm ma'lumotlari ko'rsatadiki, 2015 yildan boshlab dunyo miqyosida eksport va import hajmining qisqarib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa, jahon tovar bozorlarida raqobatning keskin kuchayayotganligi, qator davlatlarda, shu jumladan, Xitoyda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayayotganligi va buning natijasida xom-ashyo resurslariga bo'lgan talabning kamayayotganligi bilan izohlanadi.

Ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati xalqaro valyuta operatsiyalarining ikkinchi muhim iqtisodiy asosidir.

Xalqaro kreditlar qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lib, ular dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditlar harakatini tartibga soluvchi bozor regulyatori bo'lib, uning bahosi hisoblanadi.

Xalqaro kreditning bahosi xalqaro ssuda kapitallari bozorida shakllanadi.

Xalqaro kreditlar etakchi valyutalarda beriladi va ularning asosiy qismini xalqaro rezerv valyutalarda beriladigan kreditlar tashkil etadi.

Jahon valyuta bozorlaridagi bir kunlik konversion operatsiyalarning hajmi 4 trln. AQSh dollaridan oshadi.

AQSh davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defitsitning mavjudligi, davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik

[3] IMF. Internatioal Financial Stattistics, 2017 (P. 71; 74). www.imf.org.

darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo'lmoqda.

AQSh dollari nominal almashuv kursining tebranishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri bo'lib, mamlakat savdo balansining katta miqdordagi defitsitga ega ekanligi hisoblanadi. 2013 yilning 1 yanvar holatiga, AQSh savdo balansining defitsiti 440,4mlrd. dollarga etdi. Bu 2008 yilda sodir bo'lgan inqirozdan boshlab 2013-yilning boshigacha bo'lgan davrdagi eng katta miqdordagi defitsit hisoblanadi.

AQSh Davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzining xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy darajadan yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy omillar hisoblanadi. 2013 yilning yakuniga ko'ra, AQShda davlatning tashqi qarzi YaIM miqdoridan oshdi.

AQSh dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining asosiy qismi AQSh dollarida shakllangan.

1.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010 yilning yanvar oyi boshidan 2012 yilning yanvar oyining boshiga qadar AQSh dollarining nominal almashuv kursi yevroga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Bu esa, AQSh FZTning iqtisodiyotni retsessiya holatidan chiqarishga yo'naltirilgan ekspansionistik pul-kredit siyosatini olib borayotganligi bilan izohlanadi. Ammo bu vaqtinchalik holat. Ishonchimiz komilki, AQShda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi bilan FZT hisob stavkasini oshirishga majbur bo'ladi. Bu esa, AQSh dollarining nominal almashuv kursining ko'tarilishiga olib keladi.

2008-yilda FZT tomonidan hisob stavkasining yillik darajasini 0,25 foizga qadar tushirilishi AQSh iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, pullar taklifining ham oshishiga olib keldi.

AQSh dollari nominal almashuv kursining tebranishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri bo'lib, mamlakat savdo balansining katta miqdordagi defitsitga ega ekanligi hisoblanadi. 2012 yilning 1 yanvar holatiga, AQSh savdo balansining defitsiti 52,6 mlrd. dollarga etdi[4]. Bu 2008 yilning oktyabr oyidan boshlab 2012-yilgacha bo'lgan davrdagi eng katta miqdordagi defitsit hisoblanadi.

[4] http://lenta.ru/news/2012.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda AQShning Xitoy bilan amalga oshiriladigan savdo munosabatlaridagi defitsit miqdorining o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

AQSh Davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzining xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy darajadan yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy omillar hisoblanadi. 2011-yilning yakuniga ko'ra, AQShda davlatning tashqi qarzi YaIM miqdoridan oshdi, Davlat byudjeti defitsiti summasi esa, 1,3 trln. AQSh dollarini tashkil qildi. Bu esa, AQSh YaIMning 8,5 foizini tashkil qiladi[5].

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy andozaga ko'ra, Davlat byudjetining YaIMga nisbatan salmog'i 3,0 foizdan oshib ketmasligi lozim. Davlatning tashqi qarzi esa, YaIMga nisbatan 30,0 foizdan oshib ketmasligi kerak.

Yaponiyada Davlat va Markaziy bank tomonidan muammoli aktivlarni sotib olinishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlashishiga va shuning asosida milliy valyuta almashuv kursining tebranishlariga sabab bo'lmoqda. Xususan, Yaponiya Markaziy banki 2008-2010 yillarda 55 trln. ien miqdoridagi aktivlarni sotib oldi. 2011 yilda yana 10 trln. ien miqdoridagi muammoli aktivlarni sotib olishga qaror qilindi[6].

Yaponiya hukumati va Markaziy banki kompaniyalar va banklarning muammoli aktivlarini sotib olish yo'li bilan ularning ko'pchiligini bankrot bo'lishdan saqlab qoldi. Agar og'ir moliyaviy ahvolni boshidan kechirayotgan kompaniyalar va banklarning qimmatli qog'ozlarini sotib olmaganda edi, ushbu qimmatli qog'ozlarning bozor baholarining pasayishi natijasida ularning bozor baholari pasayib, emitentlarning bozordagi mavqeiga jiddiy putur etgan bo'lar edi.

2009 yil yanvar oyida Yaponiya to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi bo'yicha defitsit summasi 172,8 mlrd. ienni tashkil etdi. Holbuki, bunga qadar 13 yil mobaynida defitsit bo'lmagan edi[7].

AQSh dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining

---

[5] Board of Governors of the Federal Reserve System. Annual Report. 2011. Washington, 2012. P. 16-17.

[6] Центробанк Японии напечатает еще 10 триллионов иен. http://lenta.ru/news/2010.

[7] http://www.mof.go.jp.english/budjet/htm.

asosiy qismi AQSh dollarida shakllangan. Shu sababli, 1999 yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQShga dollar, yevro va ienning kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni taklif qildilar. Ammo AQSh Federal zaxira tizimining o'sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat'iyan rad etdilar. Ularning fikriga ko'ra, mazkur uch etakchi valyuta kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni joriy etish AQSh Federal zaxira tizimining ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur etkazadi[8].

"Evrohudud"dagi qarz muammolari, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og'ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, yevroning AQSh dollari va boshqa etakchi valyutalarga nisbatan kursining tebranishlariga va pasayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Gretsiyadagi og'ir iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilayotgan kreditlar va boshqa shakllardagi moliyaviy mablag'lar yevrodagi pul massasining oshishiga sabab bo'lmoqda.

2010 yil 7 mayda yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning rahbarlari tomonidan Gretsiyaga moliyaviy yordam berish dasturi ma'qullandi. Ushbu dasturga muvofiq, Gretsiya uch yil mobaynida 110 mlrd. yevro oladi. Mazkur yordamning Gretsiya uchun muhimligi shundaki, hozirgi kunda ushbu mamlakatdagi iqtisodiy ahvol juda og'ir: davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdoridan katta, davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzning umumiy miqdori 300 mlrd. yevrodan oshadi[9].

2012 yilda Kiprda moliyaviy qiyinchiliklarning boshlanganligi yevroning nominal almashuv kursi barqarorligiga nisbatan mavjud bo'lgan salbiy ta'sirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. "Reyters" agentligining xabar berishicha, 2012 yilda Kiprga kamida 1,8 mlrd. yevro kerak. Bu esa, uning YaIMning 10 foizini tashkil etadi[10].

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muomalaga katta miqdordagi pul mablag'larining paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xulosa-

---

[8] Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. М.: Дело и Сервис, 2007. С. 625-626.

[9] Лидеры стран-участниц ЕС утвердили программу помощи Греции. http://lenta.ru/news/2010.

[10] Кипр обратился к ЕС за финансовой помощью. http://lenta.ru/news/2012.

siga ko'ra, "...so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar, asosan, qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin"[11].

Xalqaro rezerv valyutalar kurslarining nobarqarorligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, milliy valyutamiz-so'mning nominal almashuv kursi xalqaro rezerv valyuta bo'lgan AQSh dollariga nisbatan aniqlanadi.

Xalqaro amaliyotda milliy valyutalarning almashuv kursini "valyuta savati"ga bog'lash ularning almashuv kursi tebranishini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergan. Masalan, Rossiyada rublning kursini "bivalyuta savati"ga nisbatan aniqlashning joriy qilinishi uning barqarorligini va yevroning konversion operatsiyalar hajmidagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning muhim iqtisodiy asoslaridan biri xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning milliy va xorijiy valyutalarda joriy hisobraqamlarining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu joriy hisobraqamlardagi mablag'lar hisobidan xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi, boshqa xorijiy valyutalar sotib olinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga muvofiq, rezidentlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishlari mumkin. Mazkur Qonunning 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan norezident jismoniy shaxslar, immunitet hamda diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasida xo'jalik va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari O'zbekiston Respublikasi

[11] Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012. B. 4.

hududidagi vakolatli banklarda milliy valyutada va chet el valyutasida hisobvaraq ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir[12].

O'zbekiston Respublikasi uchun quyidagilar rezidentlar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining fuqarolari;
- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasining hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasining immunitet va diplomatik imtiyozlaridan foydalanadigan xorijdagi diplomatiya hamda boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tashkilotlarining chet eldagi xo'jalik va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari.

Xalqaro valyuta operatsiyalarining tashkil qilish va amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biri – bu milliy va jahon valyuta bozorlarining mavjudligidir.

Milliy valyuta bozori 2 qismdan iborat bo'ladi:

1. Valyuta birjasi
2. Birjadan tashqari valyuta bozori.

O'zbekiston Respublikasining Valyuta birjasi respublikamizda birja bozori hisoblanadi.

Milliy valyutamiz-so'mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida aniqlanadi.

Respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVB-ga a'zo bo'lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSh dollarini sotib olish maqsadida so'mda berilgan buyurtmalar; b) AQSh dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to'xtatish to'g'risidagi buyruqni bergandan so'ng har ikkala xildagi buyurtmalar bo'yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. Shundan keyin so'mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSh dollaridagi buyurtmalar summasiga bo'lish

[12] O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. B. 13-14.

yo‘li bilan o‘zbek so‘mining 1 AQSh dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi. So‘mning valyuta kursini 1 AQSh dollariga nisbatan aniqlanayotganligi so‘mning to‘g‘ri kotirovka rejimiga ega ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma’lum qismini majburiy tartibda sotishda qo‘llaniladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning amaliyotida, xususan, AQSh, Yaponiya, Kanada davlatlarining amaliyotida milliy valyutaning kursi fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmiga asoslanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, maklerlar va tijorat banklari dilerlari ishtirokida kun davomida amalga oshiriladigan valyuta savdosi jarayonida shakllangan talab va taklif asosida, operatsion kunning aniq bir vaqtida, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan birja kursi aniqlanadi. Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi.

Birjadan tashqari valyuta bozori banklararo bozordir. Bunda valyuta savdosi tijorat banklari dilerlarining telefon yoki internet orqali so‘zlashuvlari orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning me’yoriy-huquqiy asoslari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Milliy valyuta qonunchiligi.
2. Xalqaro qoidalar va konventsiyalar.
3. Xalqaro Valyuta Fondi Kelishuvlar moddalari bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlar.

Respublikamizda milliy valyuta qonunchiligiga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respulikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risda”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- Soliq kodeksi;
- Bojxona kodeksi
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Valyutani tartibga soluvchi davlat organlarining yo‘riqnomalari va qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

Mazkur Qonunning 7-moddasiga muvofiq, joriy valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

*tashqi savdo va boshqa joriy faoliyat olib borilishi bilan, shu jumladan, xizmatlar ko‘rsatish, qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar

* foizlar va boshqa daromadlar ko‘rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo‘yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida to‘lanishi zarur to‘lovlar

* kreditlarni uzish uchun yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to‘lash;

*savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari

Savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalariga quyidagilar kiradi:

* ish haqi, stipendiya, pensiya, alimentlar to‘lash;

* xodimlarni xorijga xizmat safariga jo‘natish;

* ta’lim va davolanish uchun haq to‘lash;

* xorijdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarni ta’minlash;

* notarial va tergov harakatlari bilan bog‘liq to‘lovlar;

*sudning, arbitrajning qarorlari asosida pul to‘lash;

* xalqaro konferentsiyalar, simpoziumlarda, sport, madaniy va boshqa tadbirlarda ishtirko etish uchun to‘lovlar;

*dafn qilish bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar;

*mualliflik haqi, patent bojlarini to‘lash.

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organidir.

Ushbu Qonunning 18-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

Mazkur Qonunning 20-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat Bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, tijorat banklari chet el valyutasini naqd va naqd bo‘lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish, xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada ko‘rsatilgan boshqa operatsiyalarini amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank:

*O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar uchun majburiy bo‘lgan valyutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqaradi

*banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga chet ed valyutasida operatsiyalar o‘tkazish uchun litsenziyalar beradi va litsenziyalarni qaytarib oladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi

* Banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyalari chegaralarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilaydi

*milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi

*O‘zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etadi va boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 yanvardagi PQ-1914-sonli “Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2013 yilning 1 fevralidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari – jismoniy shaxslarga vakolatli banklar tomonidan xorijiy valyutani xalqaro to‘lov kartalaridan foydalangan holda naqdsiz shaklda sotish mexanizmi joriy qilindi. Bunda jismoniy shaxs vakolatli bankda xalqaro to‘lov kartasini ochadi. Vakolatli bank esa, uning shaxsiy plastik bank kartasida milliy valyutadagi pul mablag‘lari etarli ekanligini tekshiradi, xorijiy valyutani operatsiya amalga oshirilgan kuni belgilangan ayirboshlash kursi bo‘yicha xalqaro to‘lov kartasiga

o‘tkazadi hamda jismoniy shaxsga xorijiy valyutani sotib olganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi ma’lumotnomani beradi[13].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 iyundagi 263-sonli «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, 2001 yilning 1 iyulidan boshlab xorijiy investorlar foydasi, dividendlari va boshqa daromadlarini repatriatsiya qilish, eksport qiluvchilar tomonidan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotish, asbob - uskunalar, butlovchi buyumlar, xom - ashyo, materiallar va xizmatlar importi, yangidan jalb qilinadigan xorijiy kreditlarga xizmat ko‘rsatish kabi operatsiyalar birjadan tashqari valyuta bozorining talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadigan erkin valyuta kursi asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Buning ijrosi natijasida valyuta kurslarini unifikatsiyalash jarayoni tezlashdi va, pirovard natijada, so‘mning belgilangan birja kursiga nisbatan ancha past bo‘lgan, talab va taklifga asoslangan birja kursi shakllandi.

Xalqaro valyuta qonunchiligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va konventsiyalar hisoblanadi.

Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar:

* Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo‘yicha xalqaro umumlash-tirilgan qoidalar (UCP 500; UCP 600);

*Inkasso bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalar;

*Shartnomaviy kafolatlar bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalar.

Xalqaro konventsiyalar:

*Xalqaro oddiy va o‘tkazma veksellar muomalasi bo‘yicha xalqaro konventsiya

*BMTning yuklarni dengiz orqali tashish konventsiyasi

*Arbitraj sudlari qarorlarini ijrosini ta’minlash bo‘yicha xalqaro konventsiya

O‘zbekiston 2003 yil 8 oktyabrida XVF kelishuvlar moddasining 8-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qildi. Ushbu majburiyatlar 2003 yil 15 oktyabrdan boshlab kuchga kirdi.

---

[13] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 yanvardagi PQ-1914-sonli “Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. T., 2013. № 6 (558). B. 5.

AXBOROT-RESURS MARKAZI
№ 1045

O‘zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro Valyuta Fondi Nizomi VIII-moddasining 2 bo‘lim a-bandi, 3 va 4-bo‘limlari bo‘yicha belgilangan majburiyatlarni qabul qildi. Ushbu majburiyatlar so‘mni to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha xorijiy valyutalarga erkin almashtirishni o‘z ichiga oladi. VIII-moddaning 2 bo‘lim a-bandiga muvofiq, mamlakatimiz hukumati joriy operatsiyalar bo‘yicha valyutaviy cheklashlarni joriy qilishga haqli emas. Ushbu moddaning 3-bo‘limiga muvofiq, O‘zbekiston hukumati diskriminatsion valyuta siyosatini amalga oshirishga haqli emas. Nihoyat, VIII-moddaning 4-bo‘limiga muvofiq, boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so‘mlar yo o‘sha mamlakatning milliy valyutasiga yoki SDRga konvertatsiya qilib berilishi lozim. Ammo 2003 yilning 15 oktyabriga qadar olingan so‘mlar bo‘yicha O‘zbekiston hukumati VIII-moddaning 4-bo‘lim majburiyatlarini o‘z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarinng fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan ishlab topilgan so‘mlar faqat joriy operatsiyalardan ishlab topilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o‘z mablag‘larini o‘zining hohishiga ko‘ra erkin tasarruf etish huquqlarini ruyobga chiqarishni to‘liq ta’minlash.

2. Milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqat bozor mexanizmlarini qo‘llash.

3. Valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan’anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag‘batlantiruvchilik rolini oshirish.

4. Sifatli ish o‘rinlari va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni bevosita rag‘batlantirish uchun iqtisodiyotning barcha sektorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, bilim va texnologiyalar jalb etishga xizmat qiladigan ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash.

5. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qat'iy monetar siyosatni amalga oshirish, bu borada monetar instrumentlardan faol va moslashtirilgan holda foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog'ozlarini banklar likvidliligiga garovga berish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni amaliyotga joriy etish.

6. Monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish hamda Davlat byudjetining mutanosibligini ta'minlash orqali pul massasi haddan ziyod o'sishining oldini olish.

Prezidentning ushbu Farmonida Moliya vaziriga 2017 yilgi Davlat byudjetini profitsit bilan bajarilishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

7. Bank tizimining barqarorligini ta'minlash va uning tavakkalchiliklarga bardoshliligini, shu jumladan, valyuta siyosatini liberallashtirishning vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan samarali choralarni qo'llash hisobiga oshirish.

8. Valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish.

9. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush darajasiga valyuta siyosatini liberallashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradigan har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish[14].

Ushbu Farmon talabiga asosan, 2017 yil 5 sentyabrdan boshlab:

– O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovlarsiz sotib olishlari mumkin;

– O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotishi va konversion bo'limlarida sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish bo'yicha amaldagi tartibga asosan sotib olishi va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatishi mumkin;

– iste'mol tovarlari importi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga

---

[14] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2017. №36. 945-modda.

chet el valyutasini jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat beriladi;

– mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha eksportchi korxonalarning chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo'yicha talab bekor qilinadi;

– chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo'jaliklari o'z bank hisobvaraqlaridagi chet el valyutasini naqd ko'rinishida olishi mumkin;

– davlat bojlari, yig'imlari va boshqa majburiy to'lovlar faqat milily valyutada undiriladi, konsullik yig'imlari bundan mustasno;

– xorijiy valyutada kreditlar berish va undirish shartlari kredit siyosatidan kelib chiqqan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi;

– banklarning xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklari tadbirkorlik tavakkalchiligi hisoblanadi hamda ularni boshqarish tijorat bankining vakolatiga kiradi;

– xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha komission vositachilik haqi miqdori tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi;

– tijorat banklariga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha litsenziya berish amaliyoti bekor qilinadi[15].

1.2. Banklararo vakillik munosabatlari: zarurligi, turlari va amalga oshirish tartibi

Banklararo vakillik munosabatlarining mavjudligi xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Banklarning "Nostro" va "Vostro" vakillik munosabatlari orqali xorijiy valyutalardagi to'lovlar amalga oshiriladi va tushumlar qabul qilinadi.

Banklararo vakillik munosabatlarining ikki turi mavjud:

1. Bir tomonlama vakillik munosabatlari.
2. Ikki tomonlama vakillik munosabatlari.

---

[15] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonin // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatalri to'plami. T., 2017. №36 (796). 945-modda.

Bir tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bankdan faqat bittasi "Nostro" yoki "Vostro" vakillik hisobraqamiga ega bo'ladi.

Ikki tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bank "Nostro" yoki "Vostro" vakillik hisobraqamiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatlariga ega. Ya'ni, respublikamiz tijorat banklari xorijiy banklarda o'zlarining "Nostro" vakillik hisobvaraqamlariga ega. Ammo xorijiy banklar O'zbekiston banklarida o'zlarining "Vostro" vakillik hisobraqamlariga ega emas.

Xorijiy bank bilan vakillik munosabati o'rnatish uchun unga dastlab xat jo'natiladi. Xatda vakillik munosabati o'rnatishning zarurligi asoslab berilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, mazkur xatda xorijiy bank bilan vakillik munosabatlari o'rnatmoqchi bo'layotgan tijorat banki faoliyatining ijobiy jihatlari ham qisqacha aks etgan bo'lishi lozim. Ammo xatda xorijiy bankning holatini o'rganilganligi haqida zinhor yozilmasligi lozim. Chunki, ushbu holatni xorijiy bank haqorat sifatida qabul qilishi mumkin.

Xorijiy bank vakillik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi taklifga rozilik bildirgandan so'ng vakillik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi shartnoma loyihasi tayyorlanadi hamda shartnoma bandlari tomonlar o'rtasida muhokama qilinadi. Nihoyat, vakillik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi shartnoma imzolanadi. Shundan keyin to'lov hujjatlariga, teleks yoki kompyuter xabarnomalariga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzolari nusxalari va maxfiy kalitlar o'zaro almashinadi. Bu autentifikatsion kalit deyiladi.

Odatda "Nostro" vakillik hisobraqamlari shu valyuta qaysi mamlakatning milliy valyutasi bo'lsa, o'sha mamlakatning tijorat bankida ochiladi. AQSh dollaridagi "Nostro" vakillik hisobraqamlari AQSh banklarida, yevrodagi "Nostro" vakillik hisobraqamlari "yevrohudud"-dagi banklarda ochiladi.

Shunisi xarakterliki, AQSh dollaridagi "Nostro" vakillik hisobraqamini Londondagi banklarda ham ochish mumkin. London AQShdan tashqaridagi dollar zaxiralari to'plangan eng katta yevrodollar bozori hisoblanadi. Ammo bunda "Nostro" vakillik hisobraqamini ochgan tijorat bankiga ikki marta komissiya to'lashga to'g'ri keladi. Bir marta Londondagi bankka "Nostro" vakillik hisobarqamini yuritganligi uchun, ikkinchi marta Londondagi bankning dollardagi qoldiqni AQSh banklari orqali joylashtirganligi uchun to'lagan komissiyasi uchun

to'laydi. Chunki, Londondagi banklar dollardagi qoldiqlarini AQSh banklari orqali joylashtiradilar.

Ko'pchilik mamlakatlarning bank amaliyotida "Nostro" vakillik hisobraqamlarining qoldig'iga foiz to'lanmaydi. Ayrim mamlakatlarda esa, juda past stavkada foiz to'lanadi. Shuning uchun banklar xorijiy banklardagi "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi ortiqcha mablag'larni (ishchi qoldiqdan ortiq mablag'ni) yevrobozorlarga yoki "overnayt" shaklida joylashtiradilar.

Tijorat banklari xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatishda xorijiy bankning overdraft kreditidan foydalanishga ruxsat olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, overdraft krediti "Nostro" vakillik hisobraqamida yuzaga keladigan vaqtinchalik valyuta etishmasligi muammosini hal etishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Xorijiy bank, valyuta mablag'lari etishmasligi yuzaga kelganda, vakil bankni belgilangan limit doirasida zudlik bilan kreditlaydi.

Muammo shundaki, qator davlatlarda overdraft krediti berish qonun yo'li bilan ta'qiqlangan.

Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatishda xorijiy banklarning xizmat ko'rsatish xususiyatlariga e'tibor qaratish muhim o'rin tutadi. Masalan, AQSh va Yaponiyada banklar ixtisoslashtirilgan va investitsion banklarga ajralgan. yevropada esa - universal banklar.

Xorijiy valyutadagi to'lovlarni o'z vaqtida o'tishi xorijiy vakil bankning etarli darajada likvidli bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun ham, Bazel qo'mitasi tijorat banklarining xorijiy banklardagi "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'iga 20% risk darajasini bergan. Bu esa, aynan, xorijiy bankda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi natijasida to'lovlarning kechikishi bilan bog'liqdir.

Xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatiga ega bo'lgan banklarda doimo "Nostro" vakillik hisobraqami qoldig'ining tebranishi muammosi mavjud bo'ladi. Chunki, ushbu bankda xorijiy bankning "Vostro" vakillik hisobraqami mavjud emas. Shu sababli, ular har qanday xorijiy valyutadagi to'lovni amalga oshirishda o'zlarining "Nostro" vakillik hisobraqamini kreditlashga majbur bo'lishadi. Natijada, "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'ini keskin tebranish xavfi yuzaga keladi. Bu esa, mazkur banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki xorijiy banklar bilan ikki tomonlama vakillik munosabatlariga ega bo'lsa, u holda, xorijiy bank va uning mijozlari

foydasiga amalga oshirilayotgan to'lov summasi ushbu bankning "Vostro" vakillik hisobraqamiga kirim qilinadi. Natijada, bankning "Nostro" vakillik hisobraqamida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Xorijiy valyutadagi to'lovlarni o'z vaqtida o'tishi xorijiy vakil bankning etarli darajada likvidli bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun ham, Bazel qo'mitasi tijorat banklarining xorijiy banklardagi "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'iga 20% risk darajasini bergan. Bu esa, aynan, xorijiy bankda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi natijasida to'lovlarning kechikishi bilan bog'liqdir.

Banklararo vakillik munosabatlarini rivojlantirishda to'lov tizimining etarli darajada likvidli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQShning ChIPS to'lov tizimini olaylik. "ChIPS" to'lov tizimini boshqarish shu darajada takomillashganki, tizim har qanday yirik debitorning bajarilmagan majburiyatini o'z vaqtida qoplash imkonini beradigan darajada ta'minotga ega. Ushbu ta'minot bir kunlik va bir kun ichida beriladigan kreditlarga asoslanadi.

Xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatiga ega bo'lgan banklarda doimo "Nostro" vakillik hisobraqami qoldig'ining tebranishi muammosi mavjud bo'ladi. Chunki, ushbu bankda xorijiy bankning "Vostro" vakillik hisobraqami mavjud emas. Shu sababli, ular har qanday xorijiy valyutadagi to'lovni amalga oshirishda o'zlarining "Nostro" vakillik hisobraqamini kreditlashga majbur bo'lishadi. Natijada, "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'ini keskin tebranish xavfi yuzaga keladi. Bu esa, mazkur banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki xorijiy banklar bilan ikki tomonlama vakillik munosabatlariga ega bo'lsa, u holda, xorijiy bank va uning mijozlari foydasiga amalga oshirilayotgan to'lov summasi ushbu bankning "Vostro" vakillik hisobraqamiga kirim qilinadi. Natijada, bankning "Nostro" vakillik hisobraqamida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Umuman olganda, banklararo vakillik munosabatlari xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning muhim zaruriy sharti hisoblanadi. Bunda ikki tomonlama vakillik munosabatlarining mavjudligi xalqaro valyuta operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro valyuta operatsiyalarining qanday iqtisodiy asoslari mavjud?
2. Xalqaro valyuta operatsiyalarining qanday huquqiy asoslari mavjud?
3. O'zbekiston valyuta qonunchiligi qanday xususiyatlarga ega.
3. Banklararo vakillik munosabatlarining zarurligi qanday omillar bilan belgilanadi?
4. Banklararo vakillik munosabatlarining qanday turlari mavjud?
5. "Nostro" vakillik hisobraqamidagi valyuta mablag'i etishmasligi muammosini qaysi manbalar hisobidan hal qilish mumkin?
6. Valyutalarning qanday almashinish shartlari mavjud?

2-BOB. TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARINING MAZMUNI VA TURKUMLANISHI

2.1. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining zarurligi va turkumlash mezonlari

Tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish hisoblanadi. Valyuta operatsiyalari, bir tomondan, tijorat banki mijozlarining xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularning valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, tijorat banklariga daromad olish imkonini beradi.

Tijorat banklari spred shaklida, ya'ni valyutalarni sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq sifatida daromad oladilar. Bundan tashqari, xorijiy valyutadagi aktivlarni qayta baholash, mavjud bitimga qarama-qarshi operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham tijorat banklari valyuta operatsiyalaridan daromad oladilar.

2002 yilning 1 yanvaridan boshlab naqd yevroning muomalaga kiritilishi natijasida yevropa banklari Germaniya markasi, Frantsiya franki, Italiya lirasi, Belgiya franki, Avstriya shillingi, Ispaniya peseti kabi qator naqd valyutalarning muomaladan chiqib ketishi yuz berdi va buning natijasida ular 5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi spred shaklidagi daromaddan mahrum bo'lishdi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari deganda banklar tomonidan xorijiy valyutlar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalariga aytiladi.

Xorijiy valyutalar – bu xorijiy davlatlarning milliy pul birligidir. yevro hududga kiruvchi mamlakatlar uchun yevro milliy valyuta hisoblanadi.

Valyutaviy qimmatliklarga quyidagilar kiradi:

- oltin va boshqa nodir metallar;
- xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlar;
- xorijiy valyutalarda emissiya qilingan veksellar;
- xorijiy valyutalarda yozilgan cheklar.

O‘zbekiston Respublikasida oltin valyutaviy qimmatlik hisoblansa-da, oltinni sotishga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud bo‘lib, u markazlashgan tarzda eksport qilinadi. Shu sababli, oltin quymalar aholiga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga sotilmaydi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, 3 turga bo‘linadi:

1. Spot operatsiyalari.
2. Muddatli valyuta operatsiyalari.
3. Svop operatsiyalari.

Spot inglizcha “spot” degan so‘zdan olingan bo‘lib, naqd bitim degan ma’noni anglatadi.

Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalarining 3 shakli mavjud:

1. Forvard operatsiyalari.
2. Valyuta optsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.
3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Svop inglizcha “swap” degan so‘zdan olingan bo‘lib, ayirboshlash degan ma’noni anglatadi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini quyidagicha turkumlash mumkin (2.1-rasm).

Yamayka xalqaro konferentsiyasida oltinni demonetizatsiya qilinishi dunyo miqyosida belgilangan qat’iy belgilangan kurslar rejimining barham topishiga olib keldi. Natijada barcha etakchi xorijiy valyutalar erkin suzish rejimiga o‘tishdi. Bu esa, o‘z navbatida, valyuta riskining kuchayishiga olib keldi va muddatli valyuta bitimlari bozorining rivojlanishiga kuchli turtki berdi.

Forvard valyuta operatsiyalarining rivojlanishi svop operatsiyalarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratdi. Chunki, valyutaviy svop operatsiyasi spot va forvard bitimlarining uyg‘unlashuvidan tashkil topadi.

Forvard, fyuchers va optsion bitimlari hamda valyutaviy svop muddatli valyuta bozorining instrumentlari hisoblanadi.

2.1-rasm tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mazmunini to‘laroq ochib beradi deb hisoblaymiz.

Valyuta fyucherslari va optsionlari hosilaviy qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi va derivativlar deb ataladi.



2.1-rasm. **Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining turkumlanishi**[16]

Qayd etish joizki, derivativlar bilan amalga oshiriladigan spekulyativ operatsiyalar yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi va ular tijorat banklariga katta miqdorda zarar keltirishi mumkin. Bunga aniq misol qilib 1995 yil 25 fevralda bankrot deb e'lon qilingan Angliyaning "Berings" bankini keltirish mumkin. Holbuki, ushbu bank 233 yillik tarixga ega edi.

Berings bankning Singapur filiali treyderi Nik Lison bankning passividagi barcha bo'sh turgan pul mablag'larini Singapur fond

[16] Mualliflarning shaxsiy ishlanmasi.

birjasiga chiqib, Yaponiya korporatsiyalarining fyuchers va optsionlarini sotib olishga yo'naltirdi. Oradan 3 kun o'tgandan so'ng Yaponiyaning Kobe shahrida dahshatli zilzila bo'ldi. Zilzila natijasida Yaponiya korporatsiyalarining fyuchers va optsionlarining bahosi keskin pasayib ketdi. Natijada, Berings bank 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar ko'rdi.

Berings bankining Prezidenti dunyoning eng boy odamlaridan biri hisoblangan Bruney sultoni bilan do'st edi. U bankni qutqarib qolish uchun Bruney sultonidan 1,0 mlrd. dollar qarz so'radi. Ammo sulton tavakkal qilishni hohlamadi. Oxir-oqibat 233 yillik tarixga ega bo'lgan Berings bank bankrot bo'ldi.

2.2. Tijorat banklarining spot operatsiyalari

Spot operatsiyalari spot bitimi tuzilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalaridir.

Spot yuqori riskli valyuta operatsiyasi hisoblanadi va uning yuqori riskliligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Spot operatsiyasini amalga oshirish vaqti juda qisqa bo'lganligi sababli unda sug'urta elementlarini qo'llab bo'lmaydi.

2. Spot operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi quyidagi 5 ta xalqaro zaxira valyutalarda amalga oshiriladi va ularning barchasi erkin suzish rejimiga ega.

Erkin suzish rejimiga ega bo'lgan valyutalarning nominal almashuv kursi katta diapazonlarda tebranishi mumkin.

3. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi ayrim omillarni prognoz qilish imkonining yo'qligi.

Masalan, 1990 yilda Iroq bilan AQSh boshchiligidagi davlatlar koalitsiyasi o'rtasida urush bo'ldi. Birlashgan qo'shinlar qo'mondoni bo'lgan amerikalik general urushni 1 hafta ichida tugatishga va'da berdi. Bu esa, xalqaro moliya bozori ishtirokchilarining xotirjam bo'lishiga olib keldi. Ammo urushning boshlanganligiga bir oy o'tgandan so'ng Iroq o'zining "Skad" raketalari bilan Saudiya Arabistoni poytaxti Er-Riyad shahrida joylashgan AQSh dengiz piyodalarining yotog'iga (kazarma) zarba berdi. Bu Iroqqa qarshi urushda qatnashayotgan arab davlatlari uchun kutilmagan holat va fojia edi. Chunki, AQSh o'zining havo hujumiga qarshi "Petriot" tizimi Iroqqa qarshi urushda

qatnashayotgan davlatlar hududini Iroq raketalaridan 100 % himoya qilishiga va'da bergan edi.

Shu kundan boshlab, OPEKka a'zo bo'lgan arab davlatlari Fors ko'rfazi orqali neft eksport qilishni to'xtatdilar. Bu esa, jahon bozorlarida neft bahosining keskin ko'tarilishiga olib keldi. 1 barrel neft o'sha paytda arab davlatlari tomonidan 11-13 AQSh dollariga sotilgan bo'lsa, uning bahosi 42 dollarga ko'tarildi. Sobiq Sovet Ittifoqi, Meksika, Venesuela, Ruminiya kabi neft eksport qiluvchi mamlakatlar neft eksportidan katta miqdorda daromad olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Neft mahsulotlarini import qiluvchi Turkiya, Yaponiya, yevropa davlatlari esa, bundan jiddiy zarar ko'rdilar.

Neft bahosining keskin oshishi AQSh dollari kursining ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Chunki, neft shartnomalarining 90 foizdan ortiq qismi AQSh dollarida tuzilgan edi. Buning natijasida jahon valyuta bozorlarida AQSh dollariga bo'lgan talabning oshishi yuz berdi.

Spot operatsiyalari spot kurslar asosida amalga oshirilaadi.

Spot kurs deganda spot bitimi tuzilayotgan paytda belgilab qo'yiladigan valyuta kursi tushuniladi va bu kurs ikki ish kuni mobaynida o'zgarmasdan qoladi.

Spot kursni aniqlashning birja usuli va birjadan tashqari usuli mavjud.

Taraqqiy etgan davlatlarda va qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, birja usulida spot kurs valyuta birjalarining savdo zallarida dilerlar, maklerlarning ochiq savdo qilishlari natijasida aniqlanadi. Shunisi xarakterliki, AQSh dollari, yevro, Angliya funt sterlingi va Shveytsariya frankining kursi verguldan keyin to'rttagacha birlikda aniqlanadi. Masalan: 1 dollar = 1,2310 - 1,2330 shv. franki. Yoki 1 funt sterling = 1,6770-1,6790 dollar.

Valyuta birjalarining savdo zallarida valyuta savdosi faqat oxirgi ikkita raqam bilan amalga oshiriladi. Hech qaysi diler ikkita raqamdan oldinda turgan raqamlarni hech qachon aytmaydi.

Chap tomonimizda turgan birinchi kurs sotib olish kursi hisoblanadi va u **BID** deb ataladi, o'ng tomonimizda turgan kurs, ya'ni ikkinchi kurs sotish kursi hisoblanadi va u **OFFER** deb ataladi. Valyutaning sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq tijorat bankining daromadi hisoblanadi va u **SPREAD** deb ataladi.

Har bir spot bitimi bo'yicha alohida spot kurs aniqlanadi. Tijorat bankining har bir dileriga valyutalarni sotib olish va sotish bo'yicha limit belgilanadi. Diler o'sha limit doirasida valyutalarni spot sharti bo'yicha sotib olish va sotishni amalga oshiradi.

Valyuta birjasidagi kompyuter dasturi spot operatsiyalaridagi talab va taklifga qarab milliy valyutaning oldi-sotdi qilinayotgan etakchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursini aniqlaydi. Masalan, London vaqti bilan soat 11.00da Buyuk Britaniya funt sterlingining, Frankfurt-na Mayne shahrida soat 13.00 da yevroning etarkchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursi aniqlanadi va butun dunyoga e'lon qilinadi.

Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi **fiksing** deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida buyurtmali valyuta savdosi tizimi mavjud.

So'mning nominal birja kursi O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi (O'RVB) da AQSh dollariga bo'lgan talab va taklif asosida aniqlanadi. Qayd etish jiozki, respublikamizda valyuta kursini aniqlashning tijorat spot kurslariga asoslanadigan va fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmi mavjud emas. Shu sababli, respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVBga a'zo bo'lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSh dollarini sotib olish maqsadida so'mda berilgan buyurtmalar; b) AQSh dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to'xtatish to'g'risidagi buyruqni bergandan so'ng har ikkala xildagi buyurtmalar bo'yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. Shundan keyin so'mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSh dollaridagi buyurtmalar summasiga bo'lish yo'li bilan o'zbek so'mining 1 AQSh dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi. Faqat dushanba kuni so'mning nominal almashuv kursi valyuta savdosi natijalariga qarab aniqlanmaydi, balki o'tgan haftada bo'lib o'tgan 5 kunlik valyuta savdosi natijasida aniqlangan valyuta kurslarining o'rtachasi sifatida aniqlanadi.

O'z navbatida, so'mning nominal almashuv kursi tijorat spot kursi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma’lum qismini majburiy tartibda sotishda qo‘llaniladi.

Birjadan tashqari usulda spot kurs tijorat banklari dilerlarining telefon orqali so‘zlashuvlari yoki internet orqali muloqotlari natijasida aniqlanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarni sotish kursi va sotib olish kursi o‘rtasidagi farq sifatida oladigan spred shaklidagi daromadi ularning valyuta operatsiyalarining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarga bo‘lgan talabni to‘g‘ri baholagan holda, ularning sotib olish va sotish kursini belgilashi spred miqdorini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tijorat banklari spot operatsiyalaridan zarar ko‘rishlari ham mumkin. Odatda, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo‘lgan valyutaning keyingi ish kunidan boshlab kursining ko‘tarilishi zararni yuzaga keltiradi. Aksincha, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo‘lgan valyutaning kursini keyingi ish kunidan boshlab pasayishi bankning balansida foydani yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo‘lgan xorijiy valyutaning kursi pasaysa, u holda bankning balansida zarar yuzaga keladi. Chunki, bu vaqtda tijorat banki arzon valyutani qimmat bahoda sotib olgan hisoblanadi.

Shuningdek, tijorat banki tomonidan belgilangan xorijiy valyutaning sotib olish kursining Markaziy bankning birja kursidan yuqori bo‘lishi bankning balansida zararni yuzaga keltiradi. Masalan, Markaziy bankning birja kursi bo‘yicha 1 AQSh dollari 2198,00 so‘mga teng. Tijorat bankining 1 AQSh dollarini sotib olish kursi esa, 2200,00 so‘mni tashkil etadi. Bunday sharoitda tijorat banki har bir dollardan qayta baholash natijasida 2 so‘m zarar ko‘radi (2200 – 2198). Buning sababi shundaki, qayta baholash Markaziy bankning birja kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining spot operatsiyalaridan ko‘rgan zararlari summasi 55302-hisobraqamning debetida, spot operatsiyalaridan olgan foydasi esa, 45401-hisobraqamning

kreditida aks etadi. Respublikamiz banklarining spred shaklidagi daromadi ham 45401- hisobraqamning kreditida aks etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 yanvardagi PQ-1914-sonli "Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2013 yil 1 fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga vakolatli banklar tomonidan naqd xorijiy valyutalarni sotish to'xtatildi[17]. Demak, respublikamiz tijorat banklarida spred shaklidagi daromad bundan buyon mavjud bo'lmaydi.

Respublikamiz tijorat banklari spot operatsiyalarining asosiy qismini import qilingan tovarlar bo'yicha va olingan xalqaro kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni amalga oshirish maqsadida so'mni AQSh dollari va yevroga ayirboshlash operatsiyalari (konversion operatsiyalar) tashkil etadi.

2003 yilning 8 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro Valyuta Fondi Nizomi VIII-moddasining 2 bo'lim a-bandi, 3 va 4-bo'limlari bo'yicha belgilangan majburiyatlarni qabul qilinganligi va uning o'sha yilning 15 oktyabridan boshlab kuchga kirganligi konversion operatsiyalarni rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Ushbu majburiyatlar so'mni to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha xorijiy valyutalarga erkin almashtirishni o'z ichiga oladi. VIII-moddaning 2 bo'lim a-bandiga muvofiq, mamlakatimiz hukumati joriy operatsiyalar bo'yicha valyutaviy cheklashlarni joriy qilishga haqli emas. Ushbu moddaning 3-bo'limiga muvofiq, O'zbekiston hukumati diskriminatsion valyuta siyosatini amalga oshirishga haqli emas. Nihoyat, VIII-moddaning 4-bo'limiga muvofiq, boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so'mlar yo o'sha mamlakatning milliy valyutasiga yoki SDRga konvertatsiya qilib berilishi lozim. Ammo 2003 yilning 15 oktyabriga qadar olingan so'mlar bo'yicha O'zbekiston hukumati 4-bo'lim majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarinng fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan ishlab topilgan so'mlar faqat joriy operatsiyalardan ishlab topilgan bo'lishi kerak.

2011 yilda RVBda amalga oshirilgan konversion operatsiyalar hajmi 2010 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, import bilan bog'liq bo'lgan xorijiy valyutaga bo'lgan talabning oshganligi

[17] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2013. №6 (558). B. 5-6.

bilan izohlanadi. 2011 yilda import hajmining 2010 yilga nisbatan o'sish sur'ati 14,5 foizni tashkil etdi.

2012 yilda konversion operatsiyalar hajmining 2011 yilga nisbatan qisqarganligi xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning barqarorlashganligi bilan izohlanadi.

2008 yilning fevral oyidan boshlab, AQSh dollari bilan birga yevroda ham konvertatsiya uchun buyurtmalar qabul qilina boshladi.

Umuman olganda, spot operatsiyalari tijorat banklari valyuta operatsiyalarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi va mijozlarning valyuta mablag'lariga bo'lgan talabini qondirishda, banklarning valyuta operatsiyalari samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3. Tijorat banklarining muddatli valyuta operatsiyalari

Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalarining, yuqorida ta'kidlagamizdek, 3 shakli mavjud:

1. Forvard valyuta operatsiyalari.
2. Valyuta optsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.
3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Forvard valyuta operatsiyasi deganda, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasiga aytiladi.

Forvard valyuta operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, tijorat banklari forvard operatsiyalaridan daromad olish maqsadida foydalanadi.

Forvard shartnomalari quyidagi standart muddatlarga tuziladi: 1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy.

Forvard operatsiyalari forvard kurslar asosida amalga oshiriladi.

Forvard kursi forvard shartnomasi imzolanayotgan paytda belgilab qo'yiladigan kurs bo'lib, shartnoma ijrosiga qadar o'zgarmasdan qoladi.

Forvard kurslari hech qachon spot kurslari kabi aniqlanmaydi. Tijorat banklarining dilerlari doimo forvard marjasi bilan ishlaydi, xolos. Forvard marjasi deganda ustama va diskont tushuniladi.

Ustama va diskont bitta formula orqali aniqlanadi. Bu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$U/D = \frac{SK \times FSO'F \times FShM\ (kunlarda)}{(360 \times 100) + (BVFS \times FShM\ (kunlarda)}$$

Bu yerda:

U / D –ustama yoki diskont.

SK – spot kurs.

FSO'F – foiz stavkalari o'rtasidagi farq. Foiz stavkalari o'rtasidagi farq aniqlanayotganda bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi olinadi, baholovchi valyuta bo'yicha esa, depozitlarning foiz stavkasi olinadi.

FShM – forvard shartnomasining muddati.

BVFS –bitim valyutasi bo'yicha foiz stavkasi.

Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija ustama hisoblanadi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija diskont hisoblanadi.

Forvard marjasi quyidagi sabablarga ko'ra kotirovka qilinadi:

Birinchidan, forvard marjalari ko'pchilik holatlarda o'zgarmasdan qoladi, spot kurslari esa tez-tez o'zgaradi, shu sababli, ustama va diskontlarning kotirovkasiga kam tuzatish kiritiladi.

Ikkinchidan, valyuta bitimlarining sezilarli qismida forvard kurslarini emas, balki ustama va diskontni bilish talab qilinadi.

Ustama va diskontning o'lchov birligi pips deb ataladi.

Forvard kursi spot kursidan ustama yoki diskont summasiga farq qiladi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi va bunda forvard kursi spot kursidan yuqori bo'ladi. Aksincha, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa olingan natija diskont hisoblanadi, bunda forvard kursi spot kursidan past bo'ladi.

Forvard operatsiyalari dastlab eksportyorlarning sotilgan tovarlar uchun kutilayotgan eksport tushumini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida yuzaga keldi. Keyinchalik tijorat banklari o'rtasidagi munosabatlarda ham forvard operatsiyalaridan foydalanish kuchaydi. Shunisi xarakterliki, forvard operatsiyalaridan spekulyativ maqsadlarda

ham foydalanish mumkin. Chunki, birinchidan, forvard operatsiyalarini amalga oshirish uchun valyuta mablag'larining mavjud bo'lishi shart emas; ikkinchidan, forvard shartnomalari nisbatan uzoq muddatga tuziladi; uchinchidan forvard kursining darajasi ko'proq foiz stavkalarining o'zgarishiga bog'liq.

Tahlil jarayonida forvard operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Forvard operatsiyalarining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilganligi.

Forvard operatsiyalari tijorat banklari uchun balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi, shu sababli, birinchi navbatda, forvard shartnomalari summasini tegishli balansdan tashqari hisobraqamlarda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish lozim. Haqiqatda, tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotib olish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari 92716-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamining debetida va 96367-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari 92709-«Forvard bitimi bo'yicha sotish» hisobraqamining debetida va 96365-«Forvard bitimi bo'yicha sotish kontr hisobvarag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tahlil jarayonida forvard shartnomalarining muddati tugagandan so'ng amalga oshirilgan buxgalteriya o'tkazmalari ham sinchiklab tekshirilishi lozim. Shunisi xarakterliki, forvard operatsiyalari shartnoma muddati tugashi bilan xarakteriga ko'ra spot operatsiyalariga aylanadi. Shuning uchun ham keyingi buxgalteriya o'tkazmalari spot bo'yicha beriladi.

Balans hisobarqamlari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari berilgandan so'ng forvard operatsiyalari bo'yicha ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlar yopiladi. Tijorat bankining xorijiy valyutani sotib olish maqsadida tuzgan forvard shartnomasi summasiga ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlari 92716- «Forvard bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamini kreditlash va 96367- «Forvard bitimi bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

Tijorat bankining xorijiy valyutani sotish maqsadida tuzgan forvard shartnomasi summasiga ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlari 92709-«Forvard bitimi bo'yicha sotish» hisobraqamini kreditlash

va 96365-«Forvard bitimi bo'yicha sotish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

2. Forvard operatsiyalari bo'yicha ustama va diskontni to'g'ri hisoblanganligi

Forvard operatsiyalari forvard kursi asosida amalga oshiriladi. Forvard kursining darajasini belgilovchi omil ustama va diskont hisoblanadi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi. Bunday holatda forvard kursini aniqlash uchun spot kurs ustama miqdoriga oshiriladi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi. Bunday holatda forvard kursini aniqlash uchun spot kurs diskont miqdoriga kamaytiriladi.

3. Forvard operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar summasini, shu jumladan, realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasini baholash.

Forvard operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar summasini baholash uchun 45405 va 55306-hisobraqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasini baholash uchun 16901 va 22802-hisobraqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi. Tahlil qilingan davr mobaynida zararlar summasi kamayish tendentsiyasiga, foyda summasi esa, o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar to'lov muddati kelmagan muddatli valyuta shartnomalarini qayta baholash natijasida yuzaga keladi. Har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga moliyaviy hisobot topshirayotganda muddati kelmagan valyuta shartnomalari qiymatini qayta baholashlari va ular bo'yicha foyda va zararlar summasini aniqlashlari zarur.

Muddati kelmagan valyuta shartnomalarining qiymatining qayta baholash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy hisobot tuzilayotgan kundagi birja kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunga qadar barcha xorijiy valyutalardagi shartnomalarning summasi AQSh dollariga aylantiriladi. Undan keyin shartnomalarning dollardagi qiymati Markaziy bankning birja kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi.

Tijorat banki xodimlari tomonidan Markaziy bankka moliyaviy hisobot topshirilayotgan paytda ularning pozitsion hisobraqamida, ya'ni 17101-hisobraqamida qoldiq bo'lmasligi lozim.

Muddatli valyuta operatsiyalarining ikkinchi shakli valyuta optsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor buxgalteriya o'tkazmalarini to'g'ri rasmiylashtirilganligiga, operatsiyalarning daromadliligiga va mazkur operatsiyalardan ko'rilgan zararlarni baholashga qaratiladi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan berilgan kol optsionlar alohida, put optsionlar alohida baholanadi.

Kol optsionlar ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put optsionlar esa, ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Valyuta optsionlari valyuta forvard operatsiyalaridan farqli ravishda o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, balki faqat huquq beradi. Shuning uchun ham valyuta optsionlari valyuta riskidan 100% himoyalanish imkonini beradigan yagona moliyaviy instrument hisoblanadi.

Valyuta optsionlarining ikki standarti mavjud bo'lib, ularni bank auditi jarayonida hisobga olish shart hisoblanadi. Chunki bu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi.

Valyuta optsionlarining birinchi standarti yevropa standarti deb ataladi va bu optsionlar o'z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng optsiondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta optsionlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur optsionlar o'z egasiga optsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida optsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta optsionlarining amerika standartida risk darajasi yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida valyutalarni sotib olish maqsadida berilgan optsionlar 92728- «Optsion bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamining debetida va 96379- «Optsion bo'yicha sotib olish kontr hisobvrag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining valyuta optsionlaridan oladigan daromadlari 45404-hisobraqamining kreditida, optsionlardan ko'rilgan zararlar esa, 55306-hisobraqamining debetida hisobga olinadi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining uchinchi shakli valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta fyucherslari valyutalarni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, ular bo'yicha hisob-kitoblar faqat kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Kliring palatalari tijorat banklaridan avans to'lovlari o'tkazishni talab qiladi. Avans to'lovlari fyucherslar yuzasidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlash maqsaidda o'tkaziladi. Valyuta fyucherslari valyuta optsionlaridan farqli ravishda ishtirok etuvchi tomonlarga majburiyat yuklaydi. Valyuta optsionlarining egalarida esa, huquq bor, ammo majburiyat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar (valyuta derivativlari) chet el valyutasi oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlar muayyan muddat o'tgach yoki chet el valyutasining qiymatiga yoxud uning kursi o'zgarishiga bog'liq ravishda bajarilishi mumkin.

Chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar bo'yicha operatsiyalar:

-vakolatli banklar tomonidan o'zaro yoki chet el banklari iblan cheklovlarsiz, ochiq valyuta mavqei limiti doirasida;

-agar shartnoma tuzish joriy xalqaro operatsiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lsa, banklarning mijozlari tomonidan vakolatli banklar orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizning tijorat banklarida, shu jumladan, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining faoliyatida valyuta optsionlari va fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas.

Agar forvard operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotib olish bo'yicha forvard shartnomasi tuzishlari zarur. Agar forvard operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha uzun valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotish bo'yicha forvard shartnomasi tuzishlari zarur.

Agar tijorat bankida valyuta optsionlari bo'yicha qisqa pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida kol optsionlar summasini ko'paytirishi lozim. Agar tijorat bankida valyuta optsionlari bo'yicha uzun pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida put optsionlar summasini ko'paytirishi lozim.

Valyuta fyucherslari bo'yicha yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni yopish yoki qisqartirish maqsadida qisqa pozitsiya yuzaga kelgan valyutalarni sotib olish borasida fyuchers shartnomalari tuzish maqsadga muvofiqdir. Agar tijorat banki fyuchers shartnomalari bo'yicha ma'lum bir valyutada uzun pozitsiyaga ega bo'lsa, u holda ushbu valyutani sotish xususida fyuchers shartnomasini tuzish talab etiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada katta bo'lganda ularning tijorat banklarining ochiq valyuta poiztsiyasiga ta'siri kuchli bo'ladi.

4. Tijorat banklarining haqiqatda amalga oshirilmagan forvard operatsiyalari hajmini aniqlash.

Bank amaliyotida mutlaqo amalga oshirilmagan yoki muddatida amalga oshirilmagan forvard operatsiyalarining mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki forvard shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlardan biri shartnoma muddati tugagan paytda to'lovga noqobil bo'lib qolishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, Rossiya Federatsiyasida 1997 yilda yuz bergan moliyaviy inqirozni keltirish mumkin. Moliyaviy inqiroz natijasida Rossiyaning bir qator tijorat banklari xorijiy banklar oldidagi forvard shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajara olmadilar. Chunki inqiroz natijasida ko'plab tijorat banklarida likvidlilik muammosi yuzaga keldi va buning oqibatida banklar balansining nolikvidliligi yuz berdi.

Rossiya tijorat banklarining nolikvidliligi natijasida xorijiy banklar forvard shartnomasi bo'yicha olishi lozim bo'lgan valyuta mablag'larini ololmay qoldilar. Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida valyutalarni sotib olish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari bo'yicha xorijiy banklarning balansida yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan foyda yuzaga keldi va bu summalar forvard shartnomalarining muddati tugashi bilan zararga aylandi.

Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida AQSh dollari va boshqa xorijiy valyutalarni sotish yuzasidan tuzilgan forvard shartnomalari bo'yicha Rossiya banklarida yirik miqdorda zarar yuzaga keldi. Muddati kelmagan forvard valyuta shartnomalari bo'yicha esa, ujda yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan zarar yuzaga keldi. Natijada, bir tomondan muddatli valyuta operatsiyalarining tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan salbiy ta'siri yuzaga keldi; ikkinchi tomondan esa, tijorat banklarining forvard operatsiyalari bilan bog'liq holatda moliyaviy holatini yomonlashishi yuz berdi.

2.4. Tijorat banklarining svop operatsiyalari

Iqtisodiy adabiyotlarda svop operatsiyalarining mazmuni xususida munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas. Svop operatsiyalari deganda, odatda, ma'lum bir valyutani spot sharti bo'yicha sotish va uni forvard sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi yoki valyutani forvard sharti bo'yicha sotish va spot sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi.

Svop operatsiyalari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish;
- likvidlilikni boshqarish;
- ochiq valyuta pozitsiyasini qisqartirish.

Shunisi xarakterliki, svop operatsiyalari valyuta zahiralarini valyuta riskidan ishonchli tarzda himoya qiladi, ammo yuqori daromad keltirmaydi. Chunki bu operatsiyalarda doimo ikkita bir-biriga qarama-qarshi operatsiya mavjud bo'ladi.

Tijorat banklarining svop operatsiyalarini tekshirishda va baholashda svopga xos bo'lgan har ikkala shartni to'g'ri amalga oshirilganligiga e'tibor beriladi. Ya'ni valyutani spot sharti bo'yicha sotilganligi va forvard sharti bo'yicha sotib olinganligi yoki valyutani forvard sharti bo'yicha sotilganligi va spot sharti bo'yicha sotib olinganligi tekshiriladi.

Svop operatsiyalari respublikamizning bir qator tijorat banklarida, shu jumladan, TIF Milliy bankida, «Asaka» bankida mavjuddir.

Svop operatsiyalari bo'yicha tijorat banklarining «Nostro» vakillik hisobvaraqlaridagi ortiqcha valyuta mablag'larini joylashtirish valyuta riskini boshqarishning samarali usuli hisoblanadi. Har qanday tijorat banki xorijiy valyutadagi ortiqcha mablag'larni svop operatsiyasi bo'yicha joylashtirish uchun to'rtta ketma-ketlikdagi operatsiyani bajaradi. Biz bu operatsiyalarni aniq bir misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Misol. Aytaylik, TIF Milliy bankining AQSh dollaridagi Nostro vakillik hisobvarag'ining minimal ishchi qoldig'i 2,0 mln dollarni tashkil etadi. AQShning «CitiCroup» banki TIF Milliy bankining muddatli depozitlari bo'yicha 100 ming dollar miqdorida foiz to'ladi. Bizga ma'lumki, depozitlar uchun to'langan foizlar tijorat banki «Nostro» vakillik hisobraqamiing debetida aks ettiriladi. Demak, TIF Milliy bankining AQShning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik hisobraqamining minimal ishchi qoldig'i 100 ming dollarga ko'paydi

va 2,1 mln AQSh dollarini tashkil qildi. Ana shu 100 ming dollar miqdoridagi bank vakillik hisobraqamining ortiqcha qoldig'ini svop bo'yicha joylashtirish uchun quyidagi to'rt operatsiyani bajaramiz:

1. TIF Milliy bankining xodimlari 100 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni etakchi, valyuta kursi barqaror bo'lgan valyutalardan biriga spot sharti bo'yicha sotadi. Aytaylik, bank bu operatsiyani 2005 yilning 10 may kuni amalga oshirdi. Ya'ni, 100 ming dollar spot sharti bo'yicha Shveytsariya frankiga sotildi. Spot kurs: 1 dollar q 1,4790 frank. Natijada TIF Milliy banki 12 may kuni 147900 shveytsar franki miqdoridagi tushumga ega bo'ladi. Mazkur operatsiyadan keyin TIF Milliy bankining AQShning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik raqami 100 ming dollarga kreditlanadi, uning dollardagi pozitsion hisobraqami ana shu summaga debetlanadi.

2. TIF Milliy banki 147900 frank miqdoridagi tushumni Shveytsariyaning «Kredit Swiss» bankiga muddatli depozit sifatida joylashtiradi. Muddatli depozitning muddatini 3 oy deb oladigan bo'lsak, bu muddat 12 avgustda tugaydi.

3. TIF Milliy banki xorijiy bank bilan 100 ming AQSh dollari sotib olish uchun 3 oylik forvard shartnomasini tuzadi. Forvard shartnomasining muddati 2005 yilning 12 avgustida tugaydi. Muddatli depozit shartnomasi bilan forvard shartnomasining muddati mos kelishi lozim.

4. TIF Milliy banki 2005 yilning 12 avgustida Shveytsariya frankidagi muddatli depozitni hisoblangan foizlari bilan birgalikda qaytarib oladi va bu summa hisobidan 100 AQSh dollarini forvard kursi bo'yicha sotib oladi.

Valyuta operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida tijorat banklarining valyuta mablag'larini svop bo'yicha joylashtirish operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirilganligi tekshirish, muddatli valyuta operatsiyalarining bankning ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tahlil jarayonida tijorat banki valyuta pozitsiyasining umumiy miqdorini qancha qismini muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligini aniqlab olish lozim. Undan keyin esa, har bir valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyalarining muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligi aniqlaymiz.

Svop operatsiyalari 6 oydan 15 yilgacha muddatga amalga oshiriladi.

Ammo 1 yildan 4 yilgacha muddatga amalga oshiriladigan svop operatsiyalari keng qo'llaniladi.

Agar svop operatsiyasi bitta bank bilan amalga oshirilsa, bu sof svop (pure swap) deb ataladi.

Svop bozori 1981 yilda paydo bo'ldi. Unga qadar svop bozori mavjud emas edi.

Svop bozori birjadan tashqari bozor bo'lib, davlat tomonidan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining valyutaviy svop operatsiyalari "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 28 iyundagi 15/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 24 iyulda 1839-son bilan ro'yxatga olingan va 2011 yil 3 iyunda 1839-1-son bilan qo'shimcha kiritilgan.

Nizomga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda chet el valyutasi sifatida AQSh dollari, yevro, Angliya funt sterlingi, Shveytsariya franki va Yaponiya ienasidan foydalaniladi;

- valyutaviy svop operatsiyasi so'm va chet el valyutasi bilan, shuningdek, ikki chet el valyutasi bilan amalga oshiriladi;

- Markaziy bank bilan vakolatli banklar o'rtasidagi, shuningdek, vakolatli baknlarning o'zaro valyutaviy svop operatsiyalari Savdo tizimida tuziladi va bajariladi

-vakolatli banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi valyutaviy svop operatsiyalari bevosita banklarda amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga muvofiq:

- so'm bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida yoki O'zbekiston banklari assotsiatsiyasining banklararo kredit stavkasi bo'yicha o'rnatilishi mumkin;

- dollar, funt sterling, ien bo'yicha foiz stavkalari sifatida mazkur mamlakatlar Markaziy banklarining qayta moliyalash stavkalari olinadi;

- Shveytsariya franki bo'yicha foiz stavkasi sifatida3 oylik LIBOR olinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi.

2. Valyutaviy qimmatliklar deganda nimani tushunasiz?

3. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari qanday turkumlarga bo'linadi. 4. Birjadan tashqari usulda spot kurs qanday aniqlanadi.

5. Agar tijorat bankida uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan xorijiy valyutaning kursi pasaysa, u holda bankning balansida qanday holat yuzaga keladi.

6. Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalarining qanday shakllari mavjud?

7. Svop operatsiyalari qanday maqsadlarda amalga oshiriladi.

3-BOB. MARKAZIY BANKNING VALYUTA OPERATSIYALARI: TURLARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

3.1. Markaziy bankning valyuta operatsiyalari va ularni tashkil qilish asoslari

Markaziy bankning valyuta operatsiyalari deganda Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutalar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalariga aytiladi.

Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun aniq iqtisodiy va huquqiy asoslar mavjud bo'lishi lozim.

Xorijiy valyutadagi bitimlar dunyoning ko'plab banklarida, taxminan, ertalab soat 9^{00} da boshlanadi, biroq, dilerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab, chet el valyutasi bo'yicha mas'ul xodim (bo'lim boshlig'i) o'zining xodimlarini bitimlar tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, hamda zaruriy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlaydi. U o'zi yo'nalishni qayta ko'rib chiqadi (bozorni bir necha oy oldin tahlil qiladi) va quyidagi omillar asosida o'z taktikasini aniqlaydi:

a) Flouting tizimida ayirboshlash stavkalarida aniqlovchi valyuta va foiz stavkalarining iqtisodiyotda o'zgarishi asosiy omillardan bo'lib qolmoqda. Bunda, ular bitimlar muddatini kursning tushishi bilan hisoblashish-masa, u holda xuddi shu bitimlar kursining oshishi bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.

b) Siyosiy omillar. Mazkur omillarga ijtimoiy holat, hukumatning almashishi va shu kabi valyuta bozoriga ta'sirini ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiradi. Ko'pchilik holatlarda, ushbu omillar bozor holatini belgilovchi eng muhim omil bo'lishi mumkin.

v) Bankning chet el valyutasidagi o'z pozitsiyasi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, kurs asosan, yirik banklar va yirik milliy hamda transmilliy kompaniya va korporatsiyalarning market-meykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif o'rtasidagi farqqa bog'liq holda o'rnatiladi.

Market-meykerlar — bu turli valyutalarni bitimlar bo'yicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muasassalari hisoblanadi. Bozorning passiv ishtirokchilari sezilarli darajadagi kapital bilan qatnashayotgan bo'lsalarda, bozor holatiga kuchsiz ta'sir ko'rsatadilar va ularning faoliyati ochiq bozordagi kurslarni professionallar tomonidan tartibga solishga majbur qilishi mumkin. Albatta, market-meykerlar faqatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan holatda chet el valyutalarini o'zlarini kotirovkalarini ham amalga oshirishlari mumkin. Umuman, ma'lum bir valyutalarni emitenti bo'lgan mamlakatlarda shu valyuta bo'yicha market-meykerlar mazkur mamlakatda joylashgan bo'ladi. yevro bo'yicha etakchi market-meykerlarni Germaniyadan, Shveytsariya franki bo'yicha esa, Shveytsariyadan topish mumkin. Market-meykerlar o'zi mutaxassis bo'lib hisoblangan valyutani oldi-sotdi kursi kotirovkasini amalga oshiradi. Nisbatan kam banklar, butun dunyo bo'yicha valyuta kotirovkasini beradilar, shunday bo'lsada, Buyuk Britaniyaning keng tarmoqli kliring banklari kabilar o'z mijozlariga keng ko'lamda kotirovkalarini taklif etadi. Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan bog'liq operatsiyalarni Markaziy bankda diling bo'limini o'zi emas, balki qo'shimcha bo'limlar amalga oshiradilar. Kam uchraydigan valyutalar, asosan, valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarda yoki chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga ma'lum bir cheklovlar qo'yilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat hududiga valyuta kirib kelishiga emas, balki ko'proq chiqib ketishiga joriy qilinishi keng qo'llaniladi. Agar, banklar ushbu (kam qo'llaniladigan) valyutalar bo'yicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular o'zlarining filiallari yoki boshqa valyutalarda pul qabul qilish yoki to'lovni amalga oshirish maqsadida vakillik banklardan foydalanadilar.

Markaziy bankga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 28 martda 31-son bilan tasdiqlangan «Xorijiy valyuta operatsiyalarni amalga oshirish uchun Markaziy bankka litsenziya berish tartibi»ga asosan, uch xil litsenziya berilishi ko'zda tutilgan:

Bosh litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo'lgan vakolatli banklar O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijda barcha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega;

Ichki litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘liq yoki chegaralangan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega;

Bir martalik litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar xorijiy valyutada aniq bir operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi Bosh litsenziya bekor qilindi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi va xalqaro valyuta bozorlariga integratsiyaning kuchayishi natijasida, valyuta operatsiyalari, mamlakatimizda, Markaziy bankning yana bir daromad topish manbasini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma’lum qismini majburiy tartibda sotishda qo‘llaniladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning amaliyotida, xususan, AQSh, Yaponiya, Kanada davlatlarining amaliyotida milliy valyutaning kursi fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmiga asoslanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, maklerlar va tijorat banklari dilerlari ishtirokida kun davomida amalga oshiriladigan valyuta savdosi jarayonida shakllangan talab va taklif asosida, operatsion kunning aniq bir vaqtida, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan birja kursi aniqlanadi. Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi.

Milliy valyuta nominal almashuv kursini aniqlashning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo‘llanilayotgan bozor mexanizmi buyurtmali valyuta savdosi mexanizmiga nisbatan, fikrimizcha, quyidagi afzalliklarga ega:

– Markaziy bankning birja kursi bilan tijorat spot kurslari o‘rtasida sezilarli farq yuzaga kelishining oldini oladi;

– milliy valyuta nominal birja kursining uning real xarid qobiliyatiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi;

– milliy valyuta birja kursini shakllanish jarayoniga Markaziy bankning ma'muriy tarzda aralashuvining oldini oladi. Ma'muriy tarzda aralashuv deganda, buyurtma asosida valyuta savdosini amalga oshirish sharoitida valyuta birjasi tomonidan buyurtmalarni qabul qilmaslik, qabul qilingan buyurtmalarning ma'lum qismini joriy valyuta savdosiga qo'ymaslik kabi ma'muriy mazmundagi aralashuvlar nazarda tutilmoqda.

Milliy valyuta nominal birja kursining tijorat spot kurslarini shakllantirish jarayonidagi talab va taklifga asoslanishi birja kursi bilan spot kurslari o'rtasidagi farqning minimal bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, birja kursining o'zgarishi xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifning miqdor jihatdan o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Tijorat spot kurslari spot bitimlarini amalga oshirishda qo'llaniladi. Spot kursi spot bitimi tuzilayotgan paytda belgilab qo'yiladi va, odatda, bitim ijrosiga qadar o'zgarmasdan qoladi. Spot bitimi bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki bajarishni kechiktirgan tomonga nisbatan jarima chorasi qo'llaniladi.

Respublikamizda har bir tijorat banki o'zining ayirboshlash shoxobchasi orqali sotib olinadigan va sotiladigan valyutalarning sotib olish kursi va sotish kursini mustaqil belgilaydi. Lekin har bir kurs bank boshqaruvining yozma buyrug'i tarzida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

3.2. Markaziy bank valyuta operatsiyalarining turlari va amalga oshirish mexanizmi

Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Ular quyidagi operatsiyalardan iboratdir:

1. Valyuta interventsiyasini amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyalar.

Valyuta interventsiyasi doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari xorijiy valyutani milliy valyutaga sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir. Respublikamizda interventsiya vositasi sifatida ishlatilayotgan bazaviy valyuta AQSh dollari bo'lganligi sababli, shu maqsadda amalga oshirilayotgan operatsiyalar AQSh dollarini sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir.

Odatda, markaziy banklar valyuta interventsiyasi samaradorligini ta'minlash maqsadida interventsiya fondidan sotilgan xorijiy valyutadagi mablag'larning miqdorini va interventsiya hisobarqamining qoldig'ini sir tutadilar. Buning sababi shundaki, valyuta interventsiyasi samaradorligi deganda uning vositasida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan almashuv kursining favqulodda va keskin tebranishiga barham berish hisoblanadi. Agar xo'jalik yurituvchi subyektlar Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotish hajmining o'sib borishi sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi davom etayotganligini sezib qolsalar, bu holat valyuta bozorida psixologik vahima holatini yuzaga keltiradi va buning natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab keskin ortishi mumkin. Bunga xalqaro amaliyotdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 1992 yilning sentyabr oyida G'arbiy yevropadagi valyuta bozorlarida yuz bergan inqiroz natijasida Buyuk Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi nominal almashuv kursining keskin pasayib ketishi natijasida ular yevropa valyuta tizimidan (EVT) chiqib ketdi. Buning sababi shundaki, Angliya va Italiya markaziy banklari o'z milliy valyutalari kurslarining favqulodda tebranishiga valyuta interventsiyasi orqali barham berishning uddasidan chiqa olmadilar. Masalan, Angliya Markaziy banki valyuta interventsiyasi doirasida AQSh dollarini sotish hajmini oshirishi bilan London valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan AQSh dollarini sotib olish hajmi ham oshib bordi. Buning oqibatida valyuta interventsiyasi samara bermadi. Chunki bozorda psixologik vahima kuchli edi. Bu esa, bozorda AQSh dollariga nisbatan kuchli talabni yuzaga keltirdi.

Valyuta interventsiyasini amalga oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri Markaziy bankning etarli darajada oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lishi hisoblanadi. Bu yerda etarli darajada deyilganda Markaziy bank oltin-valyuta zaxiralarining milliy valyutaning favqulodda keskin tebranishiga barham berishga etadigan darajadagi miqdori nazarda tutilmoqda. Ushbu zaruriy shartni bajarish imkoniyati hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mavjud.

Valyuta interventsiyasini amalga oshirishning ikkinchi sharti bo'lib, Markaziy bankning milliy valyuta almashuv kursini xorijiy valyutaga nisbatan ma'lum nisbatda saqlab turish majburiyatining mavjudligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy valyuta belgilangan kurs rejimi yoki boshqariladigan suzish rejimiga ega

bo'lishi lozim. Lekin shunday paradoksal holat ham mavjudki, unga ko'ra, Markaziy bank etarli oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lmasa, u holda, uning erkin suzish rejimiga o'tishdan boshqa iloji qolmaydi.

2. Hukumatning tashqi qarzini to'lash bo'yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Ma'lumki, rivojlangan sanoat mamlakatlarida, xususan, AQSh, GFR, Frantsiyada hukumat xorijiy valyutalarda zaxiralarga ega emas, chunki bu mamlakatlarda davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zaxiralari Markaziy bankning balansiga qonuniy asosda o'tkazilgan. Bunday sharoitda hukumatning tashqi qarzi Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralari hisobidan to'lanadi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, Markaziy bank, xorijiy valyutada to'langan mablag'ning milliy valyutadagi ekvivalentini hukumatning joriy hisobraqamidan chegirib oladi. Hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning mazkur shakli hukumatning tashqi qarz botqog'iga botib qolishdan saqlaydi. Chunki Markaziy bank hukumatning to'lanishi lozim bo'lgan tashqi qarzining milliy valyutadagi ekvivalenti mavjud bo'lmagan sharoitda to'lov topshiriqnomasini qabul qilmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning mazkur tartibidan foydalanishda Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqilligining ta'minlanganligi muhim rol o'ynaydi. Chunki Markaziy bankning mustaqilligi to'liq ta'minlangan sharoitdagina uning Prezidenti hukumatning tashqi qarzini qonuniy to'lanishini talab qila oladi. Aks holda, Hukumat Markaziy bankni tashqi qarzni to'lashga majbur qiladi. Bunday sharoitda hukumat Markaziy bank kreditlaridan tashqi qarzni to'lashda manba sifatida foydalanishi mumkin.

3. Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish operatsiyalari.

Xalqaro bank amaliyoti tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda, Markaziy bank o'zining balansidagi oltin - valyuta zaxiralarini boshqarishda asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

– valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish usuli;
– valyutaviy svop operatsiyalaridan foydalanish;
– Gold svop operatsiyalaridan foydalanish;
– ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda tarixan bir vaqtning o'zida bir nechta etakchi va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi. Shuningdek, valyuta zaxiralarining tarkibini nobarqaror valyutalarni sotish va ularning o'rniga barqaror valyutalarni sotib olish yo'li bilan yangilash operatsiyalari ham valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deyiladi. Fikrimizcha, bu e'tirof mantiqan asoslidir. Chunki valyuta zaxiralarining tarkibini oldi-sotdi operatsiyalari orqali yangilash valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasini oshiradi va valyuta zaxiralarining riskka uchrash xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida milliy valyuta bozorida oldi-sotdi obyekti vazifasini AQSh dollari bajarayotganligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar xorijiy valyutadagi zaxiralarining 90 foizdan ortiq qismini AQSh dollarida shakllanganligi, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning 66 foizdan ortiq qismini (2013 yilning 1 yanvar holatiga) AQSh dollarida berilganligi[18] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xorijiy valyutalardagi zaxiralarining diversifikatsiya darajasini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutaviy svop va Gold svop operatsiyalari orqali milliy valyuta bozoridagi xorijiy valyutalar taklifiga real tarzda ta'sir etishi mumkin. Chunki, birinchidan, O'zbekiston oltin qazib chiqaruvchi va sotuvchi 10 etakchi davlatdan biri hisoblanadi, bu esa Markaziy bank aktivlarining sezilarli qismini oltinda shakllantirish imkonini beradi; ikkinchidan, Markaziy bank svop operatsiyalarini amalga oshirish uchun texnik va moliyaviy imkoniyatlarga ega; uchinchidan, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarning 90 foizidan ortiq qismi respublika valyuta birjasida amalga oshiriladi, bu esa, Markaziy bankka xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'zgarishini doimiy tarzda samarali monitoring qilish imkonini beradi.

Oltinni xalqaro oltin bozorlarida (asosan London va Tsyurix bozorlarida) qulay bozor baholarida sotish malakali mutaxassislarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, mabodo, respublikamiz Markaziy bankida bunday kadrlarning, ya'ni oltin savdosi bilan shug'ullanuvchi

[18] O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

kadrlarning etishmasligi muammosi mavjud bo'lsa, u holda Gold svop operatsiyalarini Xalqaro hisob-kitoblar banki orqali amalga oshirish mumkin. Halqaro hisob-kitoblar banki markaziy banklarga valyutalar va oltindagi zaxiralarni svop sharti bo'yicha joylashtirish, depozit-ssuda operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, Markaziy bank O'zbekiston hukumatiga, uning xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo'yicha bergan kafilliklari bo'yicha majburiyatlarini bajarishda, Gold svop operatsiyalari orqali amaliy yordam ko'rsatishi mumkin. Ya'ni, Markaziy bank hukumatning xorijiy valyutadagi to'lovlari uchun zarur bo'lgan miqdordagi tushumni olish imkonini beradigan miqdordagi oltinni spot sharti bo'yicha sotadi. Xorijiy valyutada olingan tushumni esa Hukumatga beradi. Undan keyin esa, Markaziy bank bilan Hukumat o'rtasida tuzilgan to'lov shartnomasining muddatidan kelib chiqqan holda, Markaziy bank xorijiy bank bilan forvard valyuta shartnomasini tuzadi. Forvard shartnomasining muddati tugashi bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hukumatdan olingan xorijiy valyutadagi tushum hisobidan oltinni forvard kursi bo'yicha sotib oladi.

Shu o'rinda valyutaviy svop operatsiyalarini qo'llash shartiga aniqlik kiritishlozim. Chunki markaziy banklar ichki valyuta bozorida va xalqaro moliya bozorlarida valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshiradilar. O'zbekiston Markaziy banki esa faqat xalqaro moliya bozorlarida svop operatsiyalarini amalga oshira oladi. Buning sababi shundaki, mamlakatimizda hozirga qadar muddatli forvard shartnomalari bozori shakllanmagan. Bu esa, mamlakatimizning ichki valyuta bozorida forvard operatsiyalarini amalga oshirish imkonini bermaydi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxiralariga baho beramiz.

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxiralari, mln. AQSh dollari[19]

№	Ko'rsatkichlar	01.01.2017	01.01.2018
I	Yalpi oltin-valyuta zaxiralari	26 428,8	28 076,9
1.1	Xorijiy valyutadagi aktivlar	14 172,3	14 0142,8
1.2	Monetar oltin	12 256,6	14 034,1
II	Sof oltin-valyuta zaxiralari	25 188,3	26 567,5

[19] Oltin-valyuta zaxiralari. www.cbu.uz.

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxiralari tarkibida oltin yuqori salmoni egallaydi. Uning rasmiy zaxiralar tarkibidagi ulushi 2018 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 50,0 foizni tashkil etdi. Bu esa, O'zbekistonni oltin qazib chiqarish bo'yicha dunyodagi 10 ta etakchi davlatlardan biri ekanligi bilan izohlanadi[20].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005 yilning 31 avgustidan boshlab quyidagi cheklovlar o'rnatildi:

1. Tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

2. Tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy netto valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim[21].

Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan mazkur cheklovlarning me'yoriy darajasini turli davlatlarda bir-biridan keskin farqlanmasligining sababi shundaki, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan metodikaning mualliflari bo'lib xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajasi bilan G'arbiy yevropa mamlakatlarida qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajalarida yaqinlik mavjud.

Milliy valyuta kursining iste'mol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim o'rin egallaydi. Buning boisi shundaki, inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odatda, milliy valyuta kursining pasayishi kelgusida inflyatsiyaning o'sishiga olib keladi. Inflyatsion tazyiq foiz stavkalarining o'sishi bilan susayishi mumkin, ammo foiz stavkalarining oshishi investitsion va iste'molchi talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya portfelining o'zgarishi natijasi bo'lsa, u holda, bunday

---

[20] Statistika. www.cbu.uz.

[21] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 28 maydagi 610 – sonli "Ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. T.: O'zR MB, 2005.

qadrsizlanish yuqori darajadagi inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda foiz stavkalarining o'sishini ta'minlash inflyatsiyani jilovlashning oqilona yo'li hisoblanadi. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining o'zgarishi oqibati bo'lsa, u holda foiz stavkalari pasaytirilishi lozim. Chunki bunday sharoitda sof eksport va umumiy talab qisqaradi.

Shunisi xarakterliki, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriktsion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YaIMning o'sish sur'ati sekinlashadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrida foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud emas, ammo Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o'rtasida sezilarli darajadagi aloqadorlik kuzatiladi. Ushbu holatni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rish mumkin.

Foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlikning mavjudligi kuzatilmagan sharoitda, milliy valyutaning nominal va real almashuv kurslarining import qilinayotgan tovarlarning va eksport qilinayotgan tovarlarning bahosiga ta'sirini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirning oldini olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosatida muhim o'rin tutishi lozim.

3.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi, tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkalari[22]

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2015	2016	2017
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	9,0	9,0	14,0
So'mda berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	11,4	11,5	18,5
Inflyatsiyaning yillik darajasi, %	5,6	5,7	14,4

[22] www.cbu.uz. sayti ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017 yilda inflyatsiyaning yillik darajasi oldingi yillarga nisbatan sezilarli daraja oshdi. Bu esa, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining oshishiga sabab bo'ldi.

2012 yilda 2011 yilga nisbatan 0,6 foizli punktga pasaygani holda, qisqa va o'rta muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkalarining 2011 yilga nisbatan o'sishi kuzatildi.

2011-2013 yiilarda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgarmagan holda, tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasining barqarorligi kuzatildi.

2003-2006 yillarda tijorat banklari kreditlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasining pasayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Buning natijasida tijorat banklarining kredit emissiyasi hajmi sezilarli darajada oshishi, inflyatsiyaning o'sishi kuzatilishi lozim edi. Lekin bu holatlar 2003-2006 yillarda kuzatilmadi. Masalan, 2003 yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 3,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda - 3,7 foizni, 2005 yilda — 7,8 foizni, 2006 yilda — 6,8 foizni, 2012 yilda esa, 7,0 foizni tashkil etdi.

Markaziy bankning valyuta siyosati an'anaviy monetar instrument sifatida pul-kredit siyosatining oraliq va pirovard maqsadlariga mos kelishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy bankning valyuta siyosati bilan pul-kredit siyosati o'rtasida qarama-qarshilik tez-tez uchrab turadi. Masalan, respublikamizda tijorat banklariga naqd pul tushumi bo'yicha «naqd pullarni qaytish koeffitsienti» deb nomlanuvchi ko'rsatkich sifatida majburiyat yuklangan edi. Bundan tashqari respublikamiz tijorat banklarining aylanma kassalariga kelib tushgan naqd pullarning asosiy qismi (75-80%) birinchi darajadi to'lovlarni (Davlat byudjetining kassa ijrosi bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar) to'lashga yo'naltirilmoqda. Natijada, respublikamiz tijorat banklarida so'mdagi naqd pullarning etishmasligi muammosi yuzaga keldi. Bunday sharoitda tijorat banklari naqd xorijiy valyutalarni sotib olishdan manfaatdor bo'lmaydi. Chunki naqd xorijiy valyutalarni bank tomonidan sotib olinishi uning so'mdagi chiqimlari summasining oshishiga olib keladi va buning oqibatida naqd pullarning etishmasligi muammosi yanada chuqurlashadi.

Shuningdek, xorijiy valyutadagi mablag'larni O'zbekiston banklariga jalb etish masalasi dolzarb bo'lib turgan hozirgi sharoitda

Markaziy bankning tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan belgilagan majburiy zaxira stavkalari yuqoriligicha qolmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning amaliyotida ham pul-kredit siyosati bilan valyuta siyosati o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuzatish mumkin. Masalan, Rossiyada 1998-2000 yillarda milliy bank tizimidagi zaxiralarning o'sishi sharoitida rubldagi pul massasining ma'lum qismini muomaladan olish imkonini beradigan moliyaviy instrumentlar etarli bo'lmaganligi sababli pul agregatlarining o'sishi yuz beradi. Buning natijasida baholarning o'sishi jadallashdi. Bu esa, o'z navbatida, valyuta operatsiyalarining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, milily valyutaning almashuv kurslari xorijiy investitsiyalar oqimiga va eksport-import operatsiyalari hajmiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

3.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarhajmida xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar ulushi hamda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan yillik qadrsizlanish sur'ati[23]

Ko'rsatkichlar	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.
Xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar ulushi, mlrd. so'm	3792	5594	6810	8188	10829
So'mning 1 AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi, so'm	1984,00	2202,20	2422,40	2810,00	3231,48

3.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2012-2016 yillarda O'zbekiston Rsepublikasi iqtisodiyotida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarning ulushini o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Ana shu tahlil davrida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan yuqori qadrsizlanish sur'ati kuzatilgan. Demak, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati asosiy kapitalni moliyalashtirish maqsadiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirmagan. Ammo, 2017

[23] Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

yilning 5 sentyabrida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan keskin qadrsizlanishi investitsiya me'yoriga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi mumkin.

3.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2012-2013 yillarda respublikamizda eksportning ham, importning ham hajmini o'sish sur'ati kuzatilgan. Mazkur davrda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan yuqori qadrsizlanish sur'ati kuzatilgan (11,0%).

3.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida eksport-import hajmi va milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan yillik qadrsizlanish sur'ati[24]

Ko'rsatkichlar	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.
Eksport hajmi, mlrd. so'm	14,3	15,1	14,1	12,5	12,6
Import hajmi, mlrd. so'm	12,0	13,8	13,9	11,8	12,1
So'mning 1 AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi, so'm	1984,00	2202,20	2422,40	2810,00	3231,48

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2013-2015 yillarda eksport hajmining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Holbuki, ushbu davrda so'mning AQSh dollariga nisbatan yuqori qadrsizlanish sur'ati kuzatilgan. Demak. Ushbu devalvatsiya eksportni rag'batlantirishga xizmat qilmagan.

2014-2015 yillarda import hajmining sezilarli darajada qisqarishi kuzatilgan. Bunda esa, milliy valyutaning qadrsizlanishi muhim rol o'ynagan. Chunki, mazkur davrda so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati16,0 foizni tashkil etgan va buning natijasida import sezilarli darajada qimmatlashgan.

Ayriboshlash kursi va pulning qadrsizlanishi o'zaro bog'liqdir. Buni aholining iste'mol talabalirin qondirish darajasi asosida beliglash mumkin. Valyuta bozori bo'yicha portfel balansi modeli R.Dornbush tomonidan ishlab chiqilgan. Bunday model negizidagi asosiy ehtimol xorijiy valyuta iqtisodiy agentlar tomonidan aktivlarning bir turi sifatida ishlatilishi hisoblanadi. Bu o'rinda valyuta ham sug'urtalash, ham moliya mablag'ini saqlash vositasi sifatida qo'llanadi.

3.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli

[24] Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

darajada yuqori bo'lgan. Masalan, 2016 yilda so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati 2012 yilga nisbatan 62,9 foizni tashkil etgan. Bu esa, yuqori darajadagi qadrsizlanish sur'ati bo'lib, importning qimmatlashishiga olib keladi, aholining omonatlarini tijorat banklariga jalb etish jarayoniga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.



3.1-rasm. **So'mning 1 AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursining o'zgarishi[25], so'm**

Milliy valyutaning devalvatsiya sur'atining yuqori bo'lishi nafaqat importning qimmatlashishiga, balki investitsiyalarni moliyalashtirish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir, avvalo, investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida olingan milliy valyutadagi mablag'lar xorijiy valyutada berilgan kreditlarni qoplashga etmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bankning xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish tartibi qanday?
2. Valyuta interventsiyasi nima maqsadda amalga oshiriladi?
3. Hukumatning tashqi qarzini to'lash tartibi qanday?
4. Markaziy bank rasmiy valyuta zaxiralarini qanday tartibda diversifikatsiya qiladi?

[25] Rasm mualliflar tomonidan www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5. Markaziy bank valyutaviy svop operatsiyalarini qay tartibda amalga oshiradi?

6. Markaziy bank milliy valyutaning nominal almashuv kursini qanday aniqlaydi?

7. Markaziy bank valyuta riskiga qarshi valyuta opitsonlaridan foydalanishi mumkinmi?

8. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan qanday cheklovlar belgilanadi?

9. Markaziy bank GOLD Svop operatsiyasini qay tartibda amalga oshiradi.

4-BOB. VALYUTA RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI

4.1. "Valyuta riski" tushunchasi va uni yuzaga keltiruvchi sabablar

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o'zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklarining yuzaga kelishining asosiy sababi – valyuta kurslarini o'zgarishi hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat strukturalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bu shunga bog'liqki, ko'pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, xo'jalik subyektlari o'z bizneslarini milliy (ichki) valyutaga nisbatan boshqa (xorijiy) valyutalarda amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotishlari xavfi kiritiladi.

Valyuta riskining hajmi valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq, shu sababli u bitim imzolangan va to'lovni amalga oshirish muddati o'rtasidagi vaqt oralig'ining farqiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Eksportyor uchun (sotuvchi) kursdan yo'qotishlar to'lov valyutasini kursini tushishigacha bo'lgan muddatda bitim imzolab qo'ygan bo'lsa, yuzaga keladi, chunki, olingan tushum mablag'lariga eksporter kamroq milliy pul mablag'larni olishi mumkin. Importer esa (xaridor), baho valyutasini kursini oshishidan zarar ko'rishi mumkin, chunki xarid qilib olishi uchun endi ko'proq milliy valyuta mablag'larini xarajat qilishi lozim bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladigan har qanday risk eksportyor (sotuvchi) ning bo'yniga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma'lum bir sezilarli miqdorda prognoz qilish mumkin, hududiy va xalqaro moliya bozorlarida esa, bundan farqli o'laroq prognoz qilish juda qiyin.

Valyuta riskini uch kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk – xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning hisobotlari) firma yoki bankning moliyaviy hisobotlari natijalarini milliy valyutaga o'tkazish (misol uchun, firmaning moliyaviy hisobotlari konsolidatsiya qilish vaqtida);

2. Tranzaktsiya (bitimlar) riski – to'lovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda milliy valyutaning qiymatini yoki bitimning daromadliligining noaniqligini aks ettiradi. Bunga misol qilib, importerga kredit taqdim etilgan holda importer valyutasida tovarlarni eksport qilib olishi xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy risk - kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada ifodalangan firma aktiv va majburiyatlarining milliy valyutadagi qiymatining o'zgarishidir. Bunga misol qilib, firmaning xorijiy bo'linma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini ko'rsatish mumkin.

Pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk – bu hisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan firma yoki bankning aktiv va majburiyatlarining milliy valyutaga o'tkazishda davriy ravishda ayirboshlash kursining o'zgarib turishidir. Agarda milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta qimmatlashsa, u holda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatlari va mol-mulki ham milliy valyutaga nisbatan qiymat jihatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining qadrsizlanishi yuqoridagi holatning aksi bo'lib chiqadi.

Tranzaktsiya (bitimlar) riski to'lashga yo'naltirilgan yoki to'lovga qabul qilingan xorijiy valyutada ifodalangan hisob bilan bog'liq moliyaviy riskdir. Ayirboshlash kursi tranzaktsion ko'rinishga tegishli ravishda xejirlash (sug'urtalash) orqali barham berilmagunga qadar firmaning daromadiga, milliy valyutada to'lovlarni qabul qilish va to'lash o'zgarishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Barqaror siyosatni amalga oshirish maqsadida tijorat banklari doimiy ravishda o'z mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan o'zgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarni oldini olishi uchun ularni xejirlashni tavsiya qiladilar.

Banklar o'z mijozlari qatori risklarni minimallashtirish manfaatini ko'zlaydilar. Foiz risklari holatida xalqaro banklar va firmalar odatda ayirboshlash kursining prognozlashiga juda ko'p vaqtlari va harakatlarini sarflaydilar. Ayirboshlash kurslarini prognozlash milliy (ichki) foiz stavkalarini baholashdan ancha murakkab hodisa ekanligini isbotlab berdi. Bunga asosiy sabab bo'lib, har qanday davlatda ichki foiz stavkalariga nisbatan ayirboshlash kurslarining juda ko'p miqdordagi murakkab o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligidir.

Ayirboshlash kurslari va foiz stavkalarini prognozlashga qiziqish va o'z navbatida xorijiy valyutalar pozitsiyasini «ochiq» qoldirish (xejirlamaslik) korporativ g'aznachilikda yuqori bo'lib turibdi, bu esa ba'zida halokatli natijalarga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti korxona, jamoa tashkilotlari, koooperativlar, banklar va fuqarolarga tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta xo'jaligini mustaqil tarzda amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Hech kimga sir emaski, bozor iqtisodiyoti risk bilan bog'liq. U bilan bankirlar ham, tadbirkorlar ham, aholi ham to'qnashadi. Biroq, ko'pgina hollarda riskni kamaytirish, oldini olish, va hattoki undan qochish mumkin. Moliyaviy risklarni kamaytirishda banklar muhim o'rin tutadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatlarni qayta qurilishi, xalqaro aloqalarning kengayishi bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiq ravishda o'zgartirishlarini taqazo etadi. Ularning xo'jalik faoliyatlariga valyuta kurslarining tebranishi sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimini erkinlashtirish, alohida olingan korporativ banklarni faoliyatini universallashtirish sharoitida, alohida olingan bank risklarini hisoblash va baholash muammosi amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatida doimo uchrab turadigan valyuta risklari xususida to'xtab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Valyuta risklarining mavjudligi – valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalarni amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali, bank operatsiyalari bozorini baynalminallashuvi, shu jumladan ularni faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog'liq. Shu sababdan, riskka bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi dunyoda kechayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida deyarli ko'p mamlakatlarda pul birligi qadrining pasayishi

kuzatilmoqda. Pul qadrining yuqori yoki past bo'lishi muomala uchun zarur pul miqdorini o'zgartiradi. Biroq, tovar va xizmatlar narxi arzonlashganda pulning qadri oshadi, qimmatlashganda esa kamayadi. Muayyan mamlakatdagi milliy valyuta qadrini uning miqdori o'zgarmagan taqdirda turli omillar belgilaydi. Eng avval buni pulning moddiy ta'minlanishi, ya'ni pul ortida turgan tovarlarning miqdori va sifati belgilaydi. Tovar va xizmatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik pulga ularni ko'proq xarid etiladi. Bundan kelib chiqib, pul qadri ishlab chiqarishga bog'liq bo'ladi. Qaerda ishlab chiqarish kuchli bo'lsa, shu yerda pul qadri barqaror bo'ladi.

Milliy valyuta qadrsizlanishining asosiy sababi pul va tovar massasining mos kelmasligidir (naqd va naqd bo'lmagan pullarning tovarlar bilan ta'minlanmaganligi). Pul massasining tovarlardan ortiqchaligi pul qadrsizlanishining birinchi sababidir.

Pul muomalasi tomonidan inflyatsion bosimni aniqlovchi boshqa omil bo'lib davlat boshqaruvi, harbiy xarajatlarning o'sishi, iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa davlat xarajatlarining o'sishi hisoblanadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi davlatlar byudjeti doimiy ravishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Buning natijasida bu davlatlar byudjeti surunkali resurs etishmasligiga duchor bo'ladi.

Davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini amalga oshirib, muomalaga qo'shimcha pul chiqaradi, bu pul davlat buyurtmalari haqini to'lash, byudjet tashkilotlarida ish haqi to'lash orqali muomaladagi pulga kelib qo'shiladi va uning miqdorini ko'paytirib yuboradi. Pulning ko'payishiga javoban tovar va xizmatlar ko'payib ulgurmaydi. Ortiqcha pul tovar bilan ta'minlanmaganligidan narx oshadi. Narxlarning ortishi pulning ko'payishi hisobidan bo'lganda inflyatsiyada pul fenomeni (hodisasi) yuzaga keladi. Emissiya tufayli inflyatsiya yuz berganda inflyatsion soliq undiriladi, ya'ni davlat o'z xarajatlarini qo'shimcha pul chiqarilishi hisobidan qoplaydi. Pul ko'payib narx oshadi, aholining puli qadrsizlanadi, davlat esa bundan yutadi. Demak, aholi davlatga ko'zga ko'rinmaydigan soliq to'laydi. Agar odatdagi soliqlarni kishilar har xil to'lashsa, inflyatsion soliqni hamma puli borlar bir xil to'laydi. Ularni inflyatsiyadan yo'qotish ular pulidan soliq chegirishga o'xshab ketadi.

Ishlab chiqarishning qisqarishi. Bunda pul massasi o'zgarmaydi, lekin tovarlar hajmi qisqaradi. Natijada pulning tovar bilan ta'minla-

nishi kamayadi, tovar defitsiti hosil bo'lib narx oshadi, pul esa qadrsizlanadi.

Resurslar kamyobligidan ularga talab oshib, ularning narxi ko'tariladi, bu o'z navbatida xarajatlarni, binobarin narxini oshiradi. Buning natijasida, pul massasi o'zgarmagan taqdirda ham pulning qadri pasayadi. Bunday hol ayniqsa import qilinadigan xom-ashyo, materiallar va yoqilg'i narxlari oshganda yuz beradi. Keyingi paytda neft narxining oshib ketishi neft importiga qaram mamlakatlarda narxning oshishiga sabab bo'lgan. Resurslarning qimmatlashuvi mahsulotning birligiga ketgan sarfining oshishiga olib kelib, tayyor mahsulotlarning qimmatlashuviga sabab bo'ladi.

Valyuta zaxiralari hisobidan importni ko'paytirib, milliy pulning tovar bilan ta'minlanishini oshirish mumkin. Zaxira rolini o'tovchi valyutalar qadrsizlansa, ularga chetdan olinadigan tovarlar miqdori qisqaradi, bunda importning qadrsizlanishi yuz beradi. Import qilingan tovarlar miqdori kamaygach, milliy pulning moddiy ta'minlanishi pasayadi, narxlar o'sa boshlaydi. Valyuta zaxirasi xarid qurbi pasayishidan hosil bo'lgan inflyatsiya import qilingan, ya'ni tashqaridan kirib kelgan inflyatsiya deb ataladi, chunki zaxirani tashkil etgan valyuta o'z mamlakatida inflyatsiya tufayli qadrsizlanib, inflyatsiyani bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chiradi. Shunday hodisa o'tgan asrning 70-yillarida yuz bergan. Rezerv (zaxira) valyutasi hisoblangan AQSh dollarining kuchli inflyatsiyaga duch kelishi valyuta zaxirasi bor erda importni qisqartirgan. Shu sababli bir qator yevropa mamlakatlari zaxiralaridagi AQSh dollarini oltinga almashtirib berishni talab qilishgan.

Valyuta kursini baholashda ekspert ma'lumotlariga asoslangan xolda uni shakllanishi o'rganish asosida qo'llash mumkin. Valyuta kursini texnikaviy istiqbolashtirishda quyidagi:

$$E_t = a_0 + a_1 xe_{t-1} + a_2 xe_{t-2} + ... a_n xe_{t-n}$$

formula orqali aniqlanadi. Bu yerda:

E_t – valyuta kursini, istiqbollashtirish davrida o'zgarishi t - davrida;

$e_{t-1}, e_{t-2}... e_{t-n}$ - valyuta kursini o'sha davridagi o'zgarishi;

t-1, t-2, ...t-n - ehtimollashtirishni tuzishni asoslanish davri;

$a_n xe$ - statistik koeffitsient bo'lib u korrelyatsiya-regression usulda yoki boshqa usulda (k- dan n- gacha).

Texnik jihatdan istiqbolashtirish oddiy shakl bo'lib valyuta kursini istiqbollashtirish mumkin.

Fundamental istiqbollashtirish texnik istiqbolashtirishdan farq qilib u ekstropolyatsiya usuli asosida valyuta bozoridan tashqari bo'lgan omilarga bog'liq ekanligini tahlil qilish asosida istiqbollashtiriladi. U quyidagi formulada ifodalanadi.

$$E_t = a_0 + a_1 x_{1t} + ...a_n x_{nt} + a_n * x_{nt} + 1 + Y1 \quad t-1 = 1 + ...a_n + mYm_{t-1}$$

Bu yerda:

$X_t ... X_{nt}$ - xorijiy valyuta kurslariga ta'sir etuvchi omilarni ifodalaydi va shular asosida valyuta kursi istiqlollashtiriladi, *t;*

$Y_{p\,t-1}, ... \; Y_{m\,t-1}$ – aniq ma'lumotlar asosida xorijiy valyutalarga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi *t-1* – davrida;

$n_1\ m$ – birinchi va ikkinchi gruxlardagi omillar.

Valyuta kursini istiqlollashtirish ikki omilga asoslanishi orqali Fisher tomonidan taklif qilingan valyuta kursini istiqbollashtirish modeli inflyatsiya darajasiga va mamlakatlarda valyuta kursiga qo'yilaetgan foiz stavkalariga bog'liq xolda aniqlash taklif etilgan.

Inflyatsiya daraja valyuta kursini istiqbollashtirish davrigachan olinishi kerak. Ikkinchi omil foiz stavkalari hisoblanadi.

Valyuta kursini istiqlollashtirshda valyuta foiz stavkalari ham istiqbollashtiriladi.

Shunday qilib valyuta kursini istiqbollashtirish bir necha muammolar bilan bog'liq bo'lib ularni hal etilishi uni istiqbollashtirish sifatini oshiradi.

Valyuta kursini istiqbollashtirishda unga ta'sir etuvchi omillar ma'lum bir davrdan kelib chiqishi lozim va uzoq davrga asoslanishi va qo'yilgan talablarga javob berishi lozim.

Chunki ko'pchilik xoltatda uni aniqlash yoki o'rtacha xolatini ifodalash valyuta kursini o'sishini sun'iy ravishda bo'lishga olib keladi. Natijada u absolyut jihatdan valyuta kursini o'sishini ifodalamasligi mumkin.

Valyuta kursiini fundamental istiqbollashtirishning asosli shakli ikki omilga bog'liq bo'lib uni istiqbollashtirishda:

$$E_t = a_0 + a_1 x_1 + a_2 Y_{t-1}$$

formulasi asosida hisoblash mumkin.

Bu formulada:

X_1-istiqbollashtirish davrini;

t - ikki mamlakatdagi foiz stavkalarini farqini;

U_{t-1} amalda *t-1* - davrida mamlakatlarda inflyatsiya darajasini farqini ifodalaydi.

Faraz qilaylik fundamental istiqbollashtirish uchun quyidagi tenglamaga ega bo'ldik.

$$E_t = 0{,}2 - 0{,}6x_t + 0{,}5Y_{t-1}$$

Bu formulaga asosan bir mamlaktda infltsiyani darajasini har bir foizni o'sishi, ikkinchi mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga nisbatan valyuta kursini istiqbolda o'sishi 0.5 foizni tashkil etadi.

Bu xolat xorijiy valyuta kursini o'sishi uning xarid qilish qobiliyatini oshiradi, bu o'z navbatida inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatning valyuta kursini va uni xarid qilish qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasini o'sishi foiz darajalarini pasayishiga olib keladi va bu o'z navbatida valyutaning kursini pasayishiga, xarid qilish qobiliyatini pasayishiga

4.1-jadval

Valyuta kursini istiqbollashtirish mohiyati[26]

Variantlar	$a_0 + a_2 Y_{t-1}$	$a_1 x_1$	et	Foizda amalga oshishi darajasi
1	0,7	2,4	3,1	10
2	0,7	3,0	3,7	60
3	0,7	3,6	4,3	30

olib keladi. Valyuta kursiga istiqbollashtirishga inflyatsiya darajasini ta'sirini quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar orqali asoslash mumkin.

Inflyatsiya darajasini ikkinchi mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga nisbatan yuqori bo'lishi valyuta foizini to'lovlarini pasayishiga olib keladi. Oqibatda valyuta kursini istiqbollashtirishda inflyatsiya darajasi (60 foiz) bo'lgan mamlakatda valyuta kursi 3,7 foizni, 30 foiz bo'lganda 4.3 foizni nixoyat 10 foizni tashkil etganda, 3.1 foizni tashkil etadi. Uni quyidagicha o'rtacha xolatini hisoblash mumkin.

---

[26] Taylor, J. The Robustness and Efficiency of Monetary Policy Rules as Guidelines for Interest Rate Setting by European Central Bank//Journal of Monetary Economics. Vol. 43. Issues.1993. P. 655-679.

$$3{,}1 * 0{,}10 + 3{,}7 * 0{,}60 + 4{,}3 * 0{,}30 = 382$$

Valyuta kursini istiqbollashtirishning uchunchi uslubi yuqorida ifodalangan uslublardan tubdan farqlanadi. Bu uslub foiz stavkasi pariteti nazariyasiga asoslanadi.

4.2. Valyuta riskining darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Valyuta riski darajasining o'zgarishi bir qator muhim omillarga bog'liq. Ana shunday omillardan biri - bu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishidir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat byudjeti 3% kamomadning mavjudligi bu moliya tizimining samarasizligini, davlat byudjeti daromadlarining etarli shakllanmaganligini, shuningdek moliya mexanizmlari yaxshi faoliyat yuritmasligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadi va xarajatlarining YaIMdagi nisbatiga e'tibor qaratilsa, yil yakunlariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barqaror davom etishi tufayli byudjet ijrosi YaIMga nisbatan 2010 yilda 0,3%, 2011 yilda 0,3%, 2012 yilda 0,4%, 2013 yilda 0,3%, 2014 yilda esa, 0,2% profitsit bilan yakunlandi. Ushbu mavjud makroiqtisodiy holatni qoniqarli baholash mumkin.

Davlat byudjeti tushumlaring 1–2%gacha atrofida rejaga nisbatan etishmovchiligi me'yoriy holat deb baholangan. Kamomadning 3% dan oshishi salbiy holat bo'lsa, 8% dan ortib ketishi esa iqtisodiyotga real xavf tug'diradi. Respublikadagi holat ancha ijobiy: davlat byudjeti rejasining bajarilishini ko'rsatkichi 2005 yildan to 2015 yilga qadar profitsit bilan yakunlangan.

Shu bilan birga, qayd etish joizki, jadval m'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2008-2012 yillar davomida mamlakatimizda oltin-valyuta zaxiralarining etarliligi, davlat byudjetining profitsit bilan yakunlanayotganligini ushbu sohalarda iqtisodiy ahvol yaxshi deb baholansa, inflyatsiya darajasi inqiroz oldi rivoji darajasiga kelib qolgan.

Shuningdek, naqd pul ko'rinishidagi xorijiy valyutaning jami milliy valyuta hajmidagi ulushi ko'pligi hamda milliy valyuta kursi dinamikasi "qora bozor" valyuta kursiga nisbati inqirozning favqulodda darajasiga etib, milliy iqtisodiyotning ushbu tarmoqlari oqsab borayotganlini ko'rsatmoqda. Xususan, ayni paytda ushbu ko'rsatkichlar milliy valyutaning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu

sohada alohida strategik vazifalar ishlab chiqish hamda amaliyotga taklif etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekspertlar tomonidan berilgan fikrlarda, hamda norasmiy internet saytlarida jami muomaladagi pul mablag'larida xorijiy valyutalar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida (MDH va Janubiy Korea) ishlayotgan migrantlar tomonidan xorijiy valyutalar hamda davlat hududida ko'chmas mulklar (uy joy) va barcha turdagi avtomobil savdosi, aholi tomonidan tijorat banklaridan sotib olinayotgan valyuta qimmatliklarining norasmiy qora bozorlarga chiqishi asosida shakllanib bormoqda.

Mamlakatda ushbu ko'rsatkich jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida past tendentsiyadagi ko'rsatkichlarga ega bo'lsada, o'tgan 2011 va 2012 yillar davomida o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Bu esa inqirozning boshlang'ich davriga kelib milliy iqtisodiyotning dollarlashuviga olib kelmoqda. O'z navbatida bunday ko'rsatkich aholi ongida milliy valyutaning barqarorligiga nisbatan ishonchini susaytirib, boshqa valyutalarni saqlash va jamg'arishga talabini oshiradi.

Oltin valyuta zaxirasining mamlakat importiga nisbatan hajmi 3 oyga etishi kerak.

Oltin-valyuta zaxirasi (OVZ) ikki komponentdan tashkil topadi: valyuta zaxirasi va oltin zaxirasi.

1. Valyuta zaxirasi – davlatning moliya organlari yoki xalqaro valyuta–kredit tashkilotlaridagi rasmiy valyuta zaxirasi. Ushbu zaxira kutilmagan vaziyatlarda xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mablag'ga ega bo'lish maqsadida tayinlanadi. AQSh dollari dunyo mamlakatlarida zaxira maqsadida etakchilikni band etib kelmoqda (2013 yil yakuniga ko'ra, barcha davlatlar valyuta zaxirasining 61,7% ushbu valyutaga to'g'ri kelgan).

Avvaldan, oltin xalqaro zaxiraning asosi, to'lov balanslari bo'yicha qat'iy hisob-kitob vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. OVZ moliyaviy xavfsizlikda muhim o'rin tutib, undan mamlakat miqyosidagi strategik dasturlarni amalga oshirishda, favqulotda holatlar sodir bo'lganda hayotiy muhim ehtiyojlarni qondirish uchun tashkil qilinadi.

2017 yil holatiga O'zbekistonning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari 26567,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan[27].

[27] Oltin-valyuta zaxiralari. www.cbu.uz.

Inflyatsiya omili. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanish davrida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi hozirgi ko'rsatkichga nisbatan pastroq, ya'ni 2008 yilda, 6,8% ni tashkil etgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi avjiga chiqqan 2009 yilda esa 7,8%ga oshib, 2010 yilda 7,4%, 2011 yilda, 7,3 foizni, hamda 2012 yilda 7% ni tashkil qilgan.

Naqd xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning oshishi milliy valyutaning qadrining pasayishiga, inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, monetar siyosatni amalga oshirishda naqd xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'zgarishi alohida e'tiborga olinadi.

Pullarni noqonuniy naqdlashtirish va bank tizimidagi noqonuniy operatsiyalar valyuta riski darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda valyuta sohasida indikatorlar sifatida asosan milliy valyutaning real almashuv kursi, inflyatsiya darajasi, davlat byudjeti defitsiti, oltin-valyuta zaxirasining miqdori, tashqi qarzlar va ularning mamlakat importi va eksportiga nisbati ko'rsatkichlaridan foydalanilmoqda.

4.3. Valyuta riskini boshqarish usullari

Valyuta riskini boshqarishda tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bo'linmalari ham odatda ochiq pozitsiyalarni ushlab turishga harakat qilishadi: «uzun» pozitsiyani (xorijiy valyuta zahiralarini ko'paytiradilar) yoki «qisqa» pozitsiyani (xorijiy valyuta zahiralarini kamaytiradilar) qoldiradilar. Bu holat odatda bank iqtisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yuqori rahbariyat tomonidan ma'qullangan «bog'liq» valyuta prognozlashga asoslangan maqsadli risklarni qabul qilishdir, u esa o'z navbatida bank uchun katta xatar keltiradi. Shunday qilib, valyuta savdosida bank menejmenti uchun eng samarali siyosat bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) mijozlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tijorat tranzaktsiyalari (savdo bitimlari asosida bo'lgan) uchun valyuta bitimlarini cheklash;

b) korporativ mijozlar tomonidan doimiy ravishda talab qilinadigan valyuta kassalari uchun overnayt amaliyotiga qattiq cheklovlar

o‘rnatish hamda asosiy konvertirlanadigan valyutalar uchun limitlarni cheklash;

v) bankning valyuta savdosida aktiv bo‘lgan barcha korporativ va boshqa mijozlari uchun bankning ish vaqti va overnayt vaqtida valyutani ayirboshlashga limitlar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan monitoring o‘rnatish.

Iqtisodiy risk – mazkur valyuta riskining uchinchi ko‘rinishi bo‘lib, multimilliy firma uchun eng muhim risk hisoblanadi va firmaning aktiv qiymatiga ayirboshlash kursining o‘zgarishining uzoq muddatli ta’sirini o‘lchaydi.

Valyuta-iqtisodiy riskni o‘lchanishi mushkul vazifadir. Chunki, valyuta kursining o‘zgarish samarasini bir vaqtning o‘zida nisbiy inflyatsiya sur’atlari (uning asosida yotgan va har bir valyuta bilan bog‘liq) pul oqimlariga ta’sirini oldini olish to‘laqonli tahlilsiz mumkin emas. Firmaga valyuta kurslari o‘zgarishlarini iqtisodiy ta’siri inflyatsiya sur’atlaridagi kurs o‘zgarishlari farqlarining to‘liq qoplanganligiga bog‘liq. Agar (narx nazoratiga, monetar siyosat o‘zgarishiga va boshq.) haqiqiy valyuta kursi (o‘z navbatida, nisbiy narxlar) o‘zgarsa, u holda nisbiy narxlar o‘zgarishi oxir-oqibatda firmaning uzoq muddatli raqobatli riskini aniqlab beradi. Bunda qat’iy belgilangan valyuta kursi rejimi suzib yuruvchi kurslar rejimiga nisbatan valyutaning katta raqobatli riskiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, banklar har bir alohida amaliyot bo‘yicha (valyuta kelishuvi, himoya kelishuvi, oltin kelishuvi, multivalyuta kelishuvi, kafolatlar qo‘llanilishi, forvard bitimlari va svop bitimlari) valyuta risklarini tartibga solishda turli uslublarni qo‘llash yo‘li orqali valyuta amaliyotlaridan zararlar riskini kamaytirishga harakat qilishlari zarur.

Valyuta kurslarini o‘zgarishlarini aniqroq prognozlashtirish, valyuta risklarini sug‘urtalash (xejirlash) dan foydalanish zarurdir.

Banklar barqaror siyosatni ishlab chiqishlari lozim. Ya’ni, xorijiy valyutada barcha aktiv va majburiyatlar miqdori va muddatlariga limitlash o‘rnatishlari hamda har bir alohida valyuta limitlari bo‘yicha doimiy monitoring va davriy kuzatishni amalga oshirishlari zarur. Bunday siyosat bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va limitlar bankning kredit siyosatida mukammal belgilanishi shart.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini amalga oshirish doirasini jahon amaliyotiga muvofiq kengaytirishga yordam beradigan O‘zbekiston

valyuta bozorini erkinlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, manfaatdor organlarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o‘rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi bo‘lib hisoblanadi. Bu masalaning dolzarbligi asosan, ko‘pgina yirik vakolatli banklarning aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo‘naltirilganligi, ya’ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish printsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrdagi «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq, O‘zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan boQliq barcha hisobkitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo‘lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi haqidagi hisobot muhim o‘rin tutadi. Bu hisobotning tahlil qilishning zarurati Markaziy bank tomonidan respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosati bilan izohlanadi. Chunki, Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarga limit o‘rnatiladi. Bu tartib bo‘yicha bankning o‘z mablag‘lariga nisbatan 20 foizgacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor. Bir valyuta turi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 5 foiz qilib belgilangan. Limit o‘rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir. Chunki, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo‘ysa, va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto

bank bankrot bo'lishi mumkin (bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini sekin-astalik bilan inqirozga yuz tutishiga zamin yaratadi). Shuni oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

Valyuta pozitsiyasiga limit har bir davlatda uning iqtisodiyotining holati va mamlakatning moliyaviy tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib o'rnatilishi ma'lum. Quyida keltirilgan ma'lumotlar bunga yorqin dalil bo'ladi.

Quyidagi keltirilgan davlatlarda ochiq valyuta pozitsiyasiga quyidagicha miqdorda belgilangan:

1. Avstriya (1997 yil 31 dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha kun davomida 30% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 50% qilib belgilangan.

2. Xitoy (1998 yil 31 yanvar holatiga): kun davomida moliya institutlari xorijiy valyutani oldi-sotdi qilishlarida kapitalga nisbatan 20% hajmdan oshirmasliklari lozim. Shu bilan birga, kunning oxirida, ya'ni valyuta pozitsiyalarini yopishda kapitalga nisbatan 1% miqdorda ochiq limit ushlashga ruxsat etilgan.

3. Buyuk Britaniya (1997 yil 31 dekabr holatiga): bu yerda ochiq valyuta pozitsiyasiga qat'iy limit o'rnatilmagan. Lekin, faqat foizsiz depozitlarning 0,35%i Angliya bankida saqlanishi ko'zda tutilgan.

4. Avstraliya (1998 yil 31 mart holatiga): 1998 yil 27 martdan ochiq valyuta pozitsiyalariga limitni o'rnatish tashqi valyuta bozorida ishtirok etuvchi dilerlarga vakolat berilgan.

5. Shvetsiya: (1997 yil 31 dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha kun davomida 15% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 30% qilib belgilangan.

6. Vetnam: (1997 yil 31 dekabr holatiga): kapitalga nisbatan umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 15% limit belgilangan.

7. Litva: (1997 yil 31 dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi bankning kapitaliga nisbatan 20% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 30% dan oshmasligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda amalda Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi qoidalari» amal qiladi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan tartibda bir qator o'z echimini topmagan masalalar uchraydi. Xususan: qoidanining 2- bandi bo'yicha: ochiq valyuta pozitsiyasining limit miqdori juda kam o'rnatilgan.

Ya'ni, barcha xorijiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 20 foiz, aniq bir valyuta turi bo'yicha esa - 5 foiz. Fikrimizcha, ushbu foiz miqdorlarini qayta ko'rish kerak. Chunki, bizning respublika vakolatli banklari asosan ikki valyuta (Yevro kiritilishigacha bo'lgan davrda asosan bitta – AJSh dollari) bilan ishlashadi. Demakki, ular o'z valyuta pozitsiyalarini oshib borsa 10 foiz qiladilar. Yana ba'zi bir valyutalarni qo'shsak, bu ko'rsatkich oshib borsa 12-14 foizni tashkil qiladi. Ya'ni ularning pozitsiya imkoniyatlari cheklanadi. Fikrimizcha, birinchidan, umumiy valyuta pozitsiyasi miqdorini yana 5-10 foizga oshirish kerak. Chunki, joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiya masalasi to'la hal qilinsa, banklar, jumladan ularning mijozlari hisoblanmish korxona va tashkilotlar (mulk shaklidan qat'iy nazar) xalqaro jahon bozoriga, ya'ni integratsiya jarayoniga jadal kirishib ketadilar. Demakki, umumiy pozitsiyaning miqdorini kamligi bu jarayonga halaqit berishi mumkin. Ikkinchidan, har bir valyuta turi bo'yicha pozitsiyaning limitini yana 5 foizga oshirish kerak.

Mazkur tartib bo'yicha hisobot bir oyda bir kun tuzilishi ham maqsadga muvofiq emas. Chunki, joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha mavjud cheklashlar olib tashlansa, banklar ushbu limitni buzmaslik uchun hisobot tuzilishi sanasida qisqa pozitsiya qilishlari, va aksincha boshqa kunlar mobaynida pozitsiyani uzun qilib - limitni buzishlari mumkin. Shu sababli, mazkur hisobotni taqdim etilish muddatini yana bir bor qayta ko'rish kerak yoki ushbu chegarani vakolatli banklar xar kuni ushlashlarini belgilab qo'yish lozim.

Shu masala hal qilinmasa, ichki valyuta bozori anchagina likvid mablag'lardan mahrum bo'lishi va faqat oyning bir-ikki kuni davomida juda katta miqdorda likvid mablag'larga ega bo'lishi mumkin. Bu haqqoniy valyuta bozorini normal faoliyat ko'rsatishini buzilishiga olib keladi.

Agar bankning mijozi uning uchun valyuta resurslarini sotib olishni talab qilsa-da, va 5 kun muddat ichida mazkur valyutani sotib olmasa, ushbu valyuta resurslarining miqdori bank uchun uzun valyuta pozitsiyasi hisoblanishi maqsadga muvofiq. Chunki, mijoz xorijiy valyutani o'z vaqtida sotib olmasa, risk to'g'ridan-to'g'ri bankning bo'yniga tushadi. Shu sababli, mazkur tartibni takomillashtirish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'zining xorijiy valyutadagi zaxiralarini xalqaro hisob-kitoblarda yuqori salmoqqa ega

bo'lgan valyutalarda shakllantirishi lozim. Tahlil natijalari ko'rsatdiki, AQSh dollaridagi zaxiralarning xalqaro zaxiralarning umumiy hajmidagi salmog'i, 2013 yilning 1 yanvar holatiga 66,5 foizni, yevrodagi zaxiralar 24,4 foizni, Buyuk Britaniya funt sterlingidagi zaxiralar – 3,7 foizni, Yaponiya ienidagi zaxiralar 3,6 foizni, Shveytsariya frankidagi zaxiralar esa 0,1 foizni tashkil etdi.

Ayni vaqtda, xalqaro zaxiralar hajmida AQSh dollarida shakllantirilgan zaxiralarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, AQSh dollarining boshqa etakchi valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursining tebranish diapazoni katta emas; ikkinchidan, AQSh dollarida emissiya qilingan AQSh hukumatining va Federal fondlarining qimmatli qog'ozlari yuqori likvidli va ishonchli investitsiyalash obyektlari hisoblanadi; uchinchidan, hozirga qadar dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, MDH davlatlarida valyuta interventsiyasi vositasi bo'lib AQSh dollari hisoblanadi; to'rtinchidan, ko'plab mamlakatlar hukumatlari tashqi qarzining asosiy qismi AQSh dollarida shakllangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati asosida mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xalqaro kreditlarning umumiy hajmida AQSh dollarida jalb etilgan kreditlarning salmog'i 80 foizdan yuqoridir[28]. Shunisi xarakterliki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy valyutadagi zaxiralarning tarkibini tashqi qarzning tarkibiga mos ravishda shakllantirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Chunonchi, Braziliyada xalqaro zaxiralar uchta valyutada – AQSh dollari, yevro va Yaponiya ienida shakllantirilgan. Chunki mamlakatning tashqi qarzi mazkur uch valyutadagi qarzdan iborat. Janubiy Koreyada xalqaro zaxiralarning investitsion tarkibi tashqi qarzning valyutaviy tarkibiga va joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha to'lovlarni qaysi valyutalarda amalga oshirilayotganligiga mos ravishda shakllantirilmoqda. Chexiyada esa rasmiy valyuta zaxiralari AQSh dollari va yevroda shakllantirilgan. Uni shakllantirishda e'tiborga olinadigan asosiy omillardan biri tashqi qarzning valyutaviy tarkibi hisoblanadi[29].

---

[28] O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobot ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

[29] Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов // Мировая экономика и международные отношения. М., 2007. № 6. С.56.

Mamlakatda "qora bozor"ning noqonuniy faoliyati milliy valyuta barqarorligi uchun tahdidlardan biri hisoblanadi. Biroq, bu holat hozirgi kunda ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ham saqlanib qolmoqda. Shunday qilib, MDH doirasidagi qator davlatlarda (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston) mazkur noqonuniy bozorlar va ulardagi rasmiy valyuta kursi tahlilidan kelib chiqib ushbu indikator va chegaraviy qiymatlar aniqlandi. Ta'kidlash mumkinki, ayni paytda "qora bozor"ning mavjudligi so'mni boshqa qattiq valyutalarga nisbatan (AQSh dollari va yevro) qadri tushishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, so'ngi yillarda undagi valyuta kursining rasmiy kursga nisbatan keskin o'sib ketishi kuzatilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Valyuta riski nima?
2. Valyuta riskini yuzaga keltiruvchi qanday sabablar mavjud?
3. Valyuta riskining qanday turlari mavjud?
4. Valyuta riskining darajasini qanday baholash mumkin?
5. Muddatli valyuta bitimlari valyuta riski darajasini qay darajada pasaytira oladi?
6. Banklarning ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishning qanday usullari mavjud?

5-BOB. VALYUTA OPERATSIYALARINI TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT QILISH

5.1. Valyuta operatsiyalarini tartibga solish

Valyuta operatsiyalarini tartibga solish deganda valyutalar va valyutaviy qimmatliklar bilan oldi - sotdi qilish hamda xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi tizim tushuniladi.

Valyuta operatsiyalari ichki qonunchilik hujjatlari va xalqaro valyutaviy bitimlar bilan tartibga solinadi.

Valyuta operatsiyalrini tartibga solish quyidagi printsiplarga tayanadi:

1. Valyuta operatsiyalarini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asosning mavjudligi printsipi.

O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asosi, mazmuniga ko'ra ichki valyuta qonunchiligiga ko'ra va xalqaro qoidalar va konventsiyalardan iborat. Bunda ichki valyuta qonunchiligiga sohaga oid bo'lgan mavjud qonunlar (O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun va boshqalar), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Soliq kodeksi, Valyutani nazorat qiluvchi davlat organlarining (Markaziy bank, Moliya Vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi) amaldagi yo'riqnomalari kiradi.

Xalqaro qoidalar va konvensiyalar hamda XVFning valyuta munosabatlariga oid majburiyatlarini qabul qilish yuzasidan kelishuvlar valyuta operatsiyalarni tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslarining ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. Valyuta operatsiyalarini litsenziyalash prinsipi

Importyorlar xorijiy valyutani xarid qilish valyutani nazorat qilish organlarining roziligini olishlari kerak. Bundan tashqari, O'zbekiston

Respublikasida tijorat banklari valyuta operatsiyalarini amalga oshirishlari uchun Markaziy bankdan Bosh litsenziya olishlari shart.

3. Valyuta operatsiyalarini Markaziy bank va vakolatli banklar orqali amalga oshirish printsipi.

Valyuta operatsiyalarinining mutlaq asosiy qismi (85-90%) tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Bu esa, birinchidan, valyuta operatsiyalari tijorat banklarining asosiy operatsiya turlaridan biri ekanligi bilan, ikkinchidan, Markaziy bank tomonidan xo'jalik yurituvchi subektlar va aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatilmasligi bilan izohlanadi

Markaziy bank esa, o'zining valyuta siyosatidan kelib chiqqan holda, valyuta operatsiyalarinini amalga oshiradi.

4. Valyuta hisobraqamlaridagi mablag'larni ishlatilishiga nisbatan cheklovlar o'rnatish printsipi.

Masalan, xorijlik ekspartyorlarning ushbu mamlakatda tovarlarni sotishdan olgan tushumidan foydalanishiga nisbatan qisman yoki to'liq ta'qiq belgilanishi mumkin.

5. Milliy valyutani xorijiy valyutalarga konvertirlashni cheklash printsipi.

Xorijiy valyutalar taqchilligi mavjud bo'lgan yoki to'lov balansi defitsiti chuqurlashgan mamlakatlarda konvertatsiya muammosi kuzatiladi. Bunday sharoitda hukumat va Markaziy bank konversion operatsiyalarga nisbatan cheklovlar joriy qilishga majbur bo'ladi.

XVF valyutaviy cheklovlarga qarshi. Xususan XVF kelishuvlar moddasining 8-moddasi joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklovlarni bekor qilishni ko'zda tutadi. 1978 yilda XVF kelishuvlar moddasining 4-moddasiga o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, kapitallarning harakati bo'yicha cheklovlarni bekor qilish jahon valyuta tizimini rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Tijorat banklari xalqaro valyuta munosabatlarining asosiy va faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ularning jahon moliya bozorlaridagi mavqei va roli XXI asrga kelib yuqori darajada oshdi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda jahon valyuta bozorlaridagi valyuta operatsiyalarining bir kunlik hajmi 4 trln. AQSh dollaridan oshadi. Bu operatsiyalarning 50 foizdan ortiq qismi 10 ta yirik tijorat bankining hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa, tijorat

banklarining jahon valyuta bozorlaridagi yuksak mavqeidan dalolat beradi.

Tijorat banklari va ular mijozlarining xorijiy valyutalardagi operatsiyalari ularning xorijiy tijorat banklari bilan o'rnatgan vakillik munosabatlari doirasida amalga oshiriladi.

Xalqaro valyuta fondi Nizomining VIII-moddasiga imzo chekish to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha valyutaviy cheklashlarni bekor qilinishini anglatadi. To'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi o'z ichiga ikkita mustaqil balansni oladi:

1. Savdo balansi

Savdo balansida eksport-import operatsiyalari bo'yicha xorijiy valyutalardagi haqiqatda olingan tushumlar va haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar savdo balansida aks ettirilmaydi, balki to'lov balansining kreditlar bo'limida aks ettiriladi.

2. Xizmatlar va notijorat xarakteridagi to'lovlar balansi.

Bu balansda turli xildagi xizmatlar bo'yicha, xorijiy davlatlarda harbiy qismlar saqlash, diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, xalqaro kreditlar bo'yicha foizlar to'lash, investitsiyalar bo'yicha dividendlar to'lash kabi notijorat xarakteridagi to'lovlar va tushumlarning summasi aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi shchukumati nomidan uning rasmiy agentlari 2003 yilning 15 oktyabrida Xalqaro valyuta fondi Nizomining VIII-moddasiga imzo chekdilar. Bu esa, mamlakatda joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha valyutaviy cheklashlarni bekor qilinishiga olib keldi.

Respublikada milliy valyuta munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanib, buning zamirda milliy valyutaning xarid qobiliyatini oshirish hamda xorij valyutalariga nisbatan barqarorlikni yuzaga keltirish masalalari yotadi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida Respublika hukumatining valyuta siyosati eksportga ishlovchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish yoki protektsionizm siyosatini olib borish, etarli darajadagi xorijiy valyuta zaxiralarini saqlab turish maqsadlarida so'mning etakchi valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursini zaruriy sur'atlarda devalvatsiyalashga qaratilgan.

O‘zbekistonda milliy valyutaning barqarorligini va uning bozorda erkin almashinuvini ta’minlash maqsadida aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan to‘rt yo‘nalishdagi tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, mamlakat tovar bilan barqaror ta’minlangan taqdirdagina real kuch va obro‘ga ega bo‘ladi. So‘mning xarid quvvatini oshirish uchun respublika bozorini mumkin qadar tezroq iste’mol mollari bilan ham to‘ldirish choralarini ko‘rish hamda protektsionizm siyosatini olib borish kerak. Bundagi ustuvor vazifa odamlarning birlamchi talablari bo‘yicha mahsulotlarni mamlakatda ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirishdan iborat.

Holat yuzasidan 2013 yilning yanvar oyida va import tovarlarni qisqartirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1913[30]-sonli qarori va mahalliylashtirish dasturi[31] ishlab chiqilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda protektsionizm siyosati ishlab chiqilib, ichki bozorni tashqi raqobatdan himoya qilish orqali milliy valyuta barqarorligini ta’minlashga harakat qilinmoqda. Uning tahliliy jihatlarini keyingi bob rejalarida ko‘rib chiqiladi.

Ikkinchidan, valyutaning barqaror amal qilishi va erkin almashinuvi (konvertatsiya) etarli valyuta zaxirasi bo‘lishiga bog‘liq. Buning uchun korxonalarning eksport imkoniyatini kengaytirish va shu orqali jahon bozorida mustahkam o‘rinni qo‘lga kiritish zarur.

Uchinchidan, har bir korxona va har bir kishi ishlab topgan so‘mini qadrlashni o‘rgangan taqdirdagina milliy valyuta real to‘lov vositasiga aylanadi. Buning uchun qat’iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan amalga oshirish zarur. Iqtisodiyotda sarflangan har bir so‘m salmoqli foyda bilan qaytishi ertangi kunga, respublika istiqboliga xizmat qilishi kerak.

To‘rtinchidan, milliy valyutani mustahkamlashning eng muhim sharti – inflyatsiyaga qarshi uzoqni ko‘zlagan holda, puxta o‘ylangan

---

[30] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.01.2013 y.dagi «Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshliligini yanada oshirish va tovarlarni Respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to’g’risida»gi №PQ-1913 sonli qarori. http:// www.norma.uz/

[31] Постановление Президента Республики Узбекистан от 29.07.2011 г. №ПП-1590 «О мерах по дальнейшему углублению локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации на 2011-2013 годы».http://www.norma.uz/

siyosat olib borishdir. Inflyatsiya darajasini keskin kamaytirishgina milliy valyutani barqaror valyutaga aylantira olish mumkin.

Valyutani tartibga solishda o'zgarib boruvchi-boshqariladigan almashuv kursi strategiyasining qo'llanilishi tashqi iqtisodiy kon'yukturaning davlat moliya tizimiga salbiy ta'sirini bartaraf etish va ichki valyuta bozorida muvozanatni ta'minlash imkoniyatini beradi.



4.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi**[32], foizda

4.1.-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini pasaytirishga muvaffaq bo'lingan. Ammo, bu iste'mol baholari indeksi bo'yicha aniqlangan inflyatsiya darajasi bo'lib, yalpi ichki mahsulot deflyatori darajasidan qariyb ikki barobar pastdir. Bu esa, mamlakatda baholarning umumiy o'sish darajasini yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarning umumiy hajmida nomonetar omillarning salmog'i yuqori bo'lganda Markaziy bank inflyatsiyaga qarshi kurashishda Moliya vazirligi bilan kelishishga majbur bo'ladi. Buning sababi shundaki, nomonetar omillar tarkibida tabiiy monopoliyalar mahsulotlari va xizmatlarining baholarining o'sishi asosiy o'rin tutadi. Markaziy bank esa, ushbu monopolistik korxonalarning baho siyosatiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

2017 yilda pul-kredit siyosati "Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" asosida amalga oshirilib, iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalari, xususan, belgilangan

[32] Rasm mualliflar tomonidan www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Bunda, YaIMning o'sish sur'atlariga muvofiq, iqtisodiyotning pulga bo'lgan oshib borayotgan talabini to'liq qondirish va bank tizimi likvidliligini maqbul darajada saqlab turish orqali inflyatsiya darajasini belgilangan maqsadli parametrdan oshirmaslik maqsadida Markaziy bank o'z tasarrufidagi pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalangan.

Respublikamizda inflyatsiyaning kuchayishida sanoat mahsulotlari baholarining o'sishi o'ziga xos o'rin tutadi (2.3- rasm).



4.2-rasm. **O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksi dinamikasi**[33]

4.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksiga asosiy ta'sirni ishlab chiqarish sanoati ishlab chiqaruvchilari narxlari dinamikasi ko'rsatadi. Respublikamizda mahsulotlar bo'yicha o'rtacha narxlarni shakllantirishda hududlar bo'yicha narxlar o'zgarishimuhim ahamiyatga ega bo'lib, bu variatsiya koeffitsienti orqali aniqlanadi. Variatsiya koeffitsienti, umumqabul qilingan statistika amaliyotida, 33,3 foizdan ziyod bo'lsa, ushbu kattalik uchun hisoblangan o'rtacha ko'rsatkich reprezentativ bo'lmaydi.

[33] O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2016 yil yanvar-dekabr. T.: ITM, 2017. B. 13.

4.2-jadval

Yig'ma iste'mol narxlari indeksi va bazaviy inflyatsiya dinamikasi[34]

	2016 yil			
	yanvar-mart	yanvar-iyun	yanvar-sentyabr	yanvar-dekabr
Tartibga solinadigan mahsulotlar (xizmatlar) narxlarining o'sishi – jami	1,3	5,9	6,0	12,8
Shu jumladan:				
Narxlari hukumat tomonidan belgilanadigan	0,8	5,4	5,4	16,6
Narxlari ishlab chiaruvchilar tomonidan deklaratsiya qilinadigan	1,8	6,3	6,6	9,2
Bazaviy inflyatsiya, ya'ni narxlari hukumat tomonidan belgilanadigan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan deklaratsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) narxlari o'sishini hisobga olmagan holda	2,1	2,8	2,4	6,2
Yig'ma iiste'mol narxlari indeksi, mavsumiy t ovarlar narxlarining pasayishini hisobga olmagan holda	1,2	3,3	5,2	7,7

4.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2016 davomida davlat tomonidan tartibga solinmaydigan tovarlar va xizmatlar narxlari o'sish sur'atiga nisbatan tartibga solinadigan tovarlar va xizmatlar narxlarining o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan. Bu esa, inflyatsiyani yuzaga keltirishda nomonetar omillarning roli katta ekanligini ko'rsatadi.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari ko'rsatdiki, 2016 yilda respublikamizda barcha mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha variatsiya koeffitsienti me'yoriy darajadan past bo'ldi. Bunda variatsiya koeffitsientining enng past ko'rsatkichlari shakar, shifer va tsement narxlari bo'yicha, eng yuqori ko'rsatkichi esa, buyoq va gulqog'oz, shahar avtobus xizmati bo'yicha qayd etildi.

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat muhim o'rin tutadi. Shu sababli, monetar indikatorlarning dinamikasini tahlil qilish va mavjud tendentsiyalarni aniqlash milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

[34] O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2016 yil yanvar-dekabr. T.: ITM, 2017. B. 11.

5.2. Valyuta operatsiyalarini nazorat qilish

Valyuta operatsiyalarini nazorat qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

1. Mamlakat to'lov balansining muvozanatini tiklash maqsadida.

To'lov balansini doimiy difitsitga ega ekanligi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli bosimnm yuzaga keltiradi, inflyatsiyani kuchaytiradi. Shu sababli, hukumatlar valyutaviy nazorat orqali to'lov balansini muvozanatlashgan holatga keltirishga harakat qilishadi.

2. Ichki tovar ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish.

Mamlakatda ichki tovar ishlab chiqaruvchilarni noteng raqobat kurashida bankrot bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, odatda, importni valyuta nazorati orqali cheklash siyosati qo'llaniladi. Bunda ayrim tovarlarni import to'lovi uchun konversion operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etilmaydi.

3. Urushlarga tayyorgarlik ko'rish.

Urush katta xarajatlarni talab etadi. Shu sababli, urushga tayyorlanayotgan davlat valyuta nazoratini qo'llash orqali urush xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan valyuta resurslarini to'plash imkoniga ega bo'ladi. Masalan, Germaniyada 1923 yilda A.Gitler hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ikkinchi jaxon urushiga tayyorgarlik boshlandi. Bu esa mamlakatdan oltin va valyuta zaxiralarining chiqib ketishining oldini olishga qaratilgan valyuta nazorati usullarining joriy etilishiga olib keldi.

4. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar paytida spekulyativ kapitallarning xarakatini cheklash.

Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davrida qisqa muddatli spekulyativ kapitallarning nazorat qilib bo'lmaydigan harakati yuzaga keladi. Ushbu harakat natijasida ayrim davlatlarda to'lov balansining holati keskin yomonlashadi, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa, valyuta oqimining kuchayishi natijasida milliy valyutaning revalyutsiya bo'lish, foiz stavkalarining ko'tarilish xavfi yuzaga keladi.

Valyutaviy nazoratni amalga oshirishning quyidagi usullari mavjud:

5. Eksportyorlarning valyuta tushumini qisman yoki to'liq hajmda majburiy sotiladi.

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurutuvchi subyektlarning eksport tushimining 50 foizi majburiy tartibda tijorat banklariga sotiladi. Markazlashgan eksportdan olingan valyuta tushimi esa, to'liq ya'ni 100 foiz Markaziy bankka sotiladi.

1. Importyorlarga xorijiy valyutalarni sotishni cheklash.
2. Ayrim tovar pozitsiyalarining importi bo'yicha konversion operatsiyalarni cheklash.
3. Xorijlik eksportyorlarning tovarlarni sotishdan olingan valyuta tushumlarini qisman yoki to'liq "hibsga olish".
4. Milliy va xorijiy valyutalarni hamda oltin va boshqa nodir metallarni mamlakatdan olib chiqib ketishni cheklash.
5. Rezidentlarni xalqaro fond bozorlaridan qimmatli qog'ozlar sotib olishini ta'qiqlash.
6. Ssuda kapitallari bozori faoliyatini nazorat qilish.
7. Davlatning tashqi qarzi bo'yicha to'lovlarni qisman yoki to'liq to'xtatish.

1982 yilda Argentinida hukumat defolt bo'lgan edi. Shu sababli davlatning tashqi qarzi bo'yicha to'lovlar to'liq to'xtatilgan edi.

Valyuta cheklovlari, ko'pchilik mamlakatlarda tashqi hisob-kitoblarga doir operatsiyalarning keng doirasini o'z ichiga oladi va ular qat'iy ravishda olib boriladi. Bu hol, valyuta resurslari etishmovchiligi va ularni ishlatishni o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishiga muvofiq holda tartibga solish zaruriyati bilan bog'liqdir. 80- yillar boshida XVFga a'zo - 113 ta mamlakatdan 95 tasida to'lov balansi joriy operatsiyalari, 91 ta mamlakatda esa - kapitallar harakati bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlari mavjud edi.

Valyuta cheklovlari shakllari turli xil shaklda bo'lishi mumkin. Odatda, tashqi savdoda mahsulot eksport qiluvchilarga valyuta tushumining barchasi yoki uning bir qismini Markaziy bank yoki vakolatli banklarga rasmiy kurs bo'yicha topshirish talabi keng qo'llaniladi.

Valyuta cheklovlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- chet elga to'lovlarni o'tkazilishi, kapitalni olib chiqib ketilishi, foydani, oltinni, pul belgilari va qimmatli qog'ozlarni repatriatsiya qilinishini tartibga solish;
- davlatga majburiy tarzda xorijiy valyutani topshirilishi (rasmiy kurs bo'yicha milliy valyutaga ayirboshlash evaziga).

Quyidagilar amaliyotda qo'llaniladi:

♦ import qiluvchilarga xorijiy valyutani sotilishini litsenziyalash;

♦ valyuta qimmatliklarini davlat idoralarining maxsus ruxsatnomasisiz olib kirilishi va olib chiqib ketilishini man etilishi;

♦ jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi mablag'larga egalik qilishi va tasarruf etishini cheklash;

♦ chet elga shaxsiy daromadini o'tkazishni tartibga solish;

♦ sug'urta va boshqa to'lovlarni amalga oshirish;

♦ chet elga chiqishda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirilishini limitlash.

Ichki ayirboshlanish deganda rezidentlarning mamlakat ichkarisida xorijiy valyutadagi muayyan aktivlar (masalan, bank depozitlari)ni saqlash va tegishli tarzda milliy valyutani mamlakat ichkarisida konvertatsiya qilish xuquqi mavjud bo'lgan ahvol tushuniladi. Ammo, mamlakat ichkarisida valyutaga ega bo'lish va uni ayirboshlash bo'yicha ushbu xuquq mamlakat ichkarisida valyuta to'lovlarini amalga oshirilishiga ruxsat berilishi, shuningdek, chet elga to'lovlarni o'tkazilishi yoki xorijda joylashtirilgan aktivlarga egalik qilishni nazarda tutmaydi.

Ochiq valyuta pozitsiyalari limitlariga rioya qilinishi ustidan nazorat vakolatli banklar tomonidan har bir ish kuni yakuni holati bo'yicha jamlangan holda amalga oshiriladi.

Banklar o'zlarining filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyalari limitlarini mustaqil ravishda belgilaydilar va bu haqida ularga yozma ravishda ma'lum qiladilar. Bunda ular tomonidan bo'limlar va filiallar uchun ochiq valyuta pozitsiyalariga doir limitlarni ulushbay taqsimlash mazkur qoidalar bilan belgilangan cheklovlar doirasida amalga oshiriladi va umuman olganda, vakolatli bank bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyalari limitlari Ushbu qoidalarning III-bo'limida belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

Limitlarni bankning bo'lim va filiallari o'rtasida bir operatsion ish kuni davomida qayta taqsimlashga ruxsat etiladi.

Vakolatli banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining nazorati Markaziy bank tomonidan quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

har bir ish kuni uchun ochiq valyuta pozitsiyalari haqidagi hisobot ma'lumotlari;

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Markaziy bank va uning

hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar ma'lumotlari.

Ochiq valyuta pozitsiyalari limitlari buzilgan takdirda, vakolatli bank Markaziy bankka yo'l qo'yilgan buzilishlar sabablarini Ushbu buzilishlarni tuzatish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ro'yxati bilan birga tushuntirish taqdim etishi shart. Yo'l qo'yilgan tartibbuzarlik sabablari yuzasidan tushuntirish taqdim etish bankni ochiq valyuta pozitsiyalari limitlariga rioya qilmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi. Vakolatli banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Valyutani tartibga solish va tashqi aloqalar departamentiga ochiq valyuta pozitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan shakl va muddatda o'rnatilgan tartibda hisobot taqdim etib boradilar.

Ochiq valyuta pozitsiyalari holati to'g'risidagi hisobot vakolatli bank tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi.

Hisobotda chet el valyutasining har bir turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalentda ochiq valyuta pozitsiyalari (uzun va qisqa) va ularning vakolatli bankning regulyativ kapitaliga bo'lgan foizdagi nisbati, shuningdek, amalga oshirilgan muvozanatlantiruvchi bitimlarning natijalari bo'yicha vujudga kelgan so'mdagi ochiq valyuta pozitsiyasi (muvozanatlantiruvchi), ochik, valyuta pozitsiyalarining yig'ma mikdori hamda ularning vakolatli bankning regulyativ kapitaliga bo'lgan foizdagi nisbati aks ettiriladi. Hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi va o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik vakolatli banklar rahbarlari zimmalariga yuklanadi.

Ayrim chet el valyutalari bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi limiti hamda ochiq valyuta pozitsiyalarining jami mikdori limitdan oshirib yuborilgan hollarda yoki hisobot taqdim etilmagan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki vakolatli banklarga nisbatan o'rnatilgan tartibda jarima qo'llash yoki vakolatli bankning chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarini olti oy muddatgacha cheklab qo'yish choralarini qo'llashi, shuningdek ochiq valyuta pozitsiyasining yakka tartibdagi limitlarini belgilashi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Valyuta operatsiyalari nima maqsadda tartibga solinadi?
2. Valyuta operatsiyalari nima maqsadda nazorat qilinadi?

3. Valyuta operatsiyalarini tartibga solishning qanday usullarini bilasiz?

4. Valyuta operatsiyalarini nazorat qilishning qanday usullarini bilasiz?

5. To‘lov balansi passiv bo‘lganda tartibga solishning qaysi usullaridan foydalaniladi?

6. To‘lov balansi aktiv bo‘lganda tartibga solishning qaysi usullaridan foydalaniladi?

7. O‘zbekistonda valyutaviy nazoratni amalga oshirish tartibi qanday?

2-BO'LIM. XALQARO HISOB-KITOBLAR

6-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

6.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari

Xalqaro hisob-kitoblar – xorijiy valyutalardagi talab va majburiyatlarni amalga oshirish va tartibga solish tizimi bo'lib, turli mamlakatlarning xuquqiy va jismoniy shaxslari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar munosabati bilan yuzaga keladi. Xalqaro hisob-kitob munosabatlari, bir tomondan, to'lovlarni amalga oshirish tartibi va shartlarini o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, tijorat banklarining ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan kundalik faoliyatini oladi.

Bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas tuzilmalaridan biri hisoblanuvchi banklar tizimi va xalqaro munosabatlar doimo o'zoro bog'liq shaklda rivojlanib kelgan. Shu bilan birga, banklar xalqaro munosabatlarda hisob-kitoblarni amalga oshirish, xo'jalik subyektlarini kreditlash, xalqaro kapitallarni qayta taqsimlashda vositachi sifatida ishtirok etish, tashqi munosabatlarda qatnashuvchi subyektlarga boshqa turli xizmatlar ko'rsatish orqali mehnat unumdorligini hamda ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga amalda yordam ko'rsatadilar.

Xalqaro tijorat banklari xalqaro miqyosida keng tarqalgan va rivojlangan filial tarmoqlariga va banklararo vakillik hisob varaqlariga ega bo'lib, bu ikki omil, pirovard natijada, ularning XIM tizimidagi yuqori darajadagi mavqeini ta'minlashning birlamchi zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik munosabatlari geografik yo'nalishi, operatsiya turlari va munosabatlarning xarakteriga ko'ra farqlanadi.

Tijorat banklarining o'zaro vakillik munosabatlari geografik yo'nalishiga ko'ra ichki va tashqi munosabatlarga bo'linadi. Ichki munosabatlar deganda, bir mamlakat ichidagi tijorat banklari o'rtasidagi o'rnatilgan o'zaro vakillik munosabatlari tushuniladi. Xalqaro hisob-

kitoblarning asosiy qismi tashqi vakillik munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Bunda to'lovlar «Nostro» va «Vostro» vakillik hisob varaqlari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklari bilan bir tomonlama tashqi vakillik munosabatlariga ega ekanligi xalqaro operatsiyalar ko'lamini kengaytirishga salbiy ta'sir qiladi. Masalaning mohiyati shundaki, Respublikamizning yirik tijorat banklari rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklarida o'zlarining «Nostro» vakillik hisob varag'iga ega. Rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklari esa, respublikamizning tijorat banklarida o'zlarining «Vostro» vakillik hisob varag'iga ega emaslar.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik munosabatlari operatsiyalarining turi bo'yicha, ikkiga, ya'ni, mijozlarning operatsiyalari va bankning o'zini operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarga bo'linadi. Mijozlarning operatsiyalariga ularga trast xizmati ko'rsatish operatsiyalari, mijozlarning tijorat operatsiyalari, ularning majburiyatlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalari, cheklar, hujjatlashtirilgan akkredetivlar va inkasso vositasida to'lovlarni amalga oshirish operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq opratsiyalar, ularga kafolatlar berish va boshqa operatsiyalar kiradi.

Banklarning o'z operatsiyalariga xorijiy valyutada kreditlar berish va kreditlar olish, depozitlar qabul qilish valyutalarni, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish operatsiyalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining birontasi hozirgi kunga qadar xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining listingiga kirmagan. Bu esa, ularning xorijiy valyutadagi yozalgan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Respublikamiz tijorat banklarining valyutalarni sotib olish operatsiyalarining rivojlanish darajasi ularning imkoniyatlari darajasidan ancha past. Bu holatning namoyon bo'lish shakllari quyida-gilardan iborat:

a) Respublikamiz tijorat banklarining xalqaro valyuta bozorlaridagi operatsiyalari miqdori juda kichik. Bu operatsiyalar asosan import to'lovlarini amalga oshirish bilan bog'liq.

b) Respublikamiz tijorat banklarining valyuta optsionlari va valyuta fyucherslari bilan bog'liq muddatli operatsiyalari mavjud emas.

v) Mamlakatimiz banklarida svop operatsiyalari rivojlanmagan.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik munosabatlari o'zaro munosabatlarning xarakteriga ko'ra, hisob varag'i ochish asosidagi va hisob varag'i ochmasdan turib o'rnatiladigan munosabatlarga bo'linadi.

Ko'pchilik holatlarda o'zaro vakillik munosabatlari ikki tomonlama yoki bir tomonlama hisob varaqlari ochish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ayni vaqtda, hisob varaqlari ochmasdan turib ham o'zaro vakillik munosabatlarini o'rnatish mumkin. Bunda xalqaro hisob-kitoblar uchinchi bankda ochilgan hisob varag'i orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob munosabatlarini XIM tizimidagi o'rnini belgilovchi ikkinchi asosiy omil ularning xalqaro elektron to'lov tizimiga ulanishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, bank sohasida olib borilgan islohatlar natijasida qisqa muddatda milliy elektron to'lovlar tizimi joriy etildi. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida xo'jalik subektlari o'rtasida to'lovlar o'tkazish vaqti keskin ravishda qisqardi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi diagrammada keltirilgan.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob munosabatlari bir qator o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

• Importyorlar va eksporterlar, ularning banklari tashqi savdo shartnomasiga bevosita bog'liq bo'lmagan o'zaro munosabatga kirishadilar.

Mazkur o'ziga xos munosabat tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish, tekshirish, uzatish va to'lovlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi.

• Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalari milliy qonunchilik bilan, shuningdek, xalqaro qoidalar bilan tartibga solinadi. AQShda yagona savdo kodeksi mavjud bo'lib, unda banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslar o'z aksini topgan.

• Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob munosabatlari unifikatsiya obyekti bo'lib, u xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va bank operatsiyalarining universallashuviga asoslangan.

• Banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida ikki to'lov sharti qo'llaniladi:

a) To'lovlar hujjatlarga qarshi.

b) To'lovlar aktseptga qarshi.

Birinchi to'lov shartida importyor to'lovni amalga oshirgandan keyingina unga tovarlar bilan bog'liq hujjatlar beriladi.

To'lovning ikkinchi shartida importyor tomonidan veksel aktseptlangandan keyingina unga hujjatlar beriladi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda milliy valyutaning baholovchi valyuta vazifasini bajara olmasligi va ushbu mamlakatlardagi banklarning rivojlangan xorijiy davlatlarning banklari bilan bir tomonlama vakillik munosabatlariga ega ekanligi tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining 90 foiziga yaqin qismi faqat beshta valyutada amalga oshirilmoqda. Bularga AQSh dollari, yevro, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Shveytsariya franki kiradi.

Mazkur valyutaning barchasini erkin suzib yuruvchi kurs rejimiga ega ekanligi xalqaro hisob-kitob munosabatlarida valyuta riski muammosi va to'lov riski muammosini yuzaga keltirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tijorat banklari XIM tizimida muhim va hal qiluvchi rolni o'ynamoqda. Ularning xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish borasidagi boy tajribasini ilmiy asosda o'rganish respublikamizning tijorat banklari uchun katta amaliy ahamiyatga egadir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini tasniflash asoslari.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini to'g'ri tasniflash asosida ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, tijorat banki uchun to'lov riski har bir xalqaro hisob-kitob shaklida bir-biridan farq qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalari, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. Sof to'lovlar.
2. Hujjatlashtirilgan to'lovlar.

Bunda turkumlash uchun mezon bo'lib, to'lov shartlari hisoblanadi. Masalan, sof to'lovlar uchun uch to'lov sharti xos:

a) tovarlar summasining ma'lum qismini oldindan to'lash;

b) tovarlar summasini tovarni qabul qilib olgandan so'ng to'lash;

v) ochiq hisob varaqlari bo'yicha hisoblashish.

Ushbu uchala shartdan kamida bittasi bajariladigan to'lov shakli sof to'lov hisoblanadi. Shu boisdan ham, sof to'lovlarga to'lov

topshiriqnomalari va cheklar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar kiritiladi.

To'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarda import summasi tovar qabul qilib olingandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda importyor birinchi navbatda tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni oladi. Undan keyin esa, tovarlar bilan bog'liq hujjatlar orqali tovarlarni portdan yoki omborxonadan oladi. Importyor tovarni sifatini haqiqatda tekshirgandan keyin to'lov topshiriqnomasi yozadi. Demak, tijorat banki uchun mazkur hisob-kitob shaklida to'lov riski mavjud emas. Bundan tashqari, ushbu to'lov shakli importyor uchun qulay bo'lib, eksportyorga to'lov riskini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda to'lov riski muammosining chuqurlashishi debitor qarzdorlik summasining oshishiga va mamlakat eksport tushumini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat esa, o'z navbatida, milliy valyutaning almashuv kursiga va eksportyorlarning to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qiladi.

Xalqaro savdoni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hisob-kitob munosabatlarida tijorat banklarining orderli cheklaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Respublikamiz bank amaliyotida esa, hozirgi vaqtda banklarning orderli cheklari muomalasi mavjud emas.

Tijorat banklarining orderli cheklari bilan amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida bank chekni mijozning yozma ko'rsatmasiga asosan yozadi. Ammo bank tomonidan chek summasi alohida balans hisobvarag'ida deponentlanmaydi. Demak, bunda bank uchun to'lov riski mavjud emas. Lekin, xalqaro amaliyot tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, orderli cheklarning asosiy qismi, importyorlarning joriy valyuta mablag'lari etmay qolgan sharoitda, tijorat banklarining kreditlari hisobidan to'lanmoqda. Demak, orderli cheklar tijorat banklari uchun to'lov riskini yuzaga keltirmasada, ular uchun yuqori daromad olish manbai bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan davlatlarning xo'jalik amaliyotida ochiq hisob varaqlari bo'yicha hisoblashishdan keng ko'lamda foydalaniladi. Bunda, odatda, eksportyorning bankida mazkur tashqi savdo shartnomasini moliyalashtirish uchun alohida balans hisob varag'i ochiladi. Tashqi savdo shartnomasida har bir partiya tovarni jo'natish vaqti aniq ko'rsatiladi. Importyor har bir partiya tovarning summasini tovar jo'natilgunga qadar eksportyorning bankida ochilgan balans hisob varag'iga o'tkazishi lozim. Eksportyor tovarni jo'natgandan so'ng,

uning banki to'lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisob varag'iga o'tkazadi.

Ochiq hisob varaqlari bo'yicha hisoblashishda tijorat banki uchun to'lov riski mavjud emas, balki eksportyor uchun to'lov riski mavjud. Shuning uchun ham, mazkur to'lov shakli bir-birini yaxshi biladigan, odatda, ko'p yillardan buyon hamkorlikda ishlab kelayotgan korxonalar o'rtasida keng qo'llaniladi.

Xalqaro hisob – kitoblarni yuzaga kelishi va rivojlanishi tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning milliy va jaxon miqyosida rivojlanishi bilan bog'liq. Xalqaro hisob-kitoblar tovar va xizmatlar tashqi savdosidagi hisoblashuvlar, davlatlar o'rtasida kredit va kapital xarakati bilan operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari va talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishi tushuniladi. Ushbu hisoblashuvlar bir tomondan xalqaro xujjatlarga muvofiq to'lovlarni o'tkazishning umumiy shartlari va qoidalarini, ikkinchidan, shu to'lovlarni amalga oshiruvchi banklarning kundalik faoliyatini o'z ichiga oladi. Xalqaro munosabatlarda pul to'lovlari naqd pulsiz shaklda bank schetlari orqali o'tkaziladi. Shu tufayli xalqaro hisob-kitoblarda bonklarga muxim e'tibor beriladi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun banklar o'zlarining xorijdagi bo'limlari va xorijiy banklardagi korrespondentlik aloqalaridan foydalanishadi. Buning uchun «loro» schyoti (bankdagi xorijiy bankning scheti) va «nostra» (bankning xorijiy banklardagi scheti) schetlari ochiladi. Banklar o'rtasida korrespondentlik munosabatlari kelishuv asosida o'rnatilib, unda hisob-kitob tarkibi, komissiya miqdori, sarflangan mablag'larni qoplash usullari belgilab qo'yiladi.

Tarixan xalqaro hisob-kitoblarda dunyoning etakchi davlatlarining milliy kredit pullaridan foydalanib kelingan.birinchi jaxon urushigacha jaxondagi 80% pul hisoblashuvlari funt sterling birligidagi o'tkazma veksellar (tratta) asosida tashkil etilgan. Keyinchalik uning urushni AQSh dollari, CDR va EKYular xalqaro pul birliklari va ularning o'rniga 1999 yildan joriy etilgan yevro egalladi. Xalqaro hisoblashuvlarda oltinning to'lov vazifasi sifatida ishtiroki yuqori salmoqqa ega bo'lmay, faqat favqulotda xolatlardagina xalqaro majburiyatlarda

undan foydalanish kuchaygan. Ammo oltindan samarali to'lov vositasi smfatida foydalanish o'z axamiyatini xech qachon yo'qotmagan.

Xalqaro hisob-kitoblarning xolati quymdagi bir qator omillarga bog'liq:

- Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar
- Mamlakatdagi valyuta qonunchiligi
- Xalqaro savdo qoidalari
- Banklar amaliyoti
- Tashqi savdo kontraktlari va kredit kelishuvidagi shartlar

6.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari

Xalqaro savdo bitimlari yuzasidan o'tkaziladigan pul hisoblashuvlari muxim va murakkab jarayon hisoblanadi. Pul hisob-kitoblarining shakli va shartlari to'lovlarni tezligi va to'lik amalga oshirilishini kafolatlaydi, pul o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar summasiga ta'sir etadi. Shuning uchun tashqi savdo ishtirokchilari to'lov shartlari bo'yicha oldindan kelishib, so'ngra uni bitimga kiritishadi.

Bitimning valyuta, moliya va to'lov shartlarini ishlab chiqishda eksport qiluvchi va import qiluvchi tomonlarning manfaatlari bir-biriga zid bo'ladi. Chunki eksport qiluvchi tomon valyuta tez va to'liq summada olishni ko'zlasa import qiluvchilar valyuta to'lovlarini tovarni olib uni motishgacha kechiktirishga xarakat qiladilar.

Xukumatlararo kelishuvlarda hisob-kitoblarning umumiy tartib – qoidalari belgilansa, tashqi savdo bitimlarida shartlar aniq ko'rsatiladi. Ularga asosan quyidagilar kiradi:

- narx qaysi valyutada belgilanishi;
- narx qaysi valyutada amalga oshirilishi;
- to'lov shartlari;
- to'lov vositalari;
- hisob-kitob shakli;
- qaysi banklar hisob-kitobni amalga oshirishi

Ushbu elementlarni ko'rib chiqamiz.

Narx valyutasi va to'lov valyutasi bitimning valyuta tushumi jixatdan samaradorligini belgilaydi.

Eksport – import bitimlarining narxi tovarni etkazib beruvchidan xaridorgacha xarajatlarni o'zgarishi tufayli dinamik o'zgarib boradi.

Tovar narxini belgilashning valyuta usuli mavjud:

1. Bitimni amal qilishi va ijro etilishi davomida o'zgarmaydigan qat'iy ijro. Bu usul dunyo bozorlarida narx pasayishi yuz berayotgan sharoitlarda qo'llaniladi.

2. Bitimni imzolash paytida narxni belgilash tamoyili ko'rsatiladi, narx esa bitim ijrosi mobaynida qo'yiladi. Bu usuldan narxlar oshib borayotgan davrda ko'p foydalaniladi.

3. Bitim tuzish paytida narx qat'iy belgilanib, uning bozor narxi o'zgarishi bilan farqlanish chegarasi ko'rsatilib qo'yiladi. Masalan, bitim imzosi davomida biror narxlarning 10% ga ortishi bilan bitim narxi ham o'zgartirilishi nazarda tutiladi.

4. Xarajatlarni o'zgarishiga bog'liq ravishda belgilanadigan sirpanuvchi narx. Qurilish, buyurtma bo'yicha dastgox jixozlar tayyorlashda narxning yuqoridan chegaralanishi yoki ayrim xarajat moddalari bo'yicha narx o'zgarishini hisobga olish asosida amal qiladi.

5. Aralash shaklda narx belgilash. Narxning bir qismi qat'iy belgilansa, boshqa qismi sirpanuvchi usulda aniqlanadi.

Narx vositasi deganda bitim obyekti bo'lgan tovar narxining qaysi valyutada belgilanishi tushuniladi.

Tovar valyutasini belgilashda tovarning turi va narx belgilash usuli katta axamiyatga ega. Bundan tashqari, xukumatlararo kelishuv va xalqaro udumlar ham e'tiborga olinadi. Ba'zida tovar narxi ikki yoki undan ortiq valyutada hamda xalqaro pul birliklarida ifodalanishi mumkin.

To'lov valyutasi import qiluvchi yoki qarzdor o'z majburiyatlarini qaysi valyutada qoplashni ifoda etadi.

Valyuta kurslari beqaror bo'lgan paytlarda narxlar eng barqaror valyutada aniqlanib, to'lov esa import qiluvchining valyutasida o'rnatiladi. Agar narx valyutasi to'lov valyutasidan farq qilsa, u xolda bitimda birini ikkinchisiga o'tkazish qayta hisoblash kursi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur ikki valyutaning bir-biriga muvofmq kelmasligi valyuta kursini sug'urtalashning eng sodda usuli hisoblanadi. Agar narx valyutasining kursi (masalan, dollar) pasayib ketsa, to'lov valyutasi (o'zbek so'mi) summasi o'z-o'zidan mos ravishda kamayadi va aksincha. Narx valyutasi kursining pasayish riski eksport qiluvchi zimmasida bo'lsa, uning ko'tarilish riski import qiluvchida bo'ladi.

To‘lov shartlari. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tuziladigan bitimlarning muxim elementlaridan bo‘lgan to‘lov shartlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– naqd pul asosida to‘lov;

– kredit berish asosida to‘lov;

– naqd pul bilan to‘lashni ham mumkin bo‘lgan optsionli kredit asosida to‘lov.

Xalqaro hisoblashuvlarda to‘lovni naqd pulda o‘tkazish deganda to‘lovni tovarlarni sotib oluvchi etkazib berilgandan (jo‘natgandan) so‘ng yoki bitimga muvofiq tovarlar junatilganini (olinganini) tasdiqlovchi xujjatlar qo‘lga tegishi bilan amalga oshirish tushuniladi. Zamonaviy sharoitda tovarlar to‘lov xujjatlaridan ilgari xaridorga etib kelishi natijasida import qiluvchi ularni pulini to‘lamasdan avval ishonch (trast) tilxati yoki bank kafolatiga muvofmq olishi mumkin. Shunday qilib, amaliyotda ko‘pincha to‘lov tovarlar belgilangan manzilga etkazilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Bundan to‘lovning tovar etib kelganligini tasdiqlov chi xabarnoma olingandan so‘ng o‘tkaziladigan xolat mustasno. Kontragentlarning kelishuviga botliq ravishda import qiluvchining to‘lovni belgilangan bosqichlarda o‘tkazish an’anasi ham mavjud: jo‘natish portida tovarlarni yuklash tugaganligini tasdiqlovchi xabar olinishi bilan; tovarlar xujjatlari to‘plami (faktura, konossament, sug‘urta polisi va boshqalar) olingandan so‘ng; tovarni ko‘rsatilgan manzilga qabul qilib olgandan so‘ng. Tovarning turiga qarab hisob-kitobning aralash usuli ham tanlanishi mumkin: qisman – tovar xujjatlari olinishi bilan; to‘liq – tovarlar olingandan so‘ng.

Xalqaro hisoblashuvlar savdoda ishtirok etayotgan sheriklarning bir-biri bilan valyuta ayirboshlashi va kredit munosabatlari natijasida yanada murakkablashadi. Xalqaro valyuta – kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o‘zaro bog‘liqligi ham shunda namoyon bo‘ladi. Sotilayotgan tovarning turiga qarab (masalan, mashina va xokazolar), sotuvchi bozoridagi raqobatning kuchayishi va ularni kredit yordamida o‘z maxsulotini o‘tkazishga xarakat qilishi bois, tashqi savdo operatsiyalarida tijorat kreditidan foydalanish kengaymoqda. Tijrat krediti sotuvchi tomonidan tovarni motib oluvchiga 5-8 yil, ba’zi xollarda undan ham uzoq muddatga beriladi. Tijorat krediti yordamida tashqi savdo operatsiyalarini o‘tkazishda import qiluvchi olingan kreditni qoplash uchun qarz majburiyatini oddiy veksel shaklida taqdim etadi yoki eksport qiluvchi tomonidan chiqarilgan o‘tkazma

veksel – trattalar aktseptlaydi (to'lovni bajarishga yozma rozilik beradi).

Ko'pincha ba'zi eksport qiluvchilar to'lovni kredit shaklida emas, balki naqd amalga oshirgani uchun chegirmalar berish xuquqidan foydalanishadi. Shuning uchun import qiluvchining to'lovni kechiktirishi mazkur imtiyozdan maxrum qiladi.

Hisob-kitoblar turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin: veksellar, to'lov topshirig'i, bank o'tkazmasi (pochta va telegraf orqali), cheklar, plastik akrtochkalar.

Xalqaro hisob-kitobning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

* to'lov topshiriqnomasi (bank o'tkazmasi)
* chek;
* hujjatlashtirilgan akkreditiv;
* inkasso.

Xalqaro hisoblashuvlarning aloxida xususiyatlari:

1. Import qiluvchi va eksport qiluvchilar, ularning banklari tashqi savdo bitimi bilan bog'liq munosabatlarni urnatadilar. Bu munosabatlar asosida tovarning va to'lov xujjatlarini rasmiylashtirish, uzatish, qayta ishlash, hamda to'lovni amalga oshirish yotadi.

2. Xalqaro hisob-kitob milliy me'yoriy xuquqiy xujjatlar, bundan tashqari xalqaro bank tartib qoidalari bilan tartibga solinadi.

3. Xalqaro hisob-kitoblar – unifikatsiyalash obyekti bo'lib, bunga xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi, bank operatsiyalarining universallashuvi jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Xalqaro hisob-kitoblar qoidaga ko'ra xujjatli xususiyatga ega, ya'ni ular moliya va tijorat xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy xujjatlarga oddiy va o'tkazma veksel, cheklar, to'lov tilxatlari kiradi. Tijorat xujjatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) schet faktura; b) tovarni yuklanganligi yoki jo'natilganligini tasdiqlovchi xujjatlar (konosementlar, temir yo'l, avtomobil va xavo transporti, yuk xati, pochta kvitantsiyasi, aralash tashishning transport xujjatlari); v) sug'urta xujjatlari; g) boshqa xujjatlar – tovarni ishlab chiqishini tasdiqlovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, chegaradan o'tganlik xujjatlari, bojxona xujjatlari va boshqallar.

5. Xalqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda o'tkaziladi. Shuning uchun ular valyuta operatsiyalariga chambarchas bog'liq.

6. Mazkur hisoblashuvlarda kafolatlashning umumiy qoidalariga rioya etiladi. Unga muvofiq kafolat matnida quyidagilar bo'lishi lozim:

1) kafolat beruvchiga xaq to'lanmagan bo'lsa kafolat summasi undirilmaydi;

2) bitimning tavsifi;

3) pretenziya qilish uchun zarur bo'lgan xujjatlar;

4) kafolat muddati tugaydigan sana va kafolat bergan bankka benifetsiar tomonidan xujjatlarni taqdim etish sanasi;

5) kafodat muddati tugagandan so'ng qaytarilishi lozim.

Xalqaro hisob-kitob shakllariga ta'sir etuvchi omillar:

1. tashqi savdo obyekti hisoblangan tovar turi;
2. kredit kelishuvining mavjudligi;
3. tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha kontragentlarning to'lov qobiliyati va obro'-e'tibori;
4. dunyo bozorida mazkur tovarga bo'lgan talab va taklif.

Bitimda xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari va shakllari asosida ko'rsatilishi lozim.

Xalqaro hisob-kitoblar murakkab xukukiy munosabatlar bulib, eksport-import opeartsiyalari, tijorat tusiga ega bulmagan tulovlar – sayyoxlik, sport, fukarolar tomonidan xorijiy davlatlarga pul utkazish-lar, xorijiy davlatlarda diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, uzga davlat xududida xarbiy kismlarni saklash xzamda kapitallar va kreditlarning xarakati buyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi masalalarni uz ichiga oladi.

Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan qabul qilingan xalqaro umum-lashtirilgan qoidalar xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishning usutvor, birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asosi hisoblanadi.

Tashki iktisodiy shartnomalarni tuzishda 1980 yilda ishlab chikilgan (Vena konventsiyasi) tovarlarni xalqaro sotish-sotib olish tugrisidagi BMT konventsiyasi asos bulib hisoblanadi. Ushbu xujjat tulovlarning umumiy shartlari va uni amalga oshirish tartibini uz ichiga oladi. Ushbu Konventsiya importerning tovar uchun tulov majburiyatini , tulov muddati va tulovni amalga oshirish joyi, tovarga tulovni amalga oshirmaslik okibatlari xar bir kechikkan davri uchun foiz hisobida jarima tulab berish, tomonlar urtasida kurilgan zararning taksimlanishini kurib chikadi.

Shuni ta'kidlash joizki, amaldagi konunchilikka kura Uzbekiston Respublikasi ishtirok etadigan xalqaro shartnomalar (Konventsiyalar) muhim axamiyat kasb etib, majburiy xarakterga ega. Xalqaro shartno-malarga bulgan ushbu tavsif O'zbekiston Respublikasining Konstitut-

siyasida keng yoritib berilgan: Agarda xalqaro shartnomalarda amaldagi konunchilikka nisbatan boshka koidalar belgilangan bulsa, unda xalqaro shartnomalarda kayd etilgan koidalar kullanilishi e'tirof etilgan. Shuningdek, tashki iktisodiy faolyaitga oid amaliyotlarni boshkarishda bir keng kamrovli bitimlar mavjud. Dastlab "Tovarlarni xalqaro soti-sotib olish tugrisida"gi Konun xamda "Tovalarni xalqaro sotish-sotib olish shartnomalarini tuzish tartibi tugrisida"gi Konunlardan iborat kabul kilingan Gaaga konventsiyasi 1964 yilda kabul kilingan. Ushbu konventsiyani nisbatan kam mamlakatlar imzolagani uchun amaliyotda u keng tarkalmadi. Gaaga konventsiyasi umumiy xarakterga ega bulib , unda xukukiy tizim institutlar, tamoyillar kurib chikilgan, Shuningdek yangi xalqaro iktisodiy tartibni urnatishda rivojlanayotgan davlatlar manfaatlariga e'tibor karatilgan. Gaaga konventsiyasi asosida 1980 yilda Vena konventsiyasi kabul kilingan. Uzbekiston Respublikasi agarda shartnomaga kura tomonlarning biri Uzbekiston Respublikasi xujalik yurituvchi subyekti hisoblansa, tovarlarni xalqaro sotish-sotib olish shartnomalaridavlat tomonidan nazorat kilinadi.

Tashki savdo shartnomalarining tulov shartlari 1994 yilda kabul kilingan xukukni unifakatsiyalash instituti (UNIDRUA)ning xujjati hisoblangan "Xalqaro tijorat shartnomalari tamoyillari"da keng yoritilgan.

Tashki iktisodiy amaliyot davomida xalqaro udumlarga asoslanadi. Xalqaro savdo faoliyati xamkorlarining uzaro tushunmovchiliklariga chek kuyish maksadida Xalqaro savdo Palatasi 1953 yilda "Inkoterms" tuplamini ishlab chikdi. Vakt utishi bilan ushbu tuplamga uzgartirish kiritilib kayta nashrdan chikarildi. Ushbu xujjat fakultativ xarakterga ega bulib, aynan shu xususiyatga ega ekanligini xujjatning 22-bandid kuzatish mumkin. "Inkoterms"ning 1990 yildagi nashrga asosida uz faoliyatini yuritib kelayotgan tijoratchilar aynan ushbu xujjat bilan uz tijorat faoliyatlarini boshkaradi. Bazis shartlarning ijro etilishi tomondar urtasida shartnomaga oid xukuklarning teng taksimlanishini ta'minlaydi.

Tijorat xujjatlarining eng asosiysi bulib hisob-faktura hisoblanadi. Ushbu xujjatda tulanishi kerak bulgan summa, tovarning tulik va anik nomi kursatilgan bulib, importyorga takdim etiladi. Transport xujjatlari hisob-faktura uchun asos hisoblanadi. Transport xujjatlariga quyidagilar kiradi:

- konosament (dengiz va daryo yuli uchun) – ushbu xujjat tovarga egalik kilish xukukini beradi;
- yuk xati (temir yul, avto-, avianakladnoylar);
- kabul kilish-topshirish dalolatnomalari;
- pochta kvitantsiyalari;
- guvoxnomalar.

Sug'urta polislari va sugurta sertifikatlari yukning klib tushishini sugurtalash shartnomasi mavjudligidan guvoxlik beradi. Shartnoma shartlarida albatta, eksporterning takdim etadigan xujjatlar ruyxati kayd etilishi kerak.

6.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqaro hisob-kitoblarning 4 shakli mavjud:

1. To'lov topshiriqnomasi.
2. Chek.
3. Hujjatlashtirilgan akkreditiv.
4. Inkasso.

To'lov topshiriqnomasida to'lov kafolatlanmaganligi sababli ushbu shakl xalqaro hisob-kitoblarda keng qo'llanilmaydi.

To'loq topshiriqnomasi yoki bank uzatmasi vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Eksportyor va imporyotr o'rtasida tashqi savdo shartnomasi imzolanadi.
2. Eksporter tovarlarni jo'natadi.
3. Eksportyor importyorga tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni jo'natadi.
4. Importyor tovar hujjatlarini oladi va ular orqali tovarlarni qabul qilib oladi va tekshiradi. Agar tovarlar shartnoma shartlariga mos holda jo'natilgan bo'lsa, u holda importyor o'z bankiga to'lov topshiriqnomasi yozadi.
5. Importyorning banki to'lov topshiriqnomasiga asosan to'lovni amalga oshiradi.
6. Importyorning banki eksportyorning bankini to'lov amalga oshirilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

7. Eksportyorning banki eksport tushumini eksportyorning joriy hisobraqamiga o'tkazadi.

8. Eksportyorning banki eksportyorga joriy hisobraqamidan ko'chirma beradi.

Xalqaro savdo amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlar va hujjatli inkasso vositasidagi hisob-kitoblarning salmog'i boshka hisob-kitob shakllariga nisbatan sezilarli darajada yukoridir. Buning asosiy sababibo'lib, akkreditivlarda to'lovning kafolatlanganligi va hujjatli inkassoda tovar hujjatlarini to'lov amalga oshirilgandan so'ng berilishidir. Ushbu to'lov sharti importyorni to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishga undaydi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivda ham, hujjatli inkassoda ham to'lovning "hujjatlar to'lovga qarshi" sharti qo'llaniladi.

Mamlakatimiz xo'jalik va bank amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning sof inkasso shakli mavjud emas. Ushbu shaklning mavjud emasligi respublikamizda tijorat veksellari muomalasining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Respublikamizda banklari tomonidan import to'lovi bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi ta'minlangan akkreditivlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bunda akkreditiv summasi mijozning joriy hisobraqamidan olinib. Alohida hisobraqamda deponent qilinadi. Buning natijasida xo'jalik subyektlariga tegishli pul mablag'larining ma'lum qismi ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib qolmoqda.

Quyididagi shakldan kurinadiki, xujjatlashtirilgan akkreditivlarda tovarlar bilan boglik xujjatlar importyorga fakat tulov amalga oshirilgandan keyin beriladi. Bundan tashkari, importyorning banki tulov uchun kafil hisoblanadi. Shu sababli, ta'minlanmagan xujjatlashtirilgan akkreditivlar eksportyorlar uchun xalqaro hisob-kitoblarning kulay shakli hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarning ta'minlangan akkreditiv shaklidan keng foydalanialdi. Buning sababi shundaki, ushbu davlatlar xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori riskli zona sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, ushbu mamlakatlar bilan bo'ladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ular to'lovlar kafolatlangan va to'lov kafolatini ta'minlash imkoniyati yuqori bo'lgan xalqaro

hisob-kitob shakllarini qo'llaydilar. Hujjatli akkreditiv xalqaro hisob-kitoblarning ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan shakli hisoblanadi.



6.1-rasm. **Ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**[35]

Bu yerda:

1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;

2-importyor o'zining bankiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochish to'g'risida ariza beradi;

3-importyorning banki eksportyorning bankiga, akkreditiv ochilganligi to'g'risida xabardor qilish uchun, akkreditiv telegrammasini jo'natadi;

4-eksportyorning banki eksportyorni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi;

5-eksportyor tovarlarni importyorga jo'natadi;

6-eksportyor tovarlar bilan bog'liq barcha hujjatlarni o'zining bankiga jo'natadi;

7-eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga jo'natish uchun qabul qilib oladi;

8- eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga to'lov uchun jo'natadi;

[35] Mualliflarning shaxsiy ishlanmasi.

9-importyorning banki akkreditiv summasini deponentlangan mablag‘ hisobidan to‘lab beradi;

10-importyorning banki hujjatlarni importyorga beradi;

11-importyorning banki eksportyorning bankini 10-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;

12-eksportyorning banki akkreditiv summasini eksportyorning joriy hisobraqamiga o‘tkazadi;

13-eksportyorning banki eksportyorning joriy hisobraqamidan ko‘chirma beradi.



6.2-rasm. **Hujjatli inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**[36]

Bu yerda:

1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;

2-eksportyor tovarlarni importyorga jo‘natadi;

3-eksportyor tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarni importyorga jo‘natadi;

4-eksportyorning banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni qabul qilib oladi;

5-eksportyorning banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni importyorning bankiga jo‘natadi;

6-importyorning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi;

[36] Mualliflarning shaxsiy ishlanmasi.

7-importyorning banki hujjatlarni kelib tushganligi to‘g‘risida importyorga xabar beradi;

8-importyor to‘lovni amalga oshirish uchun to‘lov topshiriqnomasi yozadi;

9-importyorning banki mijozning to‘lov topshiriqnomasiga asosan to‘lovni amalga oshiradi;

10-importyorning banki eksportyorning bankini 9-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi;

11-eksportyorning banki to‘lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisobraqamiga o‘tkazadi;

12-eksportyorning banki eksportyorning joriy hisobraqamidan ko‘chirma beradi.

6.2-rasmdan ko‘rinadiki, hujjatli inkassoda bank tovarlarning hujjatlarini importyor to‘lovni amalga oshirgandan keyingina unga beradi. Bu esa, importyorni to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishga majbur qiladi. Chunki to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmasa, importyor hujjatlarni ola olmaydi. Demak, u tovarlarni omborxonadan yoki temir yo‘l bekatidan olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Buning natijasida tovarlarni bu joylardan olib chiqib ketish kechikadi va pirovard natijada importyor katta miqdorda jarima to‘lashga majbur bo‘ladi. Chunki Bojxona qo‘mitasiga tegishli omborxonalar tovarlar saqlangan har bir kun uchun katta miqdorda haq oladi, temir yo‘l bekatlarining jarima stavkasi ham sezilarli darajada yuqoridir.

Xujjatlashtirilgan akkreditivlarning ta’minlanganlik shaklida to‘lov summasi alohida hisobraqamda deponent qilinadi yoki oldindan eksportyorning bankiga etkazib beriladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, hujjatli akkreditivlarning ta’minlanmaganlik shaklidan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Bunda akkreditiv summasi alohida balans hisobraqamida deponent qilinmaydi, to‘lov uchun kafillikni esa, importyorning banki o‘z zimmasiga oladi.

Inkassoning ikki turi mavjud bulib, ular sof inkasso va xujjatli inkasso. Sof inkassoda faqat to‘lov hujjatlari inkassoga qabul qilinadi. Hujjatli inkassoda esa, faqat tijorat hujjatlari yoki tijorat hujjatlari to‘lov hujjatlari bilan birgalikda inkassoga qabul qilinadi.

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida, eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish jarayonida, tijorat banklarining orderli cheklaridan foydalanilmaydi. Bu esa, xalqaro hisob-kitoblarning samaradorlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



6.3-rasm. **Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**[37]

Bu yerda:

1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;

2-importyor o'zining bankiga chek yozish to'g'risida yozma ko'rsatma beradi;

3-importyorning banki orderli chekni yozadi;

4-bank chekni importyorga beradi;

5-eksportyor tovarlarni importyorga jo'natadi;

6-eksportyor tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni importyorga jo'natadi;

7-importyor chekni eksportyorga uzutadi;

8-eksportyor chekni o'zining bankiga uzatadi;

9-eksportyorning banki chekni qabul qilib oladi;

10-eksportyorning banki chekni importyorning bankiga jo'natadi;

11-importyorning banki chek bo'yicha to'lovni amalga oshiradi;

12-importyorning banki eksportyorning bankini 11-operatsiya bajarilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi;

[37] Mualliflarning shaxsiy ishlanmasi.

13-eksportyorning banki to'lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisobraqamiga o'tkazadi;

14-eksportyorning joriy hisobraqamidan ko'chirma berish.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotida banklarning orderli cheklaridan eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish jarayonida keng ko'lamda foydalaniladi.

Banklarning orderli cheklarining muhim afzalilklaridan biir shundaki, ularni indossament vositasida uchinchi shaxsga uzatish mumkin. Demak, orderli cheklar vositasida korxonalar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni keskin qisqartirish mumkin.

Sof inkassoning mavjud emasligi naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini yanada oshirishga to'sqinlik qiladi. Chunki tijorat veksellari indossament orqali boshqa subyektlarga uzatilishi natijasida, birinchidan, naqd pulsiz to'lovlar hajmini oshiradi, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish imkonini beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to'lov talabnomasi shakli bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tabiatiga mos kelmaydi. Buning sababi shundaki, to'lov talabnomasi orqali to'lovi undirilmasdan jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning summalari to'lanadi. Aslida to'lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanishi va unga ma'lum foizda qo'shimcha to'lov to'lanishi kerak. Yoki to'lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar summasiga tijorat vekseli yozilishi kerak. Respublikamiz amaliyotida esa, to'lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanmaydi.

To'lov talabnomasidan foydalanish borasidagi dolzarb muammolardan biri to'lovni solishtirish dalolatnomasi asosida o'z vaqtida undirish muammosi hisoblanadi. Muammoning mohiyati shundaki, ayrim fermer xo'jaiklari xususiy firmalardan tovarlar sotib olganlar. To'lovni undirishda ushbu firmalarning ko'pchiligini yopilib ketganligi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimiz amaliyotida to'lovlarni amalga oshirishning maqsadli ketma-ketligi qo'llanilmoqda. Ushbu ketma-ketlikda to'lovlarni undirishda ustuvorlik Davlat byudjeti oldidagi qarzdorlikni to'lashga qaratiladi. Bunda soliq to'lovlarini keyingi davrlar uchun undirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblar nima?
2. Xalqaro hisob-kitoblarning qanday shartlari mavjud?
3. To'lov topshiriqnomalarining qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
4. Cheklarning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
5. Akkreditivning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
6. Inkassoning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
7. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning qanday shakllari bor?
8. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning qanday turlari bor?

Test savollari

1. O'zbekiston hukumati tomonidan XVF Nizomining VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlar qachon qabul qilingan:

A. 2007 yil, iyul
B. 1993 yil, may
C. 2003 yil, dekabr
D. 2003 yil, oktyabr

2. O'zbekiston hukumati tomonidan XVF Nizomining VIII-moddasining nechta bo'limi bo'yicha majburiyatlar qabul qilingan?

A. 5
B. 3
C. 7
D. 10

3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

A. 1995 yil, dekabr
B. 1993 yil, may
C. 1996 yil, aprel
D. 2003 yil, dekabr

4. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va udumlar qachon ishlab chiqilgan?

A. 1930 yil
B. 1934 yil
C. 1956 yil
D. 1970 yil

5. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni qachon yangi tahrirda qabul qilingan?

A. 1993 yil, may
B. 1995 yil, dekabr
C. 1996 yil, aprel
D. 2003 yil, dekabr

6. Varrant nima?

A. Yuk xati
B. Invoys

C. Sug‘urta polisi

D. Daryo konosamenti

7. Quyidagi valyutalardan qaysi biri “xalqaro rezerv valyuta” maqomiga ega emas?

A. Yaponiya ieni

B. AQSh dollari

C. Evro

D. Shveytsariya franki

8. Egri kotirovkaga ega bo‘lgan valyutani ko‘rsating.

A. Evro

B. Kanada dollari

C. Funt sterling

D. Yaponiya ieni

9. Quyidagi valyuta operatsiyalaridan qaysi biri bankning “Nostro” vakillik hisobraqami qoldig‘ining kamayishiga sabab bo‘ladi?

A. Importni to‘lash

B. Mahsulotlarni eksport qilish

C. Banklararo depozit joylashtirish

D. Banklararo kredit olish

10. Banklararo vakillik munosabatlari o‘rnatishning nechanchi bosqichida maxfiy kodlar o‘zaro almashinadi?

A. 2

B. 1

C. 4

D. 3

11. Quyidagi operatsiyalarning qaysi birida O‘zbekiston banklarining “Nostro” vakillik hisobraqami kreditlanadi?

A. Mahsulotlarni eksport qilish

B. Importni to‘lash

C. Banklararo kredit olish

D. Pul o‘tkazmalarini qabul qilish

12. Valyuta bitimi tuzilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasini ko‘rsating.

A. Valyuta optsioni

B. Forvard

C. Spot

D. Valyuta fyuchersi

13. Konversion operatsiyalarda AQSh dollarining spot kursi verguldan keyin nechta raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi?

A. 2
B. 1
C. 4
D. 3

14. Konversion operatsiyalarda yevroning spot kursi verguldan keyin nechta raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi?

A. 3
B. 1
C. 2
D. 4

15. Konversion operatsiyalarda Yaponiya ienining spot kursi verguldan keyin nechta raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi?

A. 3
B. 1
C. 2
D. 4

16. Konversion operatsiyalarda O'zbek so'mining spot kursi verguldan keyin nechta raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi?

A. 1
B. 2
C. 3
D. 4

17. Valyutalashtirish sanasi nima?

A. Spot bitimi tuzilgan kun
B. Spot operatsiyasini amalga oshirishning so'nggi kuni
C. Forvard bitimi tuzilgan kun
D. Muddatli valyuta shartnomalari qayta baholanadigan kun

18. Valyutalarni sotish va sotib olish kursi o'rtasidagi farq nima deb ataladi?

A. Marja
B. Spred
C. Arbitraj
D. Senoraj

19. Forvard kursi bilan spot kursi o'rtasidagi farq darajasi qaysi omilga bog'liq?

A. Oldi-sotdi qilinayotgan

B. Forvard shartnomasining muddatiga
C. Foiz stavkalari o'rtasidagi farqqa valyuta turiga
D. Bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasiga

20. Pips nima?
A. Forvard kursi va spot kursi o'rtasidagi farq
B. Ustama va diskontning o'lchov birligi
C. Bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi
D. Baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi

21. Valyuta operatsiyalarining qaysi biri valyuta zaxiralarini valyuta riskidan to'liq himoya qilish imkonini beradi?
A. Valyuta optsioni
B. Forvard
C. Spot
D. Valyuta fyuchersi

22. Muddati tugamagan forvard shartnomalaridan ko'rilgan zararlar nima deb ataladi?
A. Joriy zarar
B. Kelgusi davr xarajatlari
C. Realizatsiya qilinmagan zarar
D. Realizatsiya qilingan zarar

23. Realizatsiya qilinmagan zararlar nechta holatti tijorat bankining balansidan chiqariladi?
A. 1
B. 2
C. 3
D. 4

24. Quyidagi valyuta operatsiyalarining qaysi birida realizatsiya qilinmagan foyda yuzaga kelmaydi?
A. Valyuta optsioni
B. Forvard
C. Spot
D. Valyuta fyuchersi

25. Bir yilgacha bo'lgan standart muddatlarga tuziladigan valyuta bitimini ko'rsating.
A. Valyuta fyuchersi
B. Spot
C. Valyuta optsioni
D. Forvard

26. Tijorat banklari forvard operatsiyalaridan necha xil usulda daromad oladi?

A. 3
B. 1
C. 2
D. 4

27. Valyuta optsionining necha xil standarti mavjud?

A. 4
B. 1
C. 3
D. 2

28. Optsionning ichki qiymati-bu:

A. Koll optsion va put optsion baholari o'rtasidagi farq
B. Bitim valyutasidagi kreditning bahosi bilan baholovchi valyutadagi depozitning bahosi o'rtasidagi farq
C. Bazaviy aktivning bozor bahosi bilan optsionning ijro bahosi o'rtasidagi farq
D. Optsionning vaqtinchalik qiymati

29. Valyuta optsionining necha turi mavjud?

A. 2
B. 6
C. 4
D. 6

30. Valyuta optsionlarini baholashinng Garman-Kolxagen modelida nechta omil hisobga olingan?

A. 5
B. 3
C. 7
D. 9

31. Vertikal spred nima?

A. Bir xil ijro bahosiga ega bo'lgan, ammo muddati turli vaqtda tugaydigan ikki optsiion
B. Muddati bir vaqtda tugaydigan ikki optsion
C. Sotib olinadigan optsionlar soni sotiladigan optsionlar sonidan farq qiladi
D. Koll optsion va put optsion baholari o'rtasidagi farq

32. Gorizontal spred nima?

A. Koll optsion va put optsion baholari o'rtasidagi farq

B. Muddati bir vaqtda tugaydigan ikki optsion

C. Sotib olinadigan optsionlar soni sotiladigan optsionlar sonidan farq qiladi

D. Bir xil ijro bahosiga ega bo'lgan, ammo muddati turli vaqtda tugaydigan ikki optsiion

33. Spredning qaysi turi vertikal va orizontal spredlarning uyg'unligidan tashkil topgan?

A. Kombinatsion spred

B. Proportsional spred

C. Diagonal spred

D. Kalendarli spred

34. Quyidagi valyuta bitimlaridan qaysi biri standart muddatli birja bitimi hisoblanadi?

A. Valyuta optsioni

B. Valyuta fyuchersi

C. Forvard

D. Svop

35. Qaysi valyuta bitimida hisob-kitoblar bir yilda to'rt marta, ya'ni mart, iyun, sentyabr va dekabrda o'tkaziladi?

A. Svop

B. Valyuta optsioni

C. Forvard

D. Valyuta fyuchersi

36. Fyuchers shartnomasining muddati:

A. 1 yildan 3 yilgacha

B. 1 oydan 3 oygacha

C. 3 oydan 1 yilgacha

D. 3 yildan ortiq

37. Quyidagi valyuta operatsiyalarining qaysi birida depozitli marja qo'llaniladi?

A. Valyuta optsioni

B. Valyuta fyuchersi

C. Forvard

D. Svop

38. Depozitli marja bazaviy aktivning joriy bozor qiymatining necha foizini tashkil etadi?

A. 10-15%

B. 1-2%

C. 2-10%
D. 15 foizdan yuqori

39. Quyidagi valyuta bitimlarining qaysi birida variatsion marja qo'llaniladi?
A. Valyuta optsioni
B. Valyuta fyuchersi
C. Forvard
D. Svop

40. Fyuchers shartnomalarini xedjirlash koeffitsienti nechaga teng?
A. 0,50
B. 0,25
C. 1,0
D. 0,75

41. Fyuchers shartnomalarining yevro indeksi qachon joriy qilingan?
A. 2002 y.
B. 1999 y.
C. 2006 y.
D. 2003 y.

42. FINEKS fyuchers shartnomalari hajmi fyuchers shartnomalarining dollar indeksining necha marotabasiga teng?
A. 500
B. 200
C. 1000
D. 700

43. Fyuchers shartnomalarining dollar indeksini hisoblashda nechta bankning ma'lumotlaridan foydalaniladi?
A. 100
B. 500
C. 700
D. 1000

44. Spot va forvard bitimlari kombinatsiyasiga asoslangan valyuta bitimini ko'rsating.
A. Optsion
B. Fyuchers
C. Svop
D. Arbitraj

45. Standart svop nima?
A. Bitimning har ikkala sanasi spot sanasiga to‘g‘ri keladi
B. Yaqin valyutalashtirish sanasi –spot, uzog‘i-forvard
C. Ikki “autrayt” bitimi uyg‘unlashgan svop
D. Svopdagi har ikki operatsiya bitta bank bilan amalga oshiriladi
46. Bir kunlik svop nima?
A. Ikki “autrayt” bitimi uyg‘unlashgan svop
B. Yaqin valyutalashtirish sanasi –spot, uzog‘i-forvard
C. Bitimning har ikkala sanasi spot sanasiga to‘g‘ri keladi
D. Svopdagi har ikki operatsiya bitta bank bilan amalga oshiriladi
47. Forvardli svop nima?
A. Yaqin valyutalashtirish sanasi –spot, uzog‘i-forvard
B. Bitimning har ikkala sanasi spot sanasiga to‘g‘ri keladi
C. Ikki “autrayt” bitimi uyg‘unlashgan svop
D. Svopdagi har ikki operatsiya bitta bank bilan o‘tkaziladi
48. Sof svop nima?
A. Bitimning har ikkala sanasi spot sanasiga to‘g‘ri keladi
B. Ikki “autrayt” bitimi uyg‘unlashgan svop
C. Svopdagi har ikki operatsiya bitta bank bilan amalga oshiriladi
D. Yaqin valyutalashtirish sanasi –spot, uzog‘i-forvard
49. Standart valyuta-foizli svop necha turdagi pul oqimini o‘z ichga oladi?
A. 2
B. 3
C. 5
D. 7
50. Quyidagi valyuta operatsiyalaridan qaysi biri tijorat bankiga yuqori daromad keltirmaydi?
A. Forvard
B. Valyuta optsioni
C. Svop
D. Valyuta fyuchersi
51. Diskont siyosati nima?
A. Markaziy bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish
B. Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoki sotish

C. Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirishga asoslangan siyosat

D. Markaziy bank tomonidan hukumatning tashqiq arziga xizmat ko'rsatish siyosati

52. Valyuta interventsiyasi nima?

A. Markaziy bank tomonidan hukumatning tashqiq arziga xizmat ko'rsatish siyosati

B. Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirishga asoslangan siyosat

C. Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish

D. Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoki sotish

53. Markaziy bankning lombard siyosati-bu:

A. Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirishga asoslangan siyosat

B. Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoki sotish

C. Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish

D. Markaziy bank tomonidan hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatish siyosati

54. Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish:

A. Valyutalarni turli tarmoqlarga joylashtirish

B. Bir vaqtning o'zida bir nechta xorijiy valyutalarda zaxiralar tashkil qilish

C. Valyuta zaxiralarini "Nostro" vakillik hisobraqamlarida minimal bo'lishini ta'minlash

D. Faqat barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish

55. Markaziy bankning diskont stavkasiga ta'sir ko'rsatuvchi omilni ko'rsating.

A. Milliy valyutaning nominal almashuv kursi

B. Lombard stavkasining darajasi

C. Valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasi

D. Inflyatsiya darajasi

56. Valyuta interventsiyasi nima maqsadda o'tkaziladi?

A. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida

B. Milliy valyuta kursining keskin tebranishlariga barham berish maqsadida

C. Milliy valyutaning real almashuv kursiga ta'sir etish maqsadida

D. Milliy valyutaning nominal almashuv kursi va pariteti o'rtasida yuzaga kelgan farqni yo'qotish maqsadida

57. Devalvatsiyaning maqsadini ko'rsating.

A. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida

B. Milliy valyuta kursining keskin tebranishlariga barham berish maqsadida

C. Milliy valyutaning nominal almashuv kursi va pariteti o'rtasida yuzaga kelgan farqni yo'qotish

D. Milliy valyutaning real almashuv kursiga ta'sir etish maqsadida

58. Quyidagi tadbirlardan qaysi biri eksportni rag'batlantiradi?

A. Revalvatsiya

B. Devalvatsiya

C. Nullifikatsiya

D. Deflyatsiya

59. Quyidagi tadbirlardan qaysi biri importni rag'batlantiradi?

A. Deflyatsiya

B. Devalvatsiya

C. Nullifikatsiya

D. Revalvatsiya

60. Nullifikatsiya nima?

A. Milliy valyutaning oltin asosi

B. Yangi pulni ma'lum nisbatda eski pulga almashtirish

C. Milliy valyutaning muomalasini to'xtatish

D. Milliy valyutani xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlantirish

61. Senoraj nima?

A. Markaziy bankning sof foydasi

B. Naqd pulni emissiya qilishdan olinadigan daromad

C. Banklarning ssuda foizi shaklidagi daromadi

D. Valyutalarni sotib olish va sotish kursi o'rtasidagi farq.

62. O'zbekistonda valyuta interventsiyasi qaysi manba hisobidan amalga oshiriladi?

A. Tiklash va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari

B. Davlat byudjeti

C. Konsolidatsiya fondi
D. Markaziy bankning foydasi
63. Valyuta kursi nima?
A. Milliy valyutaning xarid qobiliyati
B. Milliy valyutaning xorijiy valyutada ifodalangan bahosi
C. Milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati
D. Milliy valyutaning erkin almashinadigan valyutalarga nisbatan bahosi
64. Valyuta pariteti nima?
A. Milliy valyutaning xorijiy valyutada ifodalangan bahosi
B. Milliy valyutaning erkin almashinadigan valyutalarga nisbatan bahosi
C. Milliy valyutaning xarid qobiliyati
D. Milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati
65. Mamlakatning Xalqaro valyuta fondidagi rezerv pozitsiyasi kvotaning necha foiziga teng.
A. 50%
B. 10%
C. 25%
D. 100%
66. Davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan belgilangan me'yoriy darajasini ko'rsating.
A. 30%
B. 60%
C. 70%
D. 100%
67. Markaziy bankning dilerlariga qo'yiladigan majburiy talab:
A. Valyuta zaxiralari tarkibini yangilab turish
B. Valyuta operatsiyalari daromadliligi barqaror bo'lishi lozim
C. "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi mablag'lar minimal bo'lishi lozim
D. Valyuta pozitsiyasi me'yoriy darajada bo'lishi lozim
68. Milliy valyutaning real almashuv kursining oshishi:
A. Importni qimmatlashishiga olib keladi
B. Eksportni qimmatlashishiga olib keladi
C. Xorijiy valyutalarga bo'lgan talabni oshiradi
D. Xorijiy valyutalar taklifini ko'paytiradi
69. Milliy valyutaning nominal almashuv kursining oshishi

A. Xorijiy valyutalar taklifini ko‘paytiradi
B. Eksportni qimmatlashishiga olib keladi
C. Xorijiy valyutalarga bo‘lgan talabni oshiradi
D. Importni qimmatlashishiga olib keladi

70. Valyuta riski-bu:
A. Kompaniyalarning valyuta operatsiyalaridan zarar ko‘rishi
B. Banklarning valyuta operatsiyalaridan zarar ko‘rishi
C. Valyuta kurslarining tebranishi natijasida zarar ko‘rish xavfi
D. Valyuta pozitsiyalarining o‘zaro mos kelmasligi natijasida zarar ko‘rish

71. Quyidagi omillardan qaysi biri valyuta riskiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi?
A. Spot operatsiyalarini sug‘urta qilib bo‘lmasligi
B. Xalqaro rezerv valyutalarning erkin suzish rejimiga ega ekanligi
C. Spekulyativ valyuta operatsiyalari hajmining katta ekanligi
D. Baknlarning ochiq valyuta pozitsiyalari hajmining katta ekanligi

72. Operatsion valyuta riski – bu:
A. Valyuta kursi o‘zgarishining kompaniyaning iqtisodiy holatiga ta’siri natijasida zarar ko‘rish xavfi
B. Xorijiy valyutadagi balans moddalarini milliy valyutaga qayta hisoblaganda zarar ko‘rish xavfi
C. Valyuta kursining pul oqimiga ta’siri natijasida zarar ko‘rish xavfi
D. Valyuta kurslarining tebranishi natijasida tovarlarni sotilmay qolish xavfi

73. Translyatsion valyuta riski – bu:
A. Valyuta kursi o‘zgarishining kompaniyaning iqtisodiy holatiga ta’siri natijasida zarar ko‘rish xavfi
B. Valyuta kursining pul oqimiga ta’siri natijasida zarar ko‘rish xavfi
C. Xorijiy valyutadagi balans moddalarini milliy valyutaga qayta hisoblaganda zarar ko‘rish xavfi
D. Valyuta kurslarining tebranishi natijasida tovarlarni sotilmay qolish xavfi

74. Iqtisodiy valyuta riski – bu:

A. Valyuta kurslarining tebranishi natijasida tovarlarni sotilmay qolish xavfi

B. Xorijiy valyutadagi balans moddalarini milliy valyutaga qayta hisoblaganda zarar ko'rish xavfi

C. Valyuta kursining pul oqimiga ta'siri natijasida zarar ko'rish xavfi

D. Valyuta kursi o'zgarishining kompaniyaning iqtisodiy holatiga ta'siri natijasida zarar ko'rish xavfi

75. Operatsion risk qachon kamayadi?

A. Ochiq valyuta pozitsiyasi hajmi qisqarganda

B. Qayta hisoblashda qo'llaniladigan valyuta barqaror bo'lsa

C. Milliy valyutaning kursi barqaror bo'lganda

D. To'lovlar va tushumlar ko'p sonli valyutalarda amalga oshirilsa

76. Bankning valyuta pozitsiyasi:

A. Xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning o'zaro nisbati

B. Xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarning o'zaro nisbati

C. Xorijiy valyutaladagi talablarning majburiyatlardan yuqori bo'lishi

D. Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning talablardan yuqori bo'lishi

77. Tijorat banklarining necha turdagi valyuta pozitsiyasi mavjud?

A. 4

B. 3

C. 2

D. 5

78. Tijorat banklari ochiq valyuta pozitsiyalarining necha turi mavjud?

A. 3

B. 2

C. 4

D. 5

79. Quyidagi operatsiyalarning qaysi biri bankning qisqa valyuta poztsiyasi hajmini qisqartirish imkonini beradi?

A. Xorijiy valyutada kreditlar berish

B. Xorijiy valyutani sotish

C. Xorijiy valyutani sotib olish

D. Xorijiy valyutada yozilgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish

80. Valyuta kurslarining o‘zgarishi munosabati bilan qayta baholanmaydigan bank aktivini ko‘rsating.

A. Asosiy vositalarni sotib olishga sarflangan valyuta mablag‘lari

B. Xorijiy valyutalarda berilgan kreditlar

C. Xorijiy valyutalarda qabul qilingan depozitlar

D. Qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga sarflangan xorijiy valyutadagi mablag‘lar

81. Quyidagi xorijiy valyutadagi passivlarning qaysi biri tarixiy qiymatda hisobga olinadi?

A. Qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan xorijiy valyutadagi mablag‘lar

B. Xorijiy valyutalarda qabul qilingan depozitlar

C. Ustav kapitaliga qo‘yilgan xorijiy valyutadagi mablag‘lar

D. “Vostro” vakillik hisobraqamidagi valyuta mablag‘lari

82. Tijorat banklarining devalvatsiya zaxirasi qaysi manba hisobidan shakllantirilishi lozim?

A. Joriy yilning sof foydasi

B. O‘tgan yilning taqsimlanmagan foydasi

C. Kreditlardan olingan foizli daromadlar

D. Joriy yilning operatsion daromadi

83. Valyuta riskini boshqarish strategiyasi nechta maqsadni ko‘zda tutadi?

A. 5

B. 1

C. 3

D. 7

84. Valyuta riskini miqdoriy baholash necha parametrni o‘z ichiga oladi?

A. 3

B. 1

C. 2

D. 4

85. Valyuta riskini boshqarishning qaysi usulida valyuta pozitsiyasini yopish talab etiladi?

A. Aktiv va passivlarni muddatlarini boshqarish usuli

B. Kompensatsiya usuli

C. Muddatli valyuta bitimlaridan foydalanish usuli

D. Delfi usuli

86. O'zbekiston tijorat banklarining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan belgilangan me'yoriy darajani ko'rsating.

A. 5%
B. 10%
C. 15%
D. 20%

87. O'zbekiston tijorat banklarining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan belgilangan me'yoriy darajani ko'rsating.

A. 10%
B. 5%
C. 20%
D. 15%

88. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan cheklov nimaga nisbatan o'rnatiladi?

A. Birinchi darajali kapitalga
B. Regulyativ kapitalga
C. Ikkinchi darajali kapitalga
D. Brutto aktivlarga

89. Valyuta riskini xedjirlashning eng arzon usulini ko'rsating.

A. Valyuta fyuchersidan foydalanish
B. Valyuta optsionidan foydalanish
C. Forvard bitimidan foydalanish
D. Aktivlar va passivlarning muddatlarini muvofiqlashtirish

90. Tijorat banki bitta valyutada bir vaqtning o'zida qisqa va uzun pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkinmi?

A. Mumkin
B. Mumkin emas
C. Ayrim holatlarda mumkin
D. Valyuta turiga bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin

91. Valyutani tartibga solish – bu:

A. Valyutalar va valyutaviy qimmatliklar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilovchi tizim

B. Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilovchi tizim

C. Valyutaviy qimmatliklar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilovchi tizim

D. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish tartibini belgilash

92. Valyuta operatsiyalarini tartibga solish printsipini ko'rsating.

A. Valyuta operatsiyalarining qonuniy asosga ega ekanligi

B. Xorijiy valyutadagi to'lovlarni to'lovchining roziligiga asosan amalga oshirish

C. Xorijiy valyutadagi to'lovlarning muddatliligi

D. Valyuta operatsiyalarini litsenziyalash

93. To'lov balansining joriy operatsiyalariga xos bo'lgan valyutaviy cheklashni ko'rsating

A. Portfelli investitsiyalar oqimini cheklash

B. Eksporterlarning valyuta tushumini majburiy sottirish

C. Xalqaro kreditlar oqimini cheklash

D. Texnologiyalarni investitsiya qilishni cheklash

94. To'lov balansi passiv bo'lganda qo'llaniladigan valyutaviy cheklov:

A. Norezidentlarga xorijiy valyutadagi omonatlariga foizlar to'lashni ta'qiqlash

B. Banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlarini Markaziy bankda deponent qilish

C. Ssuda kapitallari bozorini nazorat qilish

D. Mamlakatga valyuta olib kelishni cheklash

95. To'lov balansi aktiv bo'lganda qo'llaniladigan valyutaviy cheklov:

A. Oltinni olib chiqishni limitlashtirish

B. Xorijiy valyutalarni olib chiqishni limitlashtirish

C. Milliy valyutani xorijliklarga forvard sharti bo'yicha sotishni cheklash

D. Tashqi qarzni to'lashni to'xtatish

96. XVF Nizomining qaysi moddasida joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklovlarni bekor qilish ko'zda tutilgan?

A. V

B. VIII

C. VI

D. VII

97. Valyuta dempingi nima?

A. Milliy valyutaning almashuv kursini atayin past darajada ushlab turish

B. Valyutalarning inflyatsiya ta'sirida qadrsizlanishi

C. Tovarlarni tannarxidan past bahoda eksport qilish

D. Milliy valyutaning almashuv kursini atayin yuqori darajada ushlab turish

98. Xalqaro miqyosda qat'iy belgilangan kurs rejimi qachon joriy qilindi?

A. 1922 y.

B. 1870 y.

C. 1944 y.

D. 1978 y.

99. Qat'iy belgilangan kurs rejimi qachon bekor qilindi?

A. 1922 y.

B. 1870 y.

C. 1978 y.

D. 1944 y.

100. Xalqaro miqyosda valyutani tartibga solish masalalari valyuta siyosatining qaysi turiga kiradi?

A. Joriy

B. Tarkibiy

C. Diskont

D. Deviz

101. O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyutadagi to'lovlarning to'g'ri amalga oshirilganligini qaysi organ nazorat qiladi?

A. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

B. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

C. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi

D. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

102. Valyuta nazoratining maqsadini ko'rsating.

A. Ichki tovarlar bozorini himoya qilish

B. To'lov balansining defitsitini qisqartirish

C. Davlat byudjeti defitsitini qisqartirish

D. Xorijiy valyutalarga bo'lgan talabni barqarorlashtirish

103. Xalqaro valyuta operatsiyalarini nazorat qilishning nechta bosqichi mavjud?

A. 3

B. 2

C. 5
D. 7

104. Kapitallar harakati ustidan valyutaviy nazorat yondashuvlari qachon ishlab chiqilgan?

A. 1870 y.
B. 1914-1918 yy.
C. 1941-1945 yy.
D. 1970-1980 yy.

105. XVF Nizomining qaysi moddasida kapitallar harakati ustidan valyutaviy nazorat o'z aksini topgan?

A. V
B. VI
C. VII
D. VIII

106. Kapitallarning mamlakatga katta miqdorda kiriib kelishi:

A. Real valyuta kursining oshishiga olib keladi
B. Nominal valyuta kursining oshishiga olib keladi
C. Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkasi oshadi
D. Milliy valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi oshadi

107.To'lov balansini korrektirovka qilishning nechta varianti mavjud?

A. 3
B. 2
C. 4
D. 5

108. Quyidagi usullarning qaysi biri to'lov balansi defitsitini qoplashning so'nggi usuliga kiradi?

A. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish
B. Xalqaro kreditlar olish
C. Oltin zaxiralari hisobidan qoplash
D. Portfelli investitsiyalarni jalb etish

109. O'zbekistonda naqd xorijiy valyutalarni jismoniy shaxslarga sotish qachondan boshlab bekor qilindi?

A. 2013 yil 1 yanvardan
B. 2011 yil 1 yanvardan
C. 2012 yil 1 yanvardan
D. 2013 yil 1 fevraldan

110. O‘zbekistonda eksport tushumining necha foizi majburiy tartibda sottiriladi?

A. 30%
B. 50%
C. 70%
D. 100%

111. Sof to‘lovlarga xos bo‘lgan to‘lov shartini ko‘rsating.

A. Hujjatlar to‘lovga qarshi
B. Hujjatlar aktseptga qarshi
C. Oldindan to‘lash
D. Tovarni to‘lovni kechiktirib sotish

112. Qaysi transport hujjati tovarlarni boshqa hujjatlarsiz olish imkonini beradi?

A. Xalqaro temir yo‘l yuk xati
B. Xalqaro avtomobil yuk xati
C. Konosament
D. Xalqaro avia yuk xati

113. Qaysi tovar hujjatidagi xatolikni to‘g‘rilab bo‘lmaydi?

A. Sifat sertifikati
B. Invoys
C. Sug‘urta polisi
D. Konosament

114.Xalqaro savdoda necha shakldagi kafillik qo‘llaniladi?

A. 3
B. 2
C. 4
D. 5

115. Xalqaro savdoda necha turdagi kafillik qo‘llaniladi?

A. 3
B. 2
C. 4
D. 5

116. Quyidagi tovar hujjatlarining qaysi biri tijorat hujjati hisoblanadi?

A. Xalqaro avtomobil yuk xati
B. Konosament
C. Invoys
D. Xalqaro temir yo‘l yuk xati

117. Xalqaro savdodagi kafolat operatsiyalarida kamida nechta tomon ishtirok etishi kerak?

A. 5
B. 2
C. 4
D. 3

118. Eksporterdan tovar hujjatlarini regress huquqisiz sotib olishga asoslangan kreditlash shaklini ko'rsating.

A. Faktoring
B. Forfeyting
C. Overdraft
D. Kontokorrent

119. Xalqaro tijorat vekselini uchinchi shaxsga uzatish huquqini beruvchi yozuv nima deb ataladi?

A. Indossant
B. Indossament
C. Indossat
D. Aval

120. Xalqaro tijorat vekselini uchinchi shaxsga uzatgan shaxs kim deb ataladi?

A. Aval
B. Indossament
C. Indossat
D. Indossant

121. Xalqaro tijorat vekselini indossament orqali qabul qilib olgan shaxs kim deb ataladi?

A. Indossament
B. Indossant
C. Indossat
D. Aval

122. Eksport-import operatsiyalarida qaysi hujjat inkassoga qabul qilinadi?

A. Tratta
B. Invoys
C. Sug'urta polisi
D. Konosament

123. Hujjatlashtirilgan akkreditivga xos bo'lgan to'lov shartini ko'rsating.

A. Oldindan to'lash

B. Hujjatlar aktseptga qarshi

C. To'lovni tovarni qabal qilib olgandan so'ng amalga oshirish

D. Ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish

124. **EXW** mol etkazib berish shartida eksporterning vazifasi:

A. Tovarlarni eksport qilish bilan bog'liq bo'lgan bojxona hujjatlarini rasmiylashtiradi

B. Tovarni ko'rsatilgan punktga olib boradi

C. Tovarni tashuvchiga olib boradi

D. Tovarni turgan joyida importerga uzatish

125. **EXW** mol etkazib berish shartida importerning vazifasi:

A. Fraxtni to'laydi

B. O'zining hisobidan tovarni mo'ljallangan joyiga etkazadi

C. Importer o'z hisobidan tovarni etkazib berish shartnomasini tuzadi

D. Importer tovarni tashish jarayonidagi barcha risklarni o'z zimmasiga oladi

126. **FAS** to'lov shartida eksporterning vazifasi:

A. Tovarni mo'ljallangan joyigacha olib boradi

B. Tovarni kema oldigacha etkazib beradi

C. Tovarni tashish xarajatlarini to'laydi.

D. Tovarni tashish jarayonida risklarni o'z zimmasiga oladi

127. **FAS** to'lov shartida importerning vazifasi:

A. Tovarni tushirib olish xarajatlarini to'laydi

B. Tovarni qabul qilib oladi

C. Etkazib berish shartnomasini tuzadi va fraxtni to'laydi

D. O'z mablag'lari hisobidan import litsenziyasini oladi

128. To'lov topshiriqnomalari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 3-operatsiyani ko'rsating.

A. To'lov topshiriqnomasi yozish

B. Tashqi savdo shartnomasini tuzish

C. Tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni jo'natish

D. Bank to'lov topshiriqnomasiga asosan to'lovni amalga oshiradi

129. To'lov topshiriqnomalari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 4-operatsiyani ko'rsating.

A. Tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni jo'natish

B. To'lov topshiriqnomasi yozish

C. Tashqi savdo shartnomasini tuzish

D. Bank to'lov topshiriqnomasiga asosan to'lovni amalga oshiradi

130. To'lov topshiriqnomalari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni jo'natish

B. To'lov topshiriqnomasi yozish

C. Bank to'lov topshiriqnomasiga asosan to'lovni amalga oshiradi

D. Tashqi savdo shartnomasini tuzish

131. To'lov topshiriqnomasiga xos bo'lgan kamchilikni ko'rsating.

A. To'lov kafolatlanmagan

B. Tovarlar sifatini nazorat qilish qiyin

C. Texnik jihatdan murakkab

D. Komission to'lov stavkasi yuqori

132. To'lov topshiriqnomasiga xos bo'lgan afzallikni ko'rsating.

A. To'lov kafolatlangan

B. Tovarlar sifatini nazorat qilish mumkin

C. Importerga to'lov yuzasidan bosim o'tkazish mumkin

D. To'lov summasini oldindan olish mumkin

133. Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 2-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer tovarlarni qabul qilib oladi

B. Importyorning banki chekni yozadi

C. Bank orderli chekni importerga beradi

D. Importer chekni yozish to'g'risida bankka yozma ko'rsatma beradi

134. Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 4-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer tovarlarni qabul qilib oladi

B. Importer chekni yozish to'g'risida bankka yozma ko'rsatma beradi

C. Importyorning banki chekni yozadi

D. Bank orderli chekni importerga beradi

135. Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Importyorning banki chekni yozadi

B. Bank orderli chekni importerga beradi

C. Importer chekni yozish to'g'risida bankka yozma ko'rsatma beradi

D. Importer tovarlarni qabul qilib oladi

136. Sof inkassoda qaysi hujjat inkassoga qabul qilinadi?

A. Invoys

B. Tratta

C. Sug'urta polisi

D. Konosament

137. Hujjatli inkassoda qaysi hujjatlar inkassoga qabul qilinadi?

A. Oddiy veksellar

B. O'tkazma tijorat veksellari

C. Tijorat hujjatlari

D. Transport hujjatlari

138.Sof inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 2-operatsiyani ko'rsating.

A. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

B. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

C. Tovarlarni jo'natish

D. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

139. Sof inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 3-operatsiyani ko'rsating.

A. Tovarlarni jo'natish

B. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

C. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

D. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

140. Sof inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Tovarlarni jo'natish

B. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

C. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

D. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

141. Tratta – bu:

A. Oddiy veksel

B. Uzatma tijorat vekseli

C. Aval

D. Chekning rekviziti

142. Hujjatli inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 3-operatsiyani ko'rsating.

A. Bank importerni tovar hujjatlarini kelib tushganligi to'g'risida xabardor qiladi

B. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

C. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

D. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

143. Hujjatli inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

B. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

C. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

D. Bank importerni tovar hujjatlarini kelib tushganligi to'g'risida xabardor qiladi

144. Hujjatli inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 6-operatsiyani ko'rsating.

A. Importerning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi.

B. Bank importerni tovar hujjatlarini kelib tushganligi to'g'risida xabardor qiladi

C. Eksporter tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi

D. Eksporterning banki tovar hujjatlarini importerning bankiga jo'natadi

145. Ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 3-operatsiyani ko'rsating.

A. Eksporter tovarlarni jo'natadi

B. Importer akkreditivni ochish to'g'risida bankka ariza beradi

C. Importerning banki akkreditivni ochadi

D. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

146. Ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer akkreditivni ochish to'g'risida bankka ariza beradi

B. Importerning banki akkreditivni ochadi

C. Eksporter tovarlarni jo'natadi

D. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

147. Ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 6-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer akkreditivni ochish to'g'risida bankka ariza beradi

B. Eksporter tovarlarni jo'natadi

C. Importerning banki akkreditivni ochadi

D. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

148. Ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 3-operatsiyani ko'rsating.

A. Eksporter tovarlarni jo'natadi

B. Eksporterning banki eksporterni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi

C. Importerning banki akkreditiv summasini deponent qiladi

D. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

149. Ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 5-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer akkreditivni ochish to'g'risida bankka ariza beradi

B. Eksporterning banki eksporterni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi

C. Importerning banki akkreditiv summasini deponent qiladi

D. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

150. Ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblardagi 7-operatsiyani ko'rsating.

A. Importer akkreditivni ochish to'g'risida bankka ariza beradi

B. Eksporterning banki eksporterni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi

C. Eksporter tovar hujjatlarining o'zining bankiga uzatadi

D. Importerning banki akkreditiv summasini deponent qiladi

151. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning qaysi turi hozirgi vaqtda xalqaro savdoda qo'llanilmaydi?

A. Tasdiqlanadigan

B. Chaqirib olinmaydigan

C. Chaqirib olinadigan

D. Ta'minlangan

152. Stend-bay akkreditivi dastlab qaysi mamlakatning amaliyotida paydo bo'lgan?

A. Yaponiya

B. Germaniya
C. AQSh
D. Frantsiya
153. Akkreditivni qaysi turi kafolati vazifasini o'taydi?
A. Rambursli
B. Tiklanadigan
C. Bek-tu-bek
D. Stend-bay
154. Akkreditivning qaysi turida akkreditiv summasi avans tariqasida oldindan uzatiladi?
A. Qizil hoshiyali akkrediitv
B. Stend-bay
C. Ko'k hoshiyali akkreditiv
D. Bo'linmaydigan akkreditiv
155. O'zbekistonda akkreditivning qaysi shaklidan keng foydalanilmoqda?
A. Chaqirib olinadigan
B. Ta'minlangan akkreditiv
C. Tasdiqlanadigan
D. Stend-bay
156. Ta'minlangan akkreditivlarga xos bo'lgan kamchilik:
A. To'lov kafolatlanmagan
B. Komission to'lov stavkasi yuqori
C. Importerlarga tegishli valyuta mablag'lari ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib qoladi
D. Tovarning sifatini nazorat qilish qiyin
157. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida eksporter nima deb ataladi?
A. Akkreditiv bank
B. Xabar beruvchi bank
C. Benefitsiar
D. Arizador
158.Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida eksporterning banki nima deb ataladi?
A. Benefitsiar
B. Xabar beruvchi bank
C. Akkreditiv bank
D. Arizador

159. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida importer nima deb ataladi?

A. Xabar beruvchi bank
B. Benefitsiar
C. Arizador
D. Akkreditiv bank

160. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida importerning banki nima deb ataladi?

A. Benefitsiar
B. Arizador
C. Akkreditiv bank
D. Xabar beruvchi bank

161. **UCP 600** qoidasiga ko'ra, agar akkreditivda sug'urta qoplash summasi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda, ushbu summa tovarga nisbatan o'rnatiladi:

A. 80% darajasida
B. 75% darajasida
C. 110% darajasida
D. 100% darajasida

162. **UCP 600** qoidasiga ko'ra, akkreditiv summasiga nisbatan qo'llaniladigan taxminan tebranishlarga necha foiz darajasida yo'l qo'yiladi:

A. 5%
B. 10%
C. 15%
D. 20%

163. **UCP 600** qoidasiga ko'ra, akkreditiv muddatini cho'zish hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab necha bank ish kunigacha ruxsat etiladi?

A. 2
B. 1
C. 3
D. 7

164. **UCP 600** qoidasiga ko'ra, akkreditivda tovarlar soni ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda qanchagacha farqlanishga ruxsat etiladi?

A. 15%
B. 10%
C. 5%

D. 20%

165. **UCP 600** qoidasiga ko'ra, akkreditiv bo'yicha hujjatlarni tekshirish va ijrosini ta'minlash muddati qancha?

A. 10 kun

B. 21 kun

C. 13 kun

D. 15 kun

166. Importerning joriy hisobraqamida valyuta mablag'lari bo'lmagan taqdirda akkreditiv qaysi manbalar hisobidan to'lanadi?

A. Importerning muddatli va jamg'arma depozitlari hisobidan

B. Banklarning kontokorrent kreditlari hisobidan

C. Banklarning muddatli va overdraft kreditlari hisobidan

D. Importerning zaxira fonlari hisobidan

167. Akkreditiv to'langanda importerning bankida qaysi hisobraqami kreditlanadi?

A. Importer bankining "Nostro" vakillik hisobraqami

B. Eksporter bankining "Vostro" vakillik hisobraqami

C. Importerning joriy hisobraqami

D. Eksporterning joriy hisobraqami

168. Qaysi xalqaro hisob-kitob shaklini indossament orqali uchinchi shaxsga uzatish mumkin?

A. Hujjatlashtirilgan akkreditiv

B. To'lov topshiriqnomalari

C. Banklarning orderli cheklari

D. Sof inkasso

169. Qaysi instrument orqali to'lov topshiriqnomalari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarda to'lovni kafolatlashga erishish mumkin?

A. Valyuta fyucherslari

B. Bank kafolati

C. Valyuta optsionlari

D. Forvard shartnomalari

170. Aval so'zini xalqaro hisob-kitoblarning qaysi shakliga nisbatan ishlatish mumkin?

A. Akkrediitv

B. To'lov topshiriqnomasi

C. Chek

D. Inkasso

171. Odatda, banklarning orderli cheklari qancha muddatga yoziladi?

A. 10 kun
B. 20 kun
C. 15 kun
D. 30 kun

172. O'zbekiston O'rtaer dengizi mamlakatlari bilan tashqi savdo munosabatlarida asosan qaysi portdan foydalanadi?

A. Eronning Bandar-Abbos porti
B. Estoniyaning Tallin porti
C. Gruzining Poti porti
D. Rossiyaning Novorossiysk porti

173. SWIFT tizimi qachon tashkil topgan?

A. 1977 y.
B. 1956 y.
C. 1973 y.
D. 1981 y.

174. SWIFT tizimi faoliyatini qachon boshlagan?

A. 1956 y
B. 1977 y.
C. 1973 y.
D. 1981 y.

175. SWIFT tizimi tashkil etilganda nechta bank unga a'zo edi?

A. 170
B. 113
C. 240
D. 300

176. SWIFT tizimidagi **N** rusumidagi ma'lumotlarni banklar necha ish kuni mobaynida qayta ishlashga haqli?

A. 1
B. 3
C. 2
D. 5

177. SWIFT tizimidagi **U** rusumidagi ma'lumotlarni banklar necha ish kuni mobaynida qayta ishlashga haqli?

A. 3
B. 2
C. 1

D. 5

178. Qaysi to'lov usulida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tezligi yuqori?

A. Bank trattalari

B. Cheklar

C. Pochta uzatmasi

D. Solo veksellar

179. SWIFT tizimida tezkor mazmundagi to'lovlarni qancha muddat mobaynida amalga oshirish mumkin?

A. 7 min.

B. 3 min.

C. 5 min

D. 10 min.

180. Uzatma va odddiy tijorat veksellari to'g'risidagi Jeneva konventsiyasi qachon qabul qilingan?

A. 1944 y.

B. 1928 y.

C. 1930 y.

D. 2007 y.

181. Konosament imzolangandan keyin yuk ortilgan kemani to'xtatish va yuklarni tekshirish mumkinmi?

A. Mumkin

B. Yo'q

C. Sudning qaroriga ko'ra to'xtatish mumkin

D. Eksporterning talabiga ko'ra to'xtatish mumkin

182. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida konosamentdagi xatolik aniqlansa, u holda hisob-kitob shaklidan foydalaniladi?

A. Chek

B. Inkasso

C. To'lov topshiriqnomasi

D. Bank uzatmasi

183. Invoysni tekshirishda qaysi tovar hujjati bilan solishtiriladi?

A. Qadoqlash qog'ozi

B. Sug'urta polisi

C. Sifat sertifikati

D. Konosament

184. Quyidagi transport hujjatlarining qaysi biri hali jo'natilmagan tovarlarning sifatina nazorat qilish imkonini beradi?

A. Xalqaro avia yuk xati
B. Xalqaro avtomobil yuk xati
C. Xalqaro temir yo'l yuk xati
D. Konosament

185. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan asosiy risk turini ko'rsating.

A. Likvidlilik riski
B. Kredit riski
C. Bozor riski
D. Transformatsiya riski

186. Xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan qaysi valyutaga nisbatan 1 koeffitsienti qo'llaniladi?

A. Rossiya rubli
B. Yaponiya ieni
C. Xitoy yuani
D. AQSh dollari

187.Xalqaro hisob-kitoblarda keng ishlatiladigan qaysi valyutaga nisbatan 10 koeffitsienti qo'llariladi?

A. Shveytsariya franki
B. Yaponiya ieni
C. Funt sterling
D. Kanada dollari

188. AQSh dollariga "xalqaro rezerv valyuta" maqomi qachon berildi?

A. 1978 y.
B. 1870 y.
C. 1922 y.
D. 1944 y.

189. Buyuk Britaniya funt sterlingiga "xalqaro rezerv valyuta" maqomi qachon berildi?

A. 1870 y.
B. 1944 y.
C. 1922 y.
D. 1978 y.

190. Yaponiya ieniga "xalqaro rezerv valyuta" maqomi qachon berildi?

A. 1922 y.
B. 1870 y.
C. 1978 y.
D. 1944 y.

191. 2011–2015 yillarda SDRning valyuta savatida AQSh dollarining ulushi necha foizni tashkil etadi?

A. 9,4
B. 37,4
C. 41,9
D. 11,3

192.2011-2015 yillarda SDRning valyuta savatida yevroning ulushi necha foizni tashkil etadi?

A. 41,9
B. 9,4
C. 11,3
D. 37,4

193. 2011-2015 yillarda SDRning valyuta savatida funt sterlingning ulushi necha foizni tashkil etadi?

A. 9,4
B. 11,3
C. 37,4
D. 41,9

194. 2011-2015 yillarda SDRning valyuta savatida Yaponiya ienining ulushi necha foizni tashkil etadi?

A. 9,4
B. 11,3
C. 37,4
D. 41,9

Glossariy

Erkin ishlatiladigan valyuta (freely usable currency) – to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limida valyutaviy cheklashlar bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalari.

Qattiq valyuta (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo'lgan valyutalari.

Yumshoq valyuta (soft currency) – xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya'ni tashqi konvertirlikka ega bo'lmagan valyutalar.

Xalqaro rezerv valyutalar (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan etakchi valyutalar.

Valyuta kursi (exchange rate, foreign exchange rate) – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

Aktiv savdo balansi ***(active trade balance)***- mamlakatdan chetga chikarilayotgan tovarlarning mamlakatga kirib kelayotgan tovarlardan (importdan) oshib ketishini tavsiflovchi savdo balansi.

Aktiv to'lov balansi ***(active payments balance)***- mamlakatning chet eldan tushadigan tushumlari summasi uning xorijiy sarf-xarajatlari va to'lov summalaridan oshib ketadigan to'lov balansi.

Bazaviy stavka - *(base rate)* - kreditlarr bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda qo'llaniladi. Odatda, banklararo ssuda kapitallari bozorining stavkasi yoki Markaziy bankning hisob stavkasidan bazaviy stavka sifatida foydalaniladi.

Banknotlar ***(banknote; bill; note)***- bank biletlari - Markaziy banklar tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Ular Markaziy banklarning aktivlari bilan ta'minlanadi.

Valyuta birjasi ***(currency market)***- xorijiy valyutalar oldi-sotdi qilinadigan birja bozori.

Valyuta interventsiyasi ***(currency intervention)***- Markaziy bank tomonidan milliy valyutaning favqulodda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida xorijiy valyutani sotib

olinishi yoki sotilishi. Odatda, bitta xorijiy valyuta interventsiya vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda AQSh dollari valyuta interventsiyasi vositasi hisoblanadi.

Valyuta zaxirasi ***(currency reserves)***- biror-bir mamlakatning xorijiy valyutalardagi mablag'lari.

Valyuta siyosati ***(foreign currency policy)*** - valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish tadbirlarining yig'indisi.

Bar'erli optsion (barrier option) – optsion tugash muddati qisqaradigan yoki uzaytiriladigan optsion bo'lib, unda belgilangan kurs etib kelishi kutiladi.

Bermud optsionlari (Bermuda options) – amerika va yevropa optsionlarining birlashmasidir.

Giperinflyatsiya ***(hyperinflation)***- tovarlar bahosi va pul massasining yuqori sur'atlarda oshib ketishi. Giperinflyatsiyada baholarning oylik o'sish sur'ati 50% va undan yuqori bo'ladi.

Davlat qarzi ***(national debt; public debt)*** - davlatning to'lanmagan zayomlar va ularning berilmagan foizlarini aks ettirgan barcha qarzlarining umumiy summasi. Davlat qarzi ikki xil bo'ladi: ichki va tashqi qarz.

Devalvatsiya (devalvatsiya, devalua tjon) – milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi.

Denominatsiya (denomination) – yangi pul birligini ma'lum nisbatda eski pul birligiga almashtirilishi. O'zbekistonda milliy valyuta 1994 yilning 1 iyulidan boshlab muomalaga kiritilganda yangi valyuta so'm eski valyuta-so'm – kuponga 1ga 1000 nisbatda almashtirilgan edi.

Deflyatsiya (deflation) – tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishi.

Diskont siyosati (*discaunt rate*) – mamlakat to'lov balansi va valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida Markaziy bankning diskont stavkasini o'zgartirish siyosati.

Evro dollarlar ***(eurodollars)***- AQSh dollarining AQShdan tashqarida muomalada bo'lgan qismi.

Inflyatsiya (inflation) — tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi natijasida muomalada ortiqcha pul massasini paydo bo'lishi va shuning asosida pulning qadrsizlanishi.

Kredit ***(credit)***- pul yoki tovar shaklidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz to'lashlilik shartlari asosida berish.

Kross-kurs ***(cross rate)*** - ikki valyutaning o'zaro nisbati bo'lib, bu nisbat mazkur valyutalarning uchinchi valyutaga nisbatan kursi orqali aniqlanadi.

Milliy valyuta tizimi (national monetary system) — bir mamlakatda valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

Osiyo optsionlari (average rate options) – yoki o'rtacha kurs optsionlari.

Revalvatsiya (re-valeo) - milliy valyutani chet el valyutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbtan qadrining oshirishdir.

Spot operatsiyasi (spot) – spot bitimi tuzilgandan keyin 2 ish kuni moabynida amalga oshiriladigan joriy valyuta operatsiyasi.

Svop ***(swap)*** – ma'lum bir valyutani spot sharti bo'yicha sotish va uni forvard sharti bo'yicha sotib olishdir yoki ma'lum bir valyutani forvard sharti bo'yicha sotish va uni spot sharti bo'yicha sotib olishdir.

Senoraj *(ingl. seigniorage)* – naqd pullarni emissiya kilishdan olinadigan daromad.

Forvard operatsiyasi (forward) – ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasi.

Xedj ***(hedge, selling hedge)*** - baho bo'yicha riskni sug'urtalash; fyuchers shartnomasi tuzish.

SWIFT (Societ y For Worldwide Interbank Financial Telecommunication)- Xalqaro Banklararo Moliyaviy Telekommunikatsiya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni. 1995 yil 21 dekabr. 154-I-son. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 11-33 b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil 25 aprel. 216-I-son. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 34-51 b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni. 2003 yil 11 dekabr. - №556-II. O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 456 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. www.lex.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. www.lex.uz.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 yanvardagi PQ-1914-sonli "Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2013. № 6 (558). B. 5.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: O‘zbekiston, 2012. B. 4.

10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. 592 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

12. Андрюшин С., Бурлачков В. Денежно-кредитная политика и глобальный финансовый кризис: вопросы методологии и уроки для России // Вопросы экономики. М., 2008. №11. С. 39.

13. Арустамов Э.А., Андреев Р.С. Внешнеэкономическая деятельность. М.: КНОРУС, 2011. 168 с.

14. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va echimlar. T.: Fan va texnologiya, 2007. 184 b.

15. Бланшар О. Макроэкономика. Пер. с англ. М.: Высшая школа экономики, 2010. 671 с.

16. Глориозов А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. М.: Юрайт, 2011. 905 с.

17. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. М.: Юрайт, 2016. 543 с.

18. Милтон Фридмен. Если бы деньги заговорили... . Пер. с англ. М.: Дело, 1999. 160 с.

19. Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. М.: Дело и Сервис, 2007. С. 625-626.

20. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. Пер. с англ. СПб.: Питер, 2009. 544 с.

21. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. М.: ООО И.Д. Вильямс, 2013. 880 с.

22. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalar va udumlar (UCP 600).

23. Inkasso bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalar.

24. Shartnomaviy kafolatlar bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalar.

25. BMTning xalqaro oddiy va o‘tkazma tijorat veksellari to‘g‘risidagi konventsiyasi.

26. BMTning yuklarni dengiz orqali tashish to‘g‘risidagi konventsiyasi.

27. Yuklarni havo transportida tashish borasidagi ayrim qoidalarni umumlashtirish bo'yicha Varshava konventsiyasi.

28. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 28 maydagi 610 – sonli "Ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. T.: O'zR MB, 2005.

29. Taylor, J. The Robustness and Efficiency of Monetary Policy Rules as Guidelines for Interest Rate Setting by European Central Bank // Journal of Monetary Economics. Vol. 43. Issues. 1993. P. 655-679.

30. Akhar M.A. Understanding Open Market Operation. Federal Reserve Bank of New York, 1997. 52 r.

31. Akerlof G.A. Behavioral Macroeconomics and Macro-economic Behavior // American Economic Review. 2002. Vol. 92. № 3. P. 411-433.

32. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation//Working Paper. 65. IMF. P. 63-67.

33. Clarida, R., Gali, J., Gertler, M. Monetary Policy Rules in Practice Some International Evidence. European Economic Review. № 42. 1998. P. 1033-1067.

34. Calderon C., Schmidt-Hebbel K. What Drives Inflation in the World//Central bank of Chile Working Papers, 2008. № 491. P. 1-20.

35. Devereux M.B., Engel C. Monetary Policy in the Open Economy Revisited: Praice Setting and Exchange Rate Flexibility // NBER Working Paper, 2000. № 7665. P. 765-783.

36. Goodfriend M. How the World Achieved Consensus on Monetary Policy // Journal of Economic Perspectives. 2007. Vol. 21. № 4. P. 47-68.

37. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. P. 71-88.

38. Kuzin, V. The inflation aversion of the Bundesbank: a state space approach // Journal of Economic Dynamics & Control 30. 2006. P. 1671 – 1686.

39. Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов // Мировая экономика и международные отношения. М., 2007. № 6. С.56.

40. Будаев Р.В. Минимизация валютных рисков // Международная экономика. М., 2011. №9. С. 69-71.

41. Буздалин А.В. Розничный форекс-рынок – неотъемлемая составляющая финансового рынка // Банковское дело. М., 2016. №4. С. 22-28.

42. Малышев П. Особенности управления резервными активами в странах Азии // Мировая экономика и международные отношения. М., 2011. №3. 28-36.

43. Хлебникова Д.В. Реформа управления Международным валютным фондом в свете решений саммитов «Группы 20» // Деньги и кредит. М., 2014. №4. С. 60-66.

44. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2016. yanvar-dekabr. T.: ITM, 2017. B. 11.

Интернет-сайтлари

- http://www.cbu.uz. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti).
- http://www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi Hukumatining portali).
- http://www.lex.uz . (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari).
- http://www.stat.uz . (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi).
- http://www.uba.uz. (O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi sayti).
- http://web.worldbank.org. (Jahon banki guruhi sayti).
- http://www.imf.org. (Xalqaro Valyuta Fondi sayti).
- http: // www.federalrezerve. gov.(AQSh Federal Rezerv banki sayti).
- http://www.ecb.evropa.eu. (yevropa Markaziy banki rasmiy sayti).
- www://bankofengland.co.uk. (Angliya Markaziy banki rasmiy sayti).
- http://www.cbr.ru. (Rossiya Markaziy banki sayti).

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-BO'LIM. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI

1-BOB. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARINI TASHKIL QILISH VA BANKLARARO VAKILLIK MUNOSABATLARINI O'RNATISH TARTIBI 5

1.1. Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning iqtisodiy-huquqiy asoslari 5

1.2. Banklararo vakillik munosabatlari: zarurligi, turlari va amalga oshirish tartibi 20

2-BOB. TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARINING MAZMUNI VA TURKUMLANISHI 25

2.1. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining zarurligi va turkumlash mezonlari 25

2.2. Tijorat banklarining spot operatsiyalari 28

2.3. Tijorat banklarining muddatli valyuta operatsiyalari 33

2.4. Tijorat banklarining svop operatsiyalari 40

3-BOB. MARKAZIY BANKNING VALYUTA OPERATSIYALARI: TURLARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI 44

3.1. Markaziy bankning valyuta operatsiyalari va ularni tashkil qilish asoslari 44

3.2. Markaziy bank valyuta operatsiyalarining turlari va amalga oshirish mexanizmi 47

4-BOB. VALYUTA RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI 59

4.1. "Valyuta riski" tushunchasi va uni yuzaga keltiruvchi sabablar 59

4.2. Valyuta riskining darajasiga ta'sir etuvchi omillar 66

4.3. Valyuta riskini boshqarish usullari 68

5-BOB. VALYUTA OPERATSIYALARINI TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT QILISH 75

5.1. Valyuta operatsiyalarini tartibga solish 75

5.2. Valyuta operatsiyalarini nazorat qilish 82

2-BO'LIM. XALQARO HISOB-KITOBLAR

6-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI 87
6.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari 87
6.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari 93
6.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlari 99

Test savollari 107
Glossariy 139
Foydalanilgan adabiyotlar 142

35396

Bobakulov Tulkin Ibodullayevich,
Isakov Janabay Yakipbayevich,
Abdullayev Utkur Azimovich,
Alimardonov Ilxom Muzrabshoxovich,
Abrayev Normurod Karimovich

XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI VA HISOB-KITOBLAR

Darslik

Muharrir **Z. Musayeva**
Badiiy muharrir **K. Boyxo'jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **O. Fozilova**

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.
Bosishga ruxsat 20.12.2018-yilda berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi №2.
«Times» garniturasi. Shartli b.t. 8,6. Nashr hisob t. 8,8.
Adadi 40 dona. 38-buyurtma.

"IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60[a].